

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

**TARIX TA'LIM YO'NALISHI
«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

**«BUXORO RESPUBLIKASIDAGI QARSHILIK KO'RSATISH
HARAKATI TARIXIDAN (1920-1924 YILLAR)»**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Xolova Fotima

Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Sattorova I.G'

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil _____ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dots.R.Sh. Xoliqulov

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2014 yil _____ iyundagi majlisida himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YADAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2014

M U N D A R I J A

	KIRISH	3-5
I. BOB	BUXORODA QIZIL ARMIYAGA QARSHI HARAKATNING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHI	
I.1.	Buxoroda muxolifat harakatining boshlanishi va uning dastlabki g'alabalari (1920-1921 yy).....	6-23
I.2.	Harakatning avj olishi va uning kuchayishi. Anvar Posho boshchiligida olib borilgan janglar (1921-1922 yy).....	24-50
II BOB	BUXORO QO'RBOSHLARI VA SOVETLARGA QARSHI HARAKATNING AHVOLI.....	
II.1.	Harakatning keyingi rivojlanish bosqichlari (1922-1924yy) G'arbiy Buxoroda Mulla Abduqahhor boshchiligidagi harakat	51-75
II.2.	Sharqiy Buxoroda Salim Posho va Ibrohimbek rahbarligidagi janglar.	76-88
	XULOSA.....	89-91
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	92-93

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini ko'lga kiritgandan so'ng, o'zining haqqoniy tarixini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldi. Sho'rolar davrida bizning tariximiz buzib ko'rsatildi, o'zoq tariximizni yo'qotishga harakat qildilar.

“Xoh o'tmishda, xoh bugun bo'lsin, boshqa millat, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, undan judo etish... Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yingib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”.¹

Milliy mustaqillik va ozodlik yo'li, erkin hayot qurish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yaratish aslida manna shunday dmashshaqatli bo'ladi. Bunga ko'hna tarixdan ham, yaqin o'tmishimizdan ham ko'pdan-ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Mustaqillik yurtimizga, xalqimizga o'tmishimizni anglash tuyg'usini yuqtirdi, imon va e'tiqodimizni qaytarib berdi. Buyuk tariximizni xolisona o'rganib, uni birlamchi manbalar asosida kelajak avlodga yetkazib berish imkoniyati tug'ildi. Turkiston istiqloli va taraqqiyoti uchun kurashda o'z shirin jonlarini fido qilgan, qutlug' qonlari bilan O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligiga mustahkam poydevor tayyorlagan ulug' siymolarning nomlarini zomandoshlarimiz xotirasiga muhrlash va abadiylashtirish vaqti allaqachon yetdi.²

Tarixdan ma'lumki mustabit sovet tuzumi va komunistik rejimga, qizil armiyaga qarshi ko'p yillar davomida Turkiston xalqlari bir yoqdan bosh chiqarib, qo'lni qo'lga berib, hayot momat janglarini olib borishdi. Qariyb

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук. Т. “Шарк”. 1998.24-25 бетлар.

² Каримов И.А. Ватан саждогоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. Т.Ўзбекистон. 1996й. 56 бет

yigirma yil davom etgan bu harakat sovet rejimi davrida noto'g'ri talqin qilindi va unga «bosmachilik» deb tamg'a bosildi. Aslini olganda bu harakat ishtirokchilarining qahramonliklari, ulardagi Ona Vatanga nisbatan bo'lgan jo'shqin mehr-muhabbat tuyg'usi, vatanparvarlik, o'z xalqining taqdiri uchun qayg'urish kabi xislatlar bir buyuk g'oya –Butun Turkistonning milliy istiqloli va mustaqilligi g'oyasida mujassamlashgan edi.

Buxoro respublikasidagi istiqlolchilik harakati (1920-1924 yillar) ham butun Turkiston mintaqasidagi bu harakatning uzviy qismi hisoblanadi. Buxoroliklar qariyb besh yil davomida qizil armiyaga qarshi mardlarcha kypashdilar. Kurash shiddatli va shafqatsiz kechdi. Biroq 1924 yilning oxirida buxoroliklar vaqtincha mag'lubiyatga uchrashdi.

Turkiston mintaqasida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgach, 1925 yildan boshlab harakatning yangi davri boshlandi va u ayrim uzilishlar bilan o'n yil davom etdi.

Ma'lumki, 20-yillarda Fayzulla Xo'jayev va Turor Risqulov kabi davlat rbohlari o'z asarlarida ushbu harakat mavzusini tarixiy haqiqatga mos ravishda yoritishga nisbatan yaqinlashgan edilar. Biroq sovet tarixchilari L.Soloveychik, F.Ilyutko, A.Zelevyov, A.Boboxo'jayev, M.Irkayev, A.Eshonov, X.Inoyatov va boshqa tadqiqotchilarning kitoblarida xalqimizning Buxorodagi istiqlol janlari «bosmachilik» harakati tarzida talqin qilindi. Sovet mafkurasi va totalitar rejim hukmronligi sharoitida bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi.

Buxoroning so'nggi hukmdori amir Said Olimxonning «Buxoro xalqining hasrati tarixi» memuari, mashhur taraqqiyparvarlar Ahmad Zaki Validiy To'g'on va Munavvar Qorining «Xotiralar» asarlarida, shuningdek, muhojirlikdagi vatandoshlarimiz va xorijiy tadqiqotchilar Mustaf o Cho'qay, Abdulla Rajab Boysun, Jozef Kastanye, Frederik Beyli, Boymirza Hayit, Shahobiddin Yassaviy, Glenda Frezer, Ali Bodomchi, Masauki Yamauchi, Xisao Komatsu, Meri Broksap, Olaf Kroeuning Kitoblarida Buxoroga qizil

armiyaning bosqini va undagi istiqloqlilik harakati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.¹

Sovetlarga qarshi istiqloql uchun kurashga otlangan kuchlarda milliy ahillik va birlik yo'q edi. Ular katta kuch bo'lsalarda uyushmagan, tarqoq va hech qanday dasturiy yo'riqqa ega emas edilar, tajribasi yo'q edi. Bundan m ustamlakachi sovetlar ustalik bilan foydalandilar.

¹ Раджабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т. 2002. 3-4 бетлар

I. Bob: Buxoroda qizil armiyaga qarshi harakatning asosiy rivojlanish bosqichi

I.1. Buxoroda muxolifat harakatining boshlanishi va uning dastlabki g'alabalari (1920-1921 y.y.)

Sovetlar bosqiniga qarshi Buxoro mustaqilligi va ozodligi uchun kurashgan asosiy kuch- amir Sayid Olimxon boshchiligidagi kuchlar bo'ldi. Buxoro amiri o'ziga sodiq kuchlar bilan poytaxtni tark etgach Boysun viloyatiga qarshi Bandor va Darband atroflarida bosqinchi qizil askarlar bilan jang qilib Hisor viloyatiga chekindi. Bu yerda u olti oy moboynda dushmanga qarshi jang olib bordi. "Jang boshida,- deydi amir Olimxon,- harbiy vazir tog'am Muhammad Saidbek Parvonachi va urush qo'mondoni Abdulhafiz Parvonachi, Ibrohimbek biy Askar boshliqlari edilar. Shu bilan olti oy davomida kurash va jang yuz berib, oxiri bolsheviklar jamoasi o'zlari paydo qilgan mazkur urushga majbur bo'lishib, Moskvadan anchagina askar va harbiy qurollar yig'ib keldilar. Shu bilan ular birdan Islom lashkari ustiga hujum boshladilar. Islom askarlarida harbiy anjom va qurollar kam bo'lganligi jihatdan o'n oy davomida urushib jang qildilar, so'ngra bu bandayi ojiz yordam va madad so'rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qildim".¹

Amir Olimxon qizil askarlarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida Hisordan Ko'lob viloyatiga, u yerdan 1921-yilda Afg'oniston poytaxti Kobulga yetib keldi. U yo'l-yo'lakat Sharqiy Buxoro hududida bo'lgan chog'ida sovetlarga qarshi vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashga ko'z tikkan kuchlarni qo'llab-quvvatladi, ularga madad va maslahatlar berdi. Jumladan, Sayid Olimxon Ko'lob viloyatida bo'lganida sovetlarga qarshi kurash olib brogan ozodlik fidoyilari Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegilar bilan uchrashganligi va dushman bilan bo'ladigan istiqboldagi jang rejalarini ishlab chiqqanligini takidlaydi. "Men,- deydi amir Olimxon,- amr-farmon chiqarib, uni (Muhammad Ibrohimbekni demoqchi-mualliflar) muayyan joylarga yubordim. Muhammad Ibrohimbek bilan

¹ Amir Сайид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. 29- бетлар

Davlatmanbekka mening o'sha ruxsatlarim bilan ish yuritishga, dushman yo'lini istehkom qilib turishga buyurdim".¹

Afg'oniston amiri Omonullaxon amir Olimxonni yaxshi qarshi oldi. Amir sarbozlariga Mozori Sharif va Xonoboddan joy ajratildi. Uning o'ziga esa amirning Kobulyaqinidagi bog'i- Qal'ayi Fatudan joy ajratildi. Dastlabki payitda bu terda Sayid Olimxon bilan birgalikda Karmana beki Yovqochbek, Sherobod beki Abdulhafizbek, Mirfattohbek udaychi, amirning savdo bo'yicha Londondagi vakili bo'lib ishlagan Yusufboy Muqimboyev, Qori Mizrob, harbiy vazir Ibrohimbek, Abdullabek to'qsoba, A'zamhoji va boshqalar bo'lgan.²

Sobiq hukmdorning qochib ketishga ulgurmagan amaldorlari va saroy a'yonlari, ko'p mikdordagi nufuzli ruhoniylar keyinchalik ham muntazam ravishda bolshevik chekistlar tomonidan otib tashlandi. Ularga qarashli bo'lgan zavod va fabrikalar, xususiy korxonalar, omborlar, paxta va ipak zahiralari, butun mol-mulklari musodara qilindi.³

«Buxorodagi Xurjun, Hoji Zohid, Mullo Muhammad Sharif Savdogar, Pushaymon, O'tkir qo'shbegi, Fothali qo'shbegi madrasalari qizil askarlar tomonidan qamoqxonalarga aylantirildi. Hazrati Imom darvozasi ichidagi Mirzo Urganjiy hovlisi «ikkinchi zindon» nomini oldi»⁴, - deb o'sha davr voqyealarining bevosita shohidi bo'lgan mahalliy muarrix Muhammad Ali Baljuvoni o'zining «Tarixi Nofei» asarida yozgan edi.

Shunday qilib, butun musulmon olamida «sharif shahar» va «islom dinining gumbazi» sifatida shuhrat qozongan muqaddas Buxoroi Sharif kommunistlar tomonidan qizil Buxoroga aylantirila boshlandi. Buxoroning turli joylarida zudlik bilan inqilobiy qo'mita - revkomlar tuzildi.

Buxoroning markaziy qismlaridan shoshilinch chekinayotgan Said Olimxon qarshi va Fuzordan ham o'tib, Boysun bekligi hududiga kirib bordi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, sobiq amir Said Olimxon yaxshi qurollangan 300 kishilik otliqlar, shu jumladan, Afg'oniston hukumatining vakili Muxammad

¹ O'sha manba, 16-bet.

² R.Shamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi, 3. T.: "Sharq" 2010, 192-193- betlar

³ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 57-58 бетлар

⁴ Амир Сайид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. 19-20 бетлар

Akbarxon boshchiligidagi 100 ta afg'on sarbozi himoyasi ostida 1920 yil 10 sentyabrda Boysunga yetib kelishdi.¹ Biroq Said Olimxon o'z xotiralarida Boysun tug'risida so'z yuritmay, balki Qo'rg'ontepaga borganligini tilga oladi. Holbuki, Qo'rg'ontepaga u sal keyinroq borgan.

Boysun begi Said Ahmad «Kutilmagan mehmon»ni biroz hayratlanib, qarshilaydi. Said Olimxon bu yerda sanoko'i kunlar bo'lishiga qaramasdan, u «Boysun viloyatiga qarashli Bandardan to Darbandgacha dushman oldini olish uchun istehkomlar qurdirtiradi»². Ammo orqadan yetib kelgan qizil askarlarning hujumiga uning sarbozlari dosh bera olmaydi. Darband va Sayrobda bo'lgan janglardan so'ng, Said Olimxon «Buxoroning sharqi bo'lgan Hisor viloyatiga» junaganligini o'z memuarida yozib qoldirgan. U Hisor va Denovga yangi hokimlarni tayinlaydi.

O'z vaqtida Yosh buxorolik jadidlarning mamlakatda demokratik islohotlar o'tkazish haqidagi takliflariga keskin salbiy munosabat bildirgan sobiq amir endi bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi mustaqillik kurashini tashkil qilishga o'rindi. Darhaqiqat, qisqa fursat ichida Said Olimxon boshchiligidagi qo'shin safi-ga Sharqiy va O'rta Buxorodan ko'plab vatanparvarlar kelib qo'shildi.

Said Olimxon Dushanbe va Qoratog'da ham bo'lgach, Hisor shahrini o'ziga qarorgoh qilib belgilaydi. Sharqiy Buxorodagi Ibrohimbek Davlatmandbek Fuzayl Maxdum, Eshon Sulton, Tog'ay Sari, Avliyoqulbek³, Abdurahmonbek Alimardonbek kabi nufuzli kishilar, ypyg' boshliqlari va beklari, yirik din arboblari. sobiq amir huzurida to'planishdi. Ular Sharqiy Buxoroni qizil askarlar qo'liga topshirmaslik yangi hokimiyatni tan olmaslik va unga buysunmaslikka qaror qildilar.

Said Olimxon o'z lashkarlarining boshlig'i qilib, harbiy vazir bo'lgan tog'asi Muhammad Saidbek Parvonachini, shuningdek Abdulhafiz Parvonachi va Ibrohimbekni tayinlaydi. «Hisor viloyatida bolsheviklarga qarshi olti oy davomida kurash va jang olib bordim», deb yozgan edi u.

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 58-59 бетлар

² Ўша китоб 59 бет

³ Ўша китоб ..59-60 бетлар

Said Olimxon bu davrda xarbiy kuch va qurol-yarog' so'rab, Afg'oniston amiri huzuriga o'z ishonchli vakillarini jo'natdi. Afsuski, Afg'onistondan yetib kelgan yordamchi kuchlar, qurol-yarog' va harbiy aslahalar ham unchalik kup emas edi. bundan tashqari, Said Olimxon hali Sharqiy Buxoroda ekanligidayoq o'z vakillari orqali bolsheviklarga qarshi kurashish uchun harbiy yordam so'rab Yevropa mamlakatlariga, xususan, Angliyaga bir necha marta murojaat qildi. Afsuski, uning bu iltimosiga Angliya va Yevropadagi boshqa davlatlar sovuqqonlik bilan qarab, hych qanday amaliy yordam ko'rsatishmadi.

Muntazam armiyaning mavjud emasligi, qurol-yarog'larning yetishmasligi, zamonaviy harbiy mutaxassislarining deyarli yo'qligi va boshqa qator qiyinchiliklarga qaramasdan qisqa muddat ichida Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi tura oladigan katta miqdordagi harbiy kuchlar to'plandi. Buxoro Xalq Respublikasi Revkomi nomiga jo'natilgan qizil askarlarning razvedka ma'lumotlarida aytilishicha, 1920 yil 23 noyabrda «Boysunda Buri Tuqsabo qumondonligida 7000 kishi (5 ta pulemyoti bilan), Denov shahrida 1000 kishi, Sariosiyoda 3000 kishi, Sangardak Qishlog'ida (Yurchiga ketish yo'lida) 140 kishi, Baxchi qishlog'ida (Toshqurg'ondan 20 chaqirim janubi sharqda) Eshon Boshi qo'mondonligida 600 kishi, Darbandda 100 kishidan ortiq qo'shin» to'plandi. Ushbu 12 ming kishiga yaqin qo'shin 23 noyabrda Toshqo'ryun tomonga yurish qilib, uni egalladi. Shunisi xarakterliki, ushbu hujjatda yozilishicha, «amir qo'shinlari Sharqiy Buxorodagi ko'ngillilar hisobidan tuzilgan edi». Biroq qo'shinda afg'on askarlari ham bo'lgan.

Said Olimxon Kulob, Hisor va Dushanbe atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1920 yil noyabr oyining o'rtlarida uning qo'shinlari Boysun, Darband va Sherobodni egallashdi.

BXSR Revkomi va ichki ishlar noziri nomiga jo'natilgan boshqa bir maxfiy hujjatda aytilishicha, « ... Sherobod shahri atrofida bizning qismlarga qarshi dushman turli miltiqlar bilan qurollangan 7000 kishidan iborat kuchni tashladi, ular orasida Denov, Yurchi va Hisor shaharlarining aholisi bor edi. Sherobod shahri atrofida janglarda qatnashgan dushman o'z kuchlarini Boysun, Hisor va Sharqiy

Buxoroning boshqa shaharlaridan bu yerga olib tashlagan edi, ularning askarlari hozir ham kelib turibdi. Dushman kuchlarining tazyiqi ostida Sherobod garnizoni 27 noyabrda Sherobod shahrini tashlab chiqdi va Angor qishlog'iga (Termizdan 20 chaqirim shimoli-g'arbda) chekindi. Sherobod shahrida bo'lgan jang qatnashchilarining fikriga qaraganda, amir qo'shinlarining mutaassibliigi (shu darajaga borib yetganki, ular bizning artilleriya va pulemyotdan tinmay ut ochishimizga qaramasdan, faqat olg'a tashlanishardi ...

Sherobod tumani va Angor qishlog'idan atigi 6 chaqirim shimoli-sharq, shimol va shimoli-g'arbda joylashgan qishloqlarda dushmanning 8000 kishisi joylashgan. Josuslik ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amiri ruslarga qarshi muqaddas urush e'lon qilgan, uning chaqirig'i Sharqiy Buxoro Qishloqlarining aholisi tomonidan Xayrixoxlik bilan kutib olinmokda»¹.

Eski Buxoro shahriga jo'natilgan navbatdagi hujjatda (4.XII.1920 y.) yozilishicha, qizil armiyaning 8-polki batalonlari Sherobodni 27 noyabrda tashlab chiqqach, avval Angor, so'ngra Termiz tomonga qochishadi. 28 noyabr kuni kechgacha istiqloolchilar Angordan 6-chaqirim shimol, shimoli-sharq, shimoli-g'arbda joylashgan butun qishloqlarni egallashadi.

Istiqloolchilik harakati tez orada Sharqiy Buxorodan O'rta Buxoroga ham tarqaldi. F.Xujayevning e'tirof qilishicha, «o'zbek qabilalari ... boshliqlari tomonidan Sharqiy Buxoroda boshlangan bosmachilik harakati Buxoroning boshqa qismlarida ham qo'llab-quvvatlandi». Bosqinchi qizil askarlar va Buxorodagi yangi hukumatga qarshi ko'tarilgan katta qo'zg'olonlardan biri «O'rta Buxoroning sobiq Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Chiroqchi bekliliklarida boshlandi. Bu to'rtta beklilik O'rta Buxoroning atrofi tog'lar bilan o'rab olingan, aholisining deyarli hammasi o'zbek qabilalaridan iborat bo'lgan bitta katta rayonni tashkil etgan edi».

24 dekabrda qo'zg'olon Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Chiroqchida boshlandi. Bu yerda tullangan 2500 kishi Said Olimxon qo'shinlari safiga qo'shilishni istab, Sharqiy Buxoro tomon yurishdi. O'rta Buxorodagi

¹ Ф.Хўжаев Танланган асарлар. I том, 233-244 бетлар

qo'zg'olonchilar asosan qizil askarlarning Buxorodan chiqib ketishini va islomiy ruhdagi talablarni o'rta qo'yishdi. Shunday qilib, «1920 yil dekabrning oxirida amir 15000 kishiga yaqin lashkar to'padi»

Sovet qo'mondonligi hali 1920 yil oktyabr oyining oxirlaridayoq Sharqiy Buxoroni bosib olish uchun maxsus ekspeditsiya jo'natishni rejalashtirgan edi. 9 noyabrda 1-armiya qo'mondoni G.V.Zinovyevning buyrug'i bilan Buxoro hududidagi barcha sovet harbiy bo'linmalari va qal'alardagi garnizonlar Buxoro gruppasi qo'shinlari tarkibiga kiritildi. Uning yaqin oradagi vazifasi qilib, Hisor ekspeditsiyasini o'tkazish belgilandi.¹

1920 yil 17 dekabrda Hisor ekspeditsiyasi qismlari diviziya komandiri Marsov boshchiligida Qarshidan yo'lga chiqishdi. Ular 20 dekabrda jang bilan Darbandni egallashdi.

Afsuski, kuchlar teng emas edi. Avval ham yozib o'tilganidek bu paytda Buxoroda zamonaviy qurol-yarog'lar va jangovar texnika bilan qurollangan qizil armiya 70 ming tajribali jangchisi bor edi. Arxivlardagi hujjatlar 1920 yildagi kuchlar nisbatini ana shunday ifodalaydi². Bu holni Said Olimxon ham tushunmasligi mumkin emas edi. Istiqloлчаilar qo'shinida qurol-yarog' yetishmagan. 1920 yil kuzida sovet rejimi Qrimda Vrangeli armiyasi ustidan G'alaba qozongach, asosiy e'tiborni Turkiston mintaqasiga, shu jumladan, Buxoro respublikasiga qaratdi. Buxorodagi qo'zg'olonchilarga qarshi Rossiya markazidan ketirilgan yangi harbiy qismlar, saralangan va janglarda chiniqqan qizil askarlar tashlandi. Aynan ushbu holat O'rta Buxorodagi qo'zg'olonni yanada avj olib ketishiga yo'l qo'ymadi.

«23 dekabrda qizil askarlar uch turli qurollar yordamida 5 soatlik jangdan sung Shahrisabzni egallashdi. Dushman Chiroqchi - Kitob yunalishi tomonga chekindi. 25 dekabrda dushman Shahrisabzni qayta egallash uchun qarshi xujumga o'tdi, bu joyda janglar ketmokda ... »,- deb ta'kidlanadi qizil askarlar qo'mondonining yozgan raportida.

¹ Хайрулла Исмагулла. Хурриятга интилган хур киз. «Миллий тикланиш» 2000 й

² Набиев А Жангавор йиллардан лавҳалар. 23-25 бетлар

Buxoro gruppasi qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan 1929 yil 24 dekabrda chiqarilgan buyrukda Kitob-Shahrisabz, Chiroqchi-Yakkabog'-Yertepa atroflarida ko'tarilgan aksilinqilobiy qo'zg'olonni tugatish uchun shoshilinch va qat'iy tadbirlar belgilandi. Bu tadbirlarning eng asosiysi Qashqadaryo vohasidagi qo'zg'olonchilar bilan Sangarda Yurchi va Denovda joylashgan 4470 kishidan iborat Said Olimxon qo'mondonligidagi qo'shnlarni birlashtirishga yul qo'ymaslik edi. Shuning uchun ham Samarqanddan yo'lga chiqqan Ionov otryadi 25 dekabrda Taxtaqoracha Dovonini egallaydi. Dovondan tushish yo'llari esa 26 dekabr ertalab ishg'ol etildi.

O'rta Buxoroda janglar qizib ketdi. istiqloqlchilar qo'lidan dekabr oyining oxirlarida Shahrisabzdan tashqari Kitob, Chiroqchi, Yakkabog' shaharlari tortib olindi. qo'zg'olonchilar Sharqiy Buxoroga o'ta olishmaganligi uchun O'rta va Sharqiy Buxorodagi istiqloqlchilar qo'shini o'zaro birlasha olmadi. Bu paytga kelib Sherobod shahrini ham qizil askarlar bosib olishgan edi.

«Kizil askarlar tomonidan 24 dekabrda Sherobod shahri egallanganda mujohidlarning 8000 kishilik armiyasida har o'n kishiga bittadan miltiq to'g'ri kelardi, buning ustiga har miltikda bor-yug'i 3-5 dona o'q bor edi, xolos. Mujohidlar Qabodiyon shahridan 80 chaqirim sharkdagi Saroy tomonga chekinishdi»¹ - deb bolsheviklarning rasmiy hujjatlaridan birida ko'rsatiladi.

24 dekabrdan boshlab Buxoro gruppasi qo'shinlari Turkiston fronti shtabi ixtiyoriga o'tkazildi. Buxoro respublikasi xududidagi barcha harbiy qismlar esa Buxoro gruppasi qo'shinlari shtabiga so'zsiz ravishda bo'ysunishi lozim edi². Bu paytga kelib, faqat Sharqiy Buxoroda harakat qilayotgan Hisor ekspeditsiyasi tarkibida 10 mingdan ortiq qizil askar bo'lgan.

Qizil askarlarning katta mikdordagi harbiy kuchlari istiqloqlchilarning ham o'z qo'shinini yaxlit qo'mondonlik ostiga birlashtirishni taqozo qilar edi. Bu davrda Said Olimxon Farg'ona vodiysidagi istiqloqlchilik harakati bilan aloqani yo'lga qo'ydi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Farg'onadan 4000 yigit Sharqiy

¹ Ражабов Қ. Туркистон минтақасида совет режимига қарши курулли ҳаракат. Т. 2005. 330 бет

² Ўша жойда...

Buxoroga yetib kelgan. Hisordan Kulob viloyatiga kelgan Said Olimxon butun qo'shinlariga Mulla Muhammad Ibrohimbek Devonbegi (Ibrohimbek laqay) va Davlatmandbek Devonbegini lashkarboshilar qilib tayinladi.

Buxoro respublikasi Markaziy Revkomi va Xalq Nozirlar Shurosi raisi nomiga jo'natilgan «mutlaqo maxfiy» ma'lumotda yozilishicha, 1921 yil 1 yanvarga kelib Buxoro amirining armiyasi 15000 kishidan ortib ketdi. Bu hujjatda amir kuchlarining joylashish tartibi ham keltiriladi: «Buxoro amirining tog'asi Turajon (sobiq Sharshauz begi) Hazrat Imom Saidda (Qo'rg'ontepadan 70 chaqirim janubda) joylashgan ... Denovda Bo'riboy va uning yordamchisi Sharif Boyvachcha boshchiligida asosan ov miltiqlari bilan qurollangan 1500 kishilik guruh mavjud. Bu guruh tub aholi orasidagi ko'ngillilar hisobidan tuzilgan, kungillilar o'rtasida Buxoro, Samarqand va Farg'onadan kelgan sartlar (o'zbeklar - Q.R.) bor. Yurchi shahrida Hoji Murod Tuqsabo boshchiligida turli miltiqlar bilan qurollangan, mahalliy aholidan iborat 200 kishilik guruh joylashgan ... Hisorda samarqandlik Tursunboy va birodari Odilning 200 kishilik guruhi, turkmanlarning Oltiqo'l boshchiligida 150 kishilik guruhi o'rnashgan. Shahar qal'asida bitta pilta to'p bor. Hisorda safarbarlik davom etmokda. Kungillilar va safarbar qilinganlarni samarqandlik Rajab miltiq otish va harbiy ishga o'rgatmokda ... Hisorda Tursunboyning birodari Odil nazorati ostida ishlaydigan qurol-yarog'larni tuzatadigan ustaxona mavjud, unda yetti kishi ishlaydi».

Qisqa muddat ichida Said Olimxon o'z armiyasi miqorini yanada ko'paytirdi. 1921 yil 8 yanvardagi razvedka ma'lumotlariga qaraganda, «Buxoro amiri qo'shinining mikdori 25000 kishiga yetgan, uni safarbar qilinganlar hisobidan 50000 kishiga yetkazish mo'ljallanmoqda. Qo'shin turli miltiqlar, bir nechta pulemyotlar va 8 ta to'p bilan qurollangan. miltiqlar yetarli darajada, lekin uq-dori yetishmaydi. O'q-dorini muntazam ravishda yetkazib berish uchun Hisorda o'q-dori zavodi ishga tushirildi. Zavod ishini 4 ta avstriyalik boshqarmokda ... Amir Afg'oniston tomonidan beriladigan yordamga katta umid bog'lamokda, unga jang olib borishi uchun yetarli mikdorda qurol-yarog' va harbiy instruktorlar junatish va'da qilingan».

O'sha davrga oid boshqa bir hujjatda ham Said Olimxon qo'shinining mikdori 25000 kishi deb ko'rsatiladi.

Istiqlolchilar bilan qizil askarlar o'rtasida Boysun uchun qattiq janglar ketdi. 1921 yil yanvar oyining boshlarida qizil askarlar dastlab Boysunni egallashdi. So'ngra Boysun begi katta mikdorda kuch to'plab qarshi hujumga o'tdi, hatto shaharning sharqiy qismini bosqinchi qizil askarlardan ozod qildi. Ikki hafta davomida yana shahar uchun shiddatli janglar bo'ldi. Bu orada qizil armiyaning katta mikdordagi otliqlar polki va boshqa qismlar Said Olimxon tomonidan boysunliklarga yordamga yuborilgan 10 ming kishilik armiyani Bandixon darasida mag'lubiyatga uchratdi. Boysun yonidagi janglarda istiqolchilar qizil askarlarning diviziya komandiri Marsovni o'ldirishdi. Ammo ular oqibat natijada Boysunni tashlab chiqishga majbur bo'lishdi.

Boysundagi janglarda istiqolchilar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar ham, ular Denov yonida katta miqdordagi kuchlarni to'plashdi. 13 fevralda jo'natilgan qizil askarlarning josuslik ma'lumotlariga qaraganda, «Denov, Yurchi shaharlari va atrof qishloqlar qarshilik Buri boyvachcha boshchiligida 5000 kishilik qo'shin to'plandi. Bu qo'shin tarkibida taxminan 500 kishilik turkman, 200 kishilik afg'on, 300 kishilik Farg'ona bosmachilari bo'lib, qolganlari Buxoro amirining doimiy sarbozlari, turk va sherbachcha polklari, mahalliy aholi vakillari edi ... Bosmachilar Dushanbedan kelishdi. Ular Shermatning odamlari bo'lib, amirning iltimosi bilan Ko'rshermat (Shermuhammadbek - Q.R.) tomonidan Sharqiy Buxoroga jo'natilgan ... Denovda 5 ta pilta to'p va 2 pulemyotga ega qo'shin bor ... Mirshodi qishlog'ida (Denovdan 20 chaqirim janubi-g'arbda) Denovdagi qo'shishning bir qismi 1400 kishilik guruh bor, ... bu guruh Bo'ri boyvachchaga bo'ysunadi. Bir oy avval amir Dushanbeda edi, kasal bo'lib qolgach, Qo'rg'ontepaga jo'nash taraddudiga tushdi, lekin vaziyatni ko'rib, yana Dushanbe shahrida qoldi. Bu paytda uning oldiga Qobuldan 10 kishilik afg'onlarning delegasiyayi tashrif buyurdi va tez orada amirga madad kelishini ma'lum qilishdi».

Lekin Afg'onistondan hech qanday qurolli kuchlar yordamga yuborilmadi. Qizil armiyaning tajribali jangchilari bilan bo'lgan shiddatli jangda Buxoro istiqlolchilari bu gal ham dosh berisha olmadi. 1921 yil 15 fevralda dushman Denovni egalladi. Tez orada istiqlolchilar qo'lidan Yurchi, Sariosi va Sarijuy ham tortib olindi. Hujum qilib kelayetgan sovet qo'shinlari Regarda shiddatli qarshilikka duch keldilar, lekin bu shahar va so'ngra Qopatog' ham ular tomonidan egallandi. Xususan, 1921 yil 20 fevraldan boshlab Hisorga kiraverishda shafqatsiz janglar qizib ketdi.¹

«Izvestiya» gazetasi o'sha kunlarda ushbu satrlarni yozgan edi: « ... Amir hukmronlik qilayotgan hudud kundan-kunga qisqarmoqa. U bahorga kelib, yo tog'larga chiqib ketishi, yo Buxoro hududini tark etishi lozim bo'ladi. Uning ixtiyorida faqat Sharqiy Buxoroning Hisor, Dushanbe, Fayzobod viloyatlari qoldi. Uning ixtiyorida faqat 600 askar bor».

Bu voqyealardan so'ng Said Olimxonning qarorgoxi Dushanbe shahriga hujum boshlandi. 20 fevralda u shaharni tashlab chiqqach, avval Kulob viloyatiga chekindi. 1921 yil 4 martda Said Olimxon Chubek degan joydan Afg'oniston davlatiga o'tib ketdi.

Said Olimxon Buxoro tuprog'ini tark etgach, istiqlolchilik xarakati so'nish o'rniga aksincha lovullab, alanga olib ketdi. Hozirgi Tojikiston Respublikasi hamda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida ko'plab qo'rboshi dastalari tuzildi. Sharqiy Buxoroda: Baljuvonda Davlatmandbek Kentkurdda Ashurbek va Mirza Solih Kulobda Ashur Tuqsabo, Qo'rg'ontepada Tog'ay Sari, Dang'apada Abduqayum parvonachi, Loqayda Ibrohimbek, Darvozda Eshon Sulton, Qorateginda Fuzayl Maxdum, Fayzobodda G'ayurbek Sariosiyo va Qopatog'da Abdurahmonbek Bobotog'da Hayitbek dodxoh, Dushanbeda Rahmon dodxoh Cypxonda Xurrambek Hisorda Ali Mardonbek va Temurbek, O'rta Buxoroda: Qarshida Jo'raxo'ja, G'uzorda Avliyo Botir, Saroykamar va Olatog'da Dostonqyl va Tuqsanboy, Shahrisabz va Yakkabog'da Jabbor kabi qurboshilar yirik dastalar tuzib, istiqlolchilarning ozodlik harakatiga rahbarlik qildilar. Tug'ri,

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 64-66 бетлар

bu qo'rboshilarning ko'pchiligi amirning sobiq amaldorlari, o'z tumanlarining beklari yoki yirik din arboblari bo'lishgan. Lekin, shunga qaramasdan, ular bosqinchi qizil armiya va bolsheviklarga qarshi kurashga otlangan yurtdoshlarining harakatini yaxlit bir yo'nalishda birlashtira oldilar. Ular o'zlari egallab turgan hududlarda islom dini va shariat asosida o'z boshqaruv usullarini o'rnatdilar.

To'tkao'l atrofida Ibrohimbeq Davlatmandbek Tog'ay Sari va Egamberdi o'zlarining 3000 kishilik suvoriylari bilan qizil askarlarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Biroq shiddatli janglardan so'ng, 24 fevral kechqyrun Davlatmandbek boshchiligidagi 1800 suvoriy Kangurt orqali Baljuvonga jo'nab ketdi, ko'shinning qolgan qismi esa Ibrohimbek yetakchiligida Kulob tomonga qarab yo'l oldi. 1921 yil 25 fevralda Roganov boshchiligidagi 2-otliqlar polki Kulobni egalladi.

G'apm uchun bo'lgan janglarda esa Sharqiy Buxorodagi mujohidlar bilan bir safda turib, farg'onalik istiqloлчаilar ham qizil askarlarga qarshi kurashdilar. Sher-muhammadbek va uning ko'l ostidagi Nurmat Mingboshi va Asqar Polvon boshchiligidagi istiqloлчаilar Qorategin begi Fuzayl Maxdum bilan G'armni dushmandan mardlarcha mudofaa qilishlariga qaramay, 3 martda qizillar shaharni egallashdi. Natijada Shermuhammadbek o'z ko'shini bilan Oloy Bohasi orqali Farg'onaga chekingan bo'lsa, Fuzayl Maxdum Darvozga jo'nadi.

G'apm viloyatida harakat qilayotgan Fuzayl Maxdum o'z qo'shinlari safini 1000 ta otliqqa yetkazib, Jirg'atalada ularni to'pladi. Darvoz begi Eshon Sulton bo'lsa 700 suvoriysi bilan Kamchirak dovonida turdi. Har ikki ko'rboshi o'z kuchlarini birlashtirgach, G'armdagi qizil askarlarga qarshi hujumga o'tishdi. Bu davrda istiqloлчаilarning qo'lida Jirg'atala, Childara va Tavildara kabi strategik jihatdan muhim bo'lgan manzillar bor edi.

20 iyunda Matcho begi Abduhafiz o'zining 2500 yigiti bilan Qorateginga keldi. U Surxobni egallab, qal'ani qamal qildi. G'apm qal'asidagi qizil askarlarga katta miqordagi yordam kuchi yetib kelgach, Matcho begining qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

Darvoz begi Eshon Sulton bo'lsa xuddi shu kunlarda o'zining 1000 ta suvoriysi bilan Surxobning chap qirg'og'idagi Langar, Mahalla va Xost qishloqlarini egalladi.

Sharqiy Buxoroda boshlanib, butun Buxoro respublikasida keng tarqalib ketgan istiqlolchilik harakati Toshkent va Moskvadagi sovet hukumati arboblarning qattiq g'azablanishiga sabab bo'ldi. Markazdagi partiya va sovet rahbarlari Fayzulla Xo'jayev boshliq Buxoro hukumatini istiqlolchilarga qarshi keskin choralar kurmayotganlikda ayblashdi. Chunki mabodo Buxoro istiqlolchilari bilan Turkistonda harakat qilayotgan boshqa vatanparvar kuchlar birlashib, istiqlolchilar yagona kuch bo'lib uyusha olsalar, o'lkada sovet hokimiyatining tugatilishi aniq bo'lib qolardi. Bolsheviklar eng avvalo mana shundan qattiq qo'rqishardi. 1920 yil 26 dekabrda Buxoro shahriga kelgan RKP(b) MK Turkbyuro raisining o'rinbosari G.Safarov o'sha kuni chaqirilgan respublika faollarining yig'ilishida katta nutq suzladi. Safarov o'z ma'ruzasida buxorolik inqilobchilar sha'niga haqoratomuz gaplarni aytdi.

Butun Buxoro Revkomining raisi A. Muhitdinov va Xalq Nozirlar Shurosining raisi Fayzulla Xo'jayev bu voqyeadan sung RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligiga norozilik notasi bilan murojaat qilib, Safarov ularni nohaq ayblayotganini ta'kidlashdi. Safarov yuqorida aytilgan yig'ilishda Buxoro hukumatini «sovet qaroqchilari to'dasi» degan, «Buxoro inqilobi pasportsiz inqilobdir» deb ayblar quygan edi. U yig'ilganlarga qarata tahdid bilan «Biz sizlarning hammangizni otib tashlaymiz!» deb, o'z so'zining oxirida ularga «chuchqalar» deya murojaat qilgan.¹

Buxoro davlati rahbarlari o'z norozilik notalariga RSFSR hukumati tomonidan radio orqali javob berilishi va Safarov qilmishlari izohlanishini talab qilishdi. Ular bolsheviklar qo'lida qug'irchoq emasliklarini ta'kidlashdi. Munavvar qorining yozishicha, Buxoro davlati rahbarlarining norozilik chaqirig'idan so'ng Safarov Buxorodan chaqirib olindi.

¹ Генис В.Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году. 1993. №7. с 51

1921 yil 4 martda RSFSR bilan Buxoro Xalq Respublikasi o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini qonuniy asoslab berdiki, mazkur hol BXSRS ichki ishlariga Rossiyaning tug'ridan-tug'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi. Shunday qilib, Ittifoq shartnomasi Buxoro vatanparvarlarining sovet rejimiga qarshi olib borayotgan kurashlarini yana ham qiyinlashtirdi, chunki qudratli shimoliy qo'shnining harbiy madadi bilangina bu yerda sovet hokimiyati saqlab turilayotgan edi.

1921 yil aprelining oxiri va may oyining boshlarida Sharqiy Buxoroda qizil armiyaning bosqinchilik harakatlariga qarshi ommaviy ravishda xalq quzg'olonlari qaytadan boshlanib ketdi. «Xalq qo'zg'oloni, - deb 25 iyunda ma'ruza qilgan edi 1-Turkiston otliqlar diviziyasining sobiq komandiri Spasskiy,- may oyining dastlabki kunlarida boshlandi va G'arm, Baljuvon, Fayzobod, Kulob va Qorategin viloyatlarini qamrab oldi. qo'zg'olon ko'tarilishiga sabablar ko'p edi, eng asosiylari esa quyidagicha: aholidan doimiy ravishda turli-tuman narsalarning olinishi, buning uchun ularga pul o'rniga oddiy tilxat qog'ozi berilishi, milisiyaga safarbarlikning nunoqlik bilan o'tkazilishi. qo'zg'olon ko'targanlarga Farg'onadan bosmachilar kelib qo'shildi va ularga rahbarlik qila boshladi».

«Juldur kiyimli, iflos, och» bosqinchi qizil ackaplarning qo'mondoni Spasskiy Turkfront Revvoyensovet a'zosi P.I.Baranovga murojaat qilib, Sharqiy Buxorodagi sovet qo'shinlari o'rtasida hyech qanday tarbiyaviy ish olib borish mumkin emasligini ta'kidlagan edi: «Kulobda bo'lgan ikki kunlik janglardan so'ng qizil askarlar shaharni talon-toroj etish uchun yopirilishdi. Ular bu yerda qolgan tinch aholini otib tashlab, 50 ta ayolni zurlab, nomusiga tegishdi, 140 ta ayol bo'lsa, qal'aga qochib yashirindi. Komissarlarning butun harakatlari hyech qanday natija bermayapti».

Bir tomondan, istiqlolchilik harakatining kuchayishi va ikkinchi tomondan, qizil askarlarning «bosmachilar»ga qarshi kurash bahonasida bu yerda qilayotgan jinoiy harakatlari Buxoro respublikasi rahbarlarini qattiq o'ylantirib qo'ydi. Buning ustiga Yesh buxoroliklarning sobiq yulboshchisi Fayzulla Xo'jayevga

hukumat ichida ishlash ham oson kechmayotgan edi. Bir tarafdin, Buxoro Kompartiyasi ichidagi so'l va o'ng kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga tug'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkomissiya, Turkbyuro yosh «mustaqil davlat»ning bosgan har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Mana shunday og'ir bir vaziyatda Buxoro hukumati rahbarlari va istiqlolchilik harakatining yulboshchilari oldinga surgan talablar bir nuqtaga kelib tutashdi. Chunki, har ikki tomon ham qizil armiyaning Buxoro tuprog'ida ortiq qolishini istamas, ikki tomon ham o'zining asriy an'ana va urf-odatlaridan iborat sharqona axloq hamda islomiy ruhdagi hayot tarziga «kommunistcha tun» kiydirilishini xohlamas edi. Afsuski, hukumat safidagi milliy vatanparvar kuchlar (sobiq jadidlar) bilan muxolifatdagi qurolli istiqlolchi guruhlari yulboshchilarining ochiq kelishuvi amalga oshmadi.

Mabodo bu kelishuv yuz berganda, ushbu nodir hodisa Turkiston xalqlari milliy ozodlik harakati tarixidagi keskin burilish nuqtasini, ehtimol, uning eng shonli va zafarli sahifasini tashkil qilgan bo'lardi. Xolbuki, har ikki tomon ham milliy birlik, tinchlik va murosaga qarab intilgan edi. Har ikki tomonning ham pirovard maqsadi Turkistonni yaxlit va bir butun holda haqiqiy mustaqil davlat holatida ko'rish edi. Bu murakkab va ziddiyatli hodisani ko'plab arxiv xujjatlari ham isbotlab beradi.

Masalan, 1921 yil yozida Fayzulla Xo'jayevning topshirig'i bilan Dushanbega kelgan Buxoro hukumatinin Favqulodda Muxtor vakili Ota (Otaulla) Xo'jayev boshchiligidagi komissiya Sharqiy Buxorodagi istiqlolchilik harakati vakillari bilan aloqa o'rnatish va qo'rboshilar rozilik bildirsa ikki o'rtada shartnoma tuzishi kerak edi. Buxoro hukumati yuqorida aytib o'tilgan G'apm, Baljuvon, Fayzobod, Kulob va Qorategindagi xalq qo'zg'olonini shunday murosayu madora yo'li bilan tinchitmoqchi edi. Dastlab Otaulla Xo'jayev o'zining yordamchisi Surayyo Afandini Qorategin bekligining markazi G'apmga yubordi. G'armdagi nufuzli kishilar va xalqning turli tabaqalariga mansub vakillar bilan uchrashgan Surayyo Afandi Qorategin va Darvozdagi mo'tabar kishilarni Otaulla Xo'jaev nomidan Baljuvonda bo'ladigan uchrashuvga taklif qildi. Baljuvonda

Otaulla Xo'jayev bilan Davlatmandbekning rasmiy uchrashuvi muljallanayotgan edi.

Otaulla Xo'jayevning qo'rboshilar bilan muzokaralari natijasida istilolchilarning yirik yulboshchilari bo'lgan Davlatmandbek va Eshon Sulton Baljuvon va G'apm inqilobiy qo'mitasi (Revkomi)ning raisi qilib tayinlandilar. Viloyat Revkomlarining raisi qilib qurboshilarning tayinlanishi aholi o'rtasida ularning ta'sirini oshirdi.

12 avgustda Baljuvonda bo'lgan ushbu uchrashuv 8 moddadan iborat bitim-kelishuv tuzildi.

Demak, Buxoro respublikasi hukumati vakili bilan qo'rboshilar o'rtasida tuzilgan ushbu shartnoma shuni yorqin ravishda isbotlaydiki, Buxoro istiqloqlchilari o'z maslakdoshlari bo'lgan Farg'ona vatanparvarlari singari Turkiston mustaqilligi, shuningdek, mustaqil Buxoro uchun istiqloq janglarini olib borishgan. Ularning eng asosiy talabi muqaddas Buxoro hududidan bosqinchi qizil armiya-ning olib ketilishi bo'lgan. Qo'rboshilar sovet rejimi o'rniga mustaqil Buxoro jumhuriyati amalda Tan olinishini, Buxorodan Rossiyaga talab ketilgan moddiy boyliklarni o'z qonuniy merosxo'rlariga qaytarish zarurligini, Buxoroning ichki ishlariga Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlar aralashmasligi talabini qat'iy ravishda ta'kidladilar. Shunisi xarakterliki, ushbu shartnomada Buxoroning ichki ishlariga aralashishga urinayotgan inglizlar, istiqloqlchilar rahbarlari tomonidan ham «millatimiz, davlatimiz va dinimiz dushmani deb», e'lon qilindi.

1921 yil yozining oxiri - kuzning boshlarida Buxoro respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda ustunlik yana istiqloqlchilar qo'liga o'tdi. Yangi sharoitdagi jang usullari va harakatlarini belgilab olish zaruriyati tug'ildi. Natijada 1921 yil 17 sentyabrda Sharqiy Buxorodagi Qoraqamish qishlog'ida (Fayzoboddan 26 chaqirim janubi-sharkda) Buxoro qo'rboshilari o'zlarining birinchi qurultoylariga to'planishdi. Bu kurultoyni Davlatmandbek va Eshon Sulton uyushtirishdi. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, bu yerga Darvoz va Kulobdan yetib kelgan istiqloqlchilarning mikdori 7000 kishidan kam emas edi. Qurultoyda aytilishicha, BXSr ning Favqulodda Muxtor vakili bilan qo'rboshilar o'rtasida

tuzilgan tinchlik shartnomasiga muvofiq o'n kun ichida qizil askarlar qo'mondonligi Buxorodan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishi kerak aks holda istiqloлчаilar butun jabha bo'ylab hujumga o'tishga qaror qildilar. Sovet qo'mondonligining e'tirof etishicha, bu paytda «Qo'rg'ontepani 2000 kishilik guruh egallab turibdi. Dushanbe qamal qilingan. Shahar garnizoni uch kecha-kunduzdan buyon qurshovda turibdi. Oziq-ovqat va yem-xashak tugash arafasida. Aholi bosmachilar safiga qo'shilmokda».¹

Bu kurultoyda Ibrohimbek Buxoro qo'rboshilarining Oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi va unga «Islom lashkarboshisi» degan unvon berildi.

Turkiston fronti joylashgan Toshkentdan turib, Moskvadagi RKKA shtabiga 1921 yil 30 sentyabrda yo'llangan «shoshilinch va maxfiy» telegrammada aytilishicha, «15 sentyabrdan boshlab Sharqiy Buxoroda bosmachi guruhlari faol harakat qila boshladilar: 15 sentyabrda ular Qoratepani egallashdi, 22 sentyabrdan boshlab Ibrohimbek qo'mondonligidagi 4000 kishi Dushanbeni qamal qilishga kirishdi, garnizon hozir ham qurshovda. Dushanbe qamal qilingan vaqtda bosmachilik harakati Baljuvon-Kulob atrofini ham qamrab olib, qo'zg'olon darajasiga ko'tarildi. Aholining ko'pchiligi bosmachilarga xayrixoh va ularga qo'shilmoqda, natijada, bosmachilarning kuchi ortib bormokda. 25 sentyabrda ular tomonidan Hisor va Kofirnihon egallandi. Hozirgi vaqtda qo'zg'olon kuchayib bormokda. Bu hol biz uchun kutilmagan hodisa bo'ldi ... »

Butun xalq ommasining qo'llab-quvvatlashiga tayangan Sharqiy Buxoro istiqloлчаilari ommaviy ravishda qarshi hujumga o'tdilar. Dushanbeni qamal qilayotgan o'zbek laqaylarining sardori Ibrohimbek shahardagi rus garnizonining boshlig'i T.Morozenkoga behuda qon to'kilishiga yo'l qo'ymaslik uchun so'zsiz taslim bo'lishni taklif etib, 2 oktyabrda ultimatum yubordi. Biroq, Ibrohimbekning bu taklifi rad etildi. istiqloлчаilar Dushanbe shahrini bir necha kun qamal qilib turgach, nihoyat, qattiq hujum bilan uni egalladilar. Afsuski, qizil askarlarga Fayzoboddan yordamga yuborilgan katta miqdordagi harbiy kuchlar kelib

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 70-72 бетлар

qo'shilgach, ular Dushanbe shahriga hujum qilib, 18 oktyabrda shaharni qaytadan bosib oldilar. Dushanbening bosib olinishi qizil askarlarniig sunggi yutug'i bo'ldi.

Sharqiy Buxorodagi shahar va qishloqlar bu paytda birin-ketin istiqloolchilar qo'l ostiga o'tar edi. Oktyabr oyida faqat Dushanbe-Kofirnihon yo'nalishida 6000 nafardan ortiq askar to'plandi. Bu davrda Sharqiy Buxoro vatanparvarlarining Oliy bosh qo'mondoni Ibrohimbek edi. U o'zining qarorgohi qilib, Loqaydagi Mozori Mavlono qishlog'ini tanladi. Bu qishloq Ko'ktosh yaqinidagi muhim strategik manzilda joylashgan edi.

1921 yil oktyabr oyining o'rtalarida Fayzobod, Kulob, G'apm, Qo'rg'ontepa, Kofirnihon, Hisor va Qoratepa shaharlari istiqloolchilar qo'lida bo'lgan. Afg'onistonda turgan Buxoro amiri Said Olimxon Istiqloolchilarning Oliy bosh qo'mondoni Ibrohimbek orqali Sharqiy Buxorodagi vaziyatdan doimo xabardor bo'lib turar edi.

1920-1921 yillarda Sharqiy Buxoroda istiqloolchilik harakatining kuchayishi, qizil armiyaning bu yerga katta miqdordagi harbiy kuchlarning tashlashi G'arbiy va O'rta Buxoroda ham harakatning tez sur'atda boshlanishi va avj olishiga olib keldi. G'arbiy Buxorodagi istiqloolchilar ham bu davrda katta yutuqlarga erishdilar. Buxoro va Karmana viloyatlaridagi istiqloolchilarning qo'mondoni Mulla Abdulqahhor qo'rboshi edi.

Tez orada Buxoro va Karmana viloyatlaridagi har bir tumanda, yirik qishloq va kentlarda dastalar tuzilib, ularga mahalliy qo'rboshilar va sardorlar boshchilik qilishdi. Bu dastalar qizil askarlarning mazkur qishloqlar hududiga kirishlariga yo'l qo'ymas, tuman markazlari va shaharlarda joylashgan qizil askarlarning garnizonlariga hujum qilishar, o'rni kelganda boshqa dastalar bilan birlashib, bosqinchi armiyaning G'arbiy kuchlariga qarshi jangga kirishar edi. istiqloolchilarning bunday dastalari Farbiy Buxoroda ellikdan ortiq bo'lib, ular safida o'n mingdan ortiq vatanparvar bor edi.

1921 yil oktyabr oyida Buxoro respublikasidagi istiqloolchilik harakatining birinchi bosqichi tugadi. Taxminan bir yilcha davom etgan bu bosqichda istiqloolchilar asosan Sharqiy Buxoroda ko'plab g'alabalarga erishdilar. Dastlab

taxtdan mahrum qilingan amir Said Olimxon sovetlarga qarshi kurashga raqbarlikni o'z qo'liga olgan bo'lsa, u Afg'oniston tuprog'iga o'tib ketgach, bu harakatga Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek va Davlatmandbek qo'rboshilar boshchilik qilishdi. G'arbiy Buxoro istiqlolchilarining yetakchisi Mulla Abdulqahhor qo'rboshi bu davrda Afg'onistonda turgan Said Olimxon bilan doimiy ravishda aloqa bog'lab turdi. U o'z vakillari orqali qo'rboshilar, nufuzli kishilar va diniy arboblarga murojaat qilib ularni bosqinchi qizil armiya va yangi tuzumga qarshi kurashga otlantira oldi.¹

¹ Ўша китоб.....73-74 бетлар

I.2. Harakatning avj olishi va uning kuchayishi. Anvar Posho boshchiligida olib borilgan janglar (1921-1922y.y.)

Ahmad Zaki Validiy To'g'onning keyinchalik guvohlik berishicha, Anvar Posho 1921 yil 20 oktyabrda Buxoroga kelgan. Uning yonida faqat ikki turk zobiti bo'lgan. Buxoro respublikasining o'sha davrdagi davlat boshlig'i Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Pulatxo'jayev) bu haqda keyinchalik quyidagilarni yozgan edi: «Anvar Posho Moskvadan boshlagan uzoq bir safarining so'nggida 1921 yil oktyabr oyining oxirlarida Buxoroi sharifga tashrif buyurdi. Shunda men Sharqiy Buxoroda edim .. »

Anvar Posho va uning ikki yordamchisi: Muhitdinbek hamda Xoji Somiy (Salim Posho) Buxoro shahridan sal tashqaridagi muhtasham Dilkusho qasriga joylashtirildi. Fayzulla Xo'jayev Dushanbeda turgan Buxoro Respublikasi Markaziy Ijroiya qo'mitasi raisi Usmonxo'ja Pulatxo'jayevga telegraf orqali sim qoqib, «bag'oyat buyuk va muhtaram Anvar Poshoning kelganligini», unga barcha sharoitlar yaratilganligini ma'lum qildi.

Anvar Posho Buxaro shahrida bir oz muddat turgach, 8 noyabrda bu yerdan Sharqiy Buxoroga jo'nab ketdi. Anvar Poshoning adyutanti Muhitdinbek keyinchalik Istanbulga qaytgach, u yerdagi «Vaqt» ro'znomasida (25.XI.1923 y.) bosilgan, xotiralarida yozishicha, Posho Buxorodan ketadigan kuni quyidagi gaplarni aytgan ekan: «Turkiston uchun kurashish keraq Xaq ish uchun o'limdan qo'rqsang, o'zingni ham it holida yashashga duchor qilasan. Agap bu ishga kirishmasak, kelajak avlodlar la'nati og'ir bo'ladi. Kutulish yulini izlab o'lsak ham o'zimizdan keyin keladigan avlodlarga ozodlik va baxt yo'lini ta'minlagan bo'lamiz».

Sharqiy Buxoroga yo'l olgan Anvar Posho va uning ikki safdoshi Qarshi yaqinidagi Qilikul atrofida istiqlolchilarning qo'mondoni Mulla Nafis qo'rboshi tomonidan qabul qilindi. Anvar Posho Turkistondagi millii istiqlol harakati safiga qo'shilar ekan, 1921 yil 9 noyabrda Buxoro zaminida birinchi marta bayonot berdi. Ushbu bayonot matnini vatandoshimiz Abdulla Rajab Boysun tubandagicha

keltiradi: «Orqadoshlar! Turkistonning muqaddas da'vosi yo'lida olib borilayotgan kurashga men ham qo'shilgani keldim. Ichingizda biz bilan xizmat qilishni xohlovchilar bo'lsa, taklif qilaman, ont ichsin! Lekin, ichingizda bola-chaqasi ruslar qo'l ostida bo'lganini o'ylab andisha va taraddud ko'rsatuvchilar bor bo'lsa, ular ham ochiqchasiga aytsin. Buyuraman!»

To'planganlar kurashmoq uchun ont ichdilar. Demak, Anvar Poshoning Turkistondagi istiqloлчаilik harakatiga kirishish tarixi 1921 yil 9 noyabrda Qiliko'l tumani markazida boshlangandir.

Qarshi va Sherobod viloyatlari orqali Anvar Posho Sharqiy Buxoro tomon intilardi. Anvar Posho Qabodiyonga yetganda do'sti - Sherobod viloyatining harbiy noziri, Turkiya armiyasining sobiq Polkovnigi Hasan Afandi va Termiz milisiyasining boshlig'i Usmon Afandi (u) ham turkiyalik zobit edi) o'z otryadlari bilan unga kelib qo'shildi. Ular endi Jiliko'lga yo'l oldilar.

Anvar Posho Sharqiy Buxoroda eng avvalo Jiliko'lida turgan Tog'ay Sari guruhi bilan birlashdi. Xorijlik tadqiqotchilarning fikricha, o'sha paytda Anvar Posho ixtiyorida 160 otliq bor edi. Dastlab bu yerdagi istiqloлчаilar va Said Olimxonning tarafdorlari Poshoni yaxshi kutib olishdi. Ammo Kurg'ontepada Tog'ay Sari uning sharafiga bazm uyushtirgandan keyin Anvar Poshoga munosabatlar keskin o'zgaradi. Ibrohimbekning buyrug'i bilan Anvar Posho va uning otliqlari qurolsizlantirildi, Poshoning o'zi bo'lsa bekning Ko'ktoshdagi qarorgohida tutqunlikda saqlandi. Buxoro amiri Said Olimxon va Afg'oniston amiri Omonullaxon hamda Buxoro respublikasi harbiy qismlarining qattiq talablaridan keyin, Ibrohimbek chamasi bir oycha tutqunlikda yotgan Anvar Poshoni ozod qildi.

Dekabr oyining boshlarida Sharqiy Buxoro - Dushanbeda vaziyat keskinlashgan edi. Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Pulatxo'jayev) bu paytda Buxoro hukumatining favqulodda vakili sifatida Dushanbe shahrida edi. U bilan birga respublika milisiyasining boshlig'i, harbiy nozir o'rinbosari Ali Rizoning 650 kishilik qo'shini ham bor edi. Usmon Xo'ja va BXSР hukumatining kupgina rahbarlari Buxoroni o'z milliy armiyasi,

milliy hukumati bo'lgan haqiqiy ma'nodagi mustaqil respublikaga aylantirmoqchi edilar. Mustaqil respublika mavjudligining birinchi sharti yaxshi kurollangan milliy qo'shinni tuzish zarurligi edi. Usmon Xo'ja asosan ruslardan iborat qizil armiyaning Buxoroda turishiga ochiq ravishda qarshi chikdi. Chunki qizil armiya bu yerda turar ekan, mustaqil respublika faqat qog'ozda qolar, mustamlakachilik tuzumi davom etaverar edi. Bu nozik siyosatni Usmon Xo'ja juda yaxshi tushungan.¹

Usmon Xo'ja o'z yordamchilari: respublika milisiyasining boshlig'i Ali Rizo (Afandi) va Doniyolbek bilan birgalikda 9 dekabr kuni kechqurun Dushanbe garnizonining boshlig'i Morozenko, voyenkom Muxin va RSFSRning bosh konsuli Nagorniyga shahardagi harbiy garnizonni qurolsizlantirish va butun qurol-yarog'ni Ali Rizo ixtiyoriga berish kerakligi haqidagi hujjatga imzo chektirib oldilar. So'ngra bu rus zobitlari qamoqqa olindi.

Usmon Xo'janing ruslar bilan aloqasi buzilgach, u shaharni qamal qilayotgan Ibrohimbek va boshqa qo'rboshilarga murojaat qilib: «Biz bosqinchilarga qarshi kurashga kirishdik, kelinglar, barchamiz bir jonu bir tan bo'lib, jang qilamiz!» - deya bayonnomalar yubordi. Ibrohimbekning o'ziga ham maxsus xat yozib, tutkunlikda yotgan Anvar Poshoni uning huzuriga jo'natishni so'raydi. Bu paytda Posho bilan uning orasidagi masofa o'zining yozishicha, ellik chaqirim bo'lgan. Afsuski, Ibrohimbek Usmon Xo'janing bunday samimiy da'vatiga unchalik ishonmaydi. Tez orada Dushanbe shahrida turgan qizil askarlar garnizoniga Boysundan qo'shimcha ravishda yordam kuchlari yetib keladi. Usmon Xo'ja va uning tarafdorlari kuchlar teng bo'lmaganligi uchun Dushanbeni 13 dekabrda tashlab chiqishga majbur bo'lishdil. Dushanbe yana bosqinchi qizil askarlar ixtiyoriga o'tdi.²

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Usmon Xo'ja Sharqiy Buxorodan Buxoro shahriga qaytish maqsadida Qarshiga keladi va bir hovlida tunaydi. Shu vaqtda Usmon Xo'ja bilan birga Dushanbega borgan Boysunning harbiy noziri

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 75-76 бетлар

² Бобоҳўжаев А. Соўвет давлатини дхе-факто ва деюре таниш даврида Ўрта осие ва Ўрта шарқда инглиз антисовет сиёсатининг барбод бўлиши. Т. «Фан», 1959, 174-175 бетлар

Doniyolbek istiqloлчаilar safiga o'tib ketadi. Bundan sal oldinroq esa Eski Buxoro mirshablarining boshlig'i, ChK raisi Muhitdin Maxsum Xo'jayev ham o'zining bir qism harbiylari bilan istiqloлчаilar safiga qo'shilgan edi. Usmon Xo'ja qarshida turganligida uzil-kesil bir qarorga kelib, sovetlar bilan aloqasini o'zdi. U oldin istiqloлчаilar safiga, sal keyinroq - 1922 yil boshlarida esa Ali Rizo bilan birgalikda Afg'onistonga jo'nab ketadi.

1921 yil dekabr oyining oxirlaridan boshlab, Anvar Posho Sharqiy Buxorodagi qo'rboshi dastalariga rahbarlik qilishni o'z qo'liga oldi. U Kuktoşda Sharqiy Buxoro, shuningdek, G'apm viloyatida harakat qilayotgan Buxoro, Farg'ona va Matchodagi barcha qo'rboshilarning kurultoyini chaqirdi. Bu qurultoyda Anvar Posho sovet rejimiga qarshi jang qilish uning asosiy maqsadi ekanligini, Turkiston tuprog'ini bosqinchi qizil armiyadan tozalash uchun milliy istiqlol harakatining boshlaganligini e'lon qildi. Anvar Posho faqatgina Sharqiy Buxorodagi qo'rboshilar bilan emas, balki butun Turkiston xududidagi vatanparvar kuchlar bilan ham keng aloqalarni yo'lga qo'ydi. Qisqa muddat ichida O'rta Buxorodagi Turdi Tuqsabo, G'arbiy Buxorodagi Mulla Abdulqahhor, Jo'ra Amin, A'zamxo'ja, Samarqanddagi Bahpombek, Xorazm va Qoraqumdagi Junaidxon, Farg'ona vodiysidagi Shermuhammadbek, Yormat Mahsum, Islom Polvon, Parpibek bilan doimiy aloqalar o'rnatildi. «1921 yil oxirida Anvar Posho qo'l ostida 20000 kishi bor edi», - deb o'z paytida ko'rsatgan edi sovet tarixchilaridan biri.

Bu holni o'sha davrdagi Buxoro xukumati rahbari F.Xo'jayevning o'zi ham yaxshi bilar edi. Uning aytishicha, 1921 yil oxirida istiqlolchilik harakati shu qadar kengayib ketdiki, bu harakatning «rahbarlari ochiqdan-ochiq siyosiy talablar qo'yish darajasiga borib yetdilar. Anvar Posho qizil armiya qismlarining hammasini chiqartirib yuborishni talab qildi».

Anvar Posho 1921 yil dekabr oyining ikkinchi yarmida Dushanbe shahpi atrofida istiqlolchilarning o'n ming kishilik armiyasini to'pladi. Dushanbeni qamal qilish qaytadan boshlandi. Jang harakatlariga endilikda Anvar Posho va Ibrohimbek boshchilik qilishardi.

Anvar Posho Sharqiy Buxorodagi butun istiqlol kuchlarini o'z qo'l ostiga tuplagach, Dushanbeni ozod qilish uchun so'nggi qat'iy xujumga o'tdi. «Uning birinchi ulkan g'alabasi 7-8 ming kishiga qarshi Dushanbe ustiga 1500 sarboz bilan yurishi bo'ldi». Shiddatli janglar natijasida 1922 yil 16 fevralga o'tar kechasi qizil askarlar Dushanbeni tashlab chiqishga majbur bo'lishdi, istiqlolchilar shaharni egalladilar. Qizil askarlarning chekinishlari istiqlolchilarning hujumlari oqibatida tartibsiz qochishga aylandi. Bosqinchi qizil armiya qismlari 22 fevralda Boysunga kelib o'rnashdilar.

Sharqiy Buxorodagi butun Tojikiston hududi va Surxondaryo vohasining Yurchi, Denov, Mirshodi, Kakaydi, Jarqo'rg'on, Qumqo'pg'on, Xotinrabot. Pattakesar, Sherobod kabi shahar va qishloqlari (faqat hozirgi Termiz shahpi va Boysun markazi bundan mustasno) Anvar Posho harbiylari qo'lga o'tdi. Bu paytga kelib, Buxoro respublikasi, umuman, butun Turkiston mintaqasida istiqlolchilik harakati yagona siyosiy harbiy maslak sifatida to'liq shakllangan edi.

Surxondaryolik Sohib qo'rboshi, Eshoni Sudur, Xurrambek, Mustafoqulbek, Rahmonbek, Rahmonberdi, Salom Tuqsabo, Azimbek, Vali qo'rboshi, Shoyman Tuqsabo, Mulla Eshqul, Mulla Rajab, dehqonobodlik Tangriberdi dodxoh, Bo'ri Batash, O'tanbek va boshqa o'nlab qo'rboshilar ana shu davrda faollashgan edilar.

Sharqiy Buxoroda vaziyat istiqlolchilar foydasiga tubdan uzgarganligi sababli Butun Buxoro Markaziy Ijroiya Qumitasi, Xalq Nozirlar Shurosi va BKP Markaziy Komiteti 1922 yil 2 yanvarda bulgan qo'shma majlisida BXSR MIKning Sharqiy Buxoro bo'yicha favqulodda Diktatorlik Komissiyasini tuzishga qaror qildi.¹

BXSR MIK 1922 yil 8 yanvarda Diktatorlik Komissiyasining instruksiyasini tasdiqladi. Unda Sharqiy Buxoro tumanlarida inqilobiy tartib o'rnatish, butun kuchni «bosmachilar»ni tor-mor qilishga safarbar etish va sovet hokimiyatini tiklash komissiya oldiga asosiy vazifa qilib qo'yildi. Diktatorlik Komissiyasining asosiy huquqlari, vakolatlari va funksiyalari batafsil bayon qilib berildi. Komissiya

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Т. "Шарк". 176-178 бетлар

tarkibiga Nosir Hakimov (rais), Olimjon Akchurin, Ahmad Komilov, Rashid Boymurodov, Zaynullaxo'ja Zakiryayev (a'zolar) kiritildi.

Butun Buxoro MIK «Sherobod, Hisor, G'apm va Kulob viloyatlari Diktatorlik Komissiyasiga batamom bo'ysunadi», deb belgiladi. «Bundan tashqari, komissiya zimmasiga, konstitusion qonunlarni bekor qilmagan holda, Qarshi, Shahpisabz, Karki viloyatlarida ham tartib o'rnatish» vazifasi yuklandi. Komissiyaga bu viloyatlardagi ijroiya komitetlarini tugatish va ularning o'rniga revolyusion komitet (revkom)lar tuzish huquqi berildi.

Anvar Posho o'z navbatida 1922 yil fevral oyida Farg'ona vodiysidagi istiqloлчаlarning Bosh qo'mondoni Shermuhammadbek, Shahpisabz atrofidagi istiqloлчаlarning boshliqlari Doniyolbek, Jabborbek, Xoliqbek hamda Samarqand viloyatidagi Bahpombek, Ochilbek va Usmonbek kabi qo'rboshilarga, shuningdek, Xorazmda harakat qilayotgan Junaidxonga maxsus maktublar bilan murojaat etib, byrun Turkiston mintaqasidagi istiqloлчаlar qo'shinini yagona qo'mondonlik ostiga birlashtirishni taklif qildi. Buxoro hukumatining harbiy noziri Abdulhamid Oripov Anvar Poshoga maktub yuborib, ruslar unga qarshi katta hujumga tayyorgarlik kurayotganliklarini ma'lum qildi. Shuning uchun ham Anvar Posho bu paytda o'z qarorgohini tez-tez o'zgartirib turar edi.

Mart oyining boshlarida Anvar Posho ixtiyoriga Shermuhammadbek tomonidan jo'natilgan Mahmud Ruzi qo'rboshi boshchiligidagi 100 kishilik dasta yetib keldi. Bundan tashqari uning qarorgohida Turkistonda mashhur ko'plab nufuzli kishilar bo'lgan. Bu paytda qizil armiya qo'mondonligi Kogon yo'nalishida o'zining 40-50 ming kishilik qo'shinini to'pladi. Anvar Posho mudofaa janglariga tayyorgarlik ko'rdi. Shuningdek, u Qoraqum sahrosi, Amudaryo qirg'oqlari va Xorazmda bosqinchilarga qarshi kurashayotgan Junaidxon kuchlari bilan jang harakatlarini o'zaro hamkorlikda olib borishga urindi.

Shunday qilib, 1922 yil mart oyida Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan tortib, to Sharqiy Buxoro va Xorazmgacha bo'lgan ulkan hududda Anvar Posho boshchiligidagi istiqloлча kuchlarning umumiy fronti tuzildi. Anvar Posho istiqloлчаlik harakatini butun Turkiston mintaqasida avj oldirish uchun Sirdaryo

sohilidagi qozoq dashtlariga o'z vakillarini jo'natib, Qozoristonda ham sovet rejimiga qarshi ommaviy qo'zrolon boshlanishiga umid qildi. Bu paytda Ahmad Zaki Validiy boshchiligida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston Milliy Birligi tashkiloti Farrona, Samarqand, Buxoro va Xorazm qo'rboshilariga siyosiy va g'oyaviy jihatdan rahbarlik qiluvchi bir markaz vazifasini bajarayotgan edi.¹

Anvar Posho o'z kuchlarining bir qismini Doniyolbek boshchiligida Surxondaryo viloyatiga jo'natdi. Ular bu yerdagi Xurrambek bilan birlashgach, Shahrisabz orqali Buxoroga qarab yurishlari va Buxoro shahrini qamal qilayotgan Mulla Abdulqahhor qo'shiniga madad berishlari lozim edi. Anvar Poshoning o'zi bo'lsa sal keyinroq Buxoroga hujum qilmoqchi bo'ldi. «Anvar o'zining o'rinbosari qilib Ibrohimbekni 1200 yigiti bilan Sharqiy Buxoroda qoldirdi»²

Buxoro va Karmana viloyatlaridagi istiqloлчаilar ham 1921 yil kuz faslidan boshlab, o'z harakatlarini faollashtirgan edilar. Mulla Abdulqahhor va Jabbor qo'rboshi qo'mondonligidagi istiqloлчаilarning 2000 kishilik armiyasi 1921 yil kuzida Karmana shahriga hujum qilishdi. Harbiy dastalarga bu jangda Hayit Amin, O'rmon Polvon, Ismoil Tuqsabo, Hasan Karvon, Doniyolbek (Rishtilik) kabi, qo'rboshilar boshchilik qilishdi. Karmana shahrini istiqloлчаilar egallashgach, ularning safi qisqa muddat ichida bir necha marta ko'paydi. O'z saflarida G'apbiy Buxorodagi istiqloлчаilarni birlashtirgan Mulla Abdulqahhorning qo'shini G'ijdunon shahrini egallagach, poytaxt Buxoro shahrining o'zida ham unga xayrixoxlar ko'payib qoldi.

1921 yilning oxirida qariyb butun G'arbiy Buxoro Mulla Abdulqahhor qo'rboshining tasarrufi ostida edi.

Bu paytda Mulla Abdulqahhor qo'rboshi Afg'onistonda turgan sobiq amir Said Olimxon bilan, shuningdek, Ibrohimbek va Anvar Posholar bilan doimiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Mulla Abdulqahhorning ko'shiniga qisqa vaqt ichida minglab buxorolik yigitlar kelib qo'shildi. Ularning aksariyati dehqonlar va hunarmandlardan iborat edi. Said Olimxonning yozishicha, Mulla Abdulqahhor

¹ Набиев А. Жангавор йиллардан лавҳалар. 23-25 бетлар.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. "Шарқ". 181 бет.

qo'shiniga «Buxoro atrofidan taxminan 6000 nafar, Vobkent tumanligi tarafidan 2000 nafar, Varg'nza tumanidan 2000 nafar, Shofrikom tumanidan 2000 nafar, Pirmast tumanidan 2000 nafar, Xutfar va Laqlaqa (hozirgi Romitan va Peshku - Q.R.) tumanidan 2500 nafar, Bahouddindan (hozirgi Kogon tumani – Q.R.) 2000 nafar askar, hammasini jamlasak, 25000 nafardan ortiqroq jamoa yig'ilibdi».

Ma'lumki, bu paytda Anvar Poshoning qo'shinlari Sharqiy Buxoroda g'alabalarni qo'lga kiritayotgan, Dushanbe shahrini qayta egallagan, birin-ketin shahar va qishloqlar bosqinchilardan ozod qilinib, istiqloлчаilar tasarrufiga o'tayotgan edi. Mulla Abdulqahhor G'arbiy Buxoroda dastavval respublika poytaxti Buxoro shahrini qo'lga kiritish vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Agar istiqloлчаilar Buxoro shahrini egallashsa, Sharqiy va G'arbiy Buxoroda amalda ularning hokimiyati o'rnatildi, degan gap edi. Shundan so'ngra Mulla Abdulqahhor Qarshi shahrini jang bilan olib, Sharqiy Buxoro istiqloлчаilari bilan qo'shilmoqchi bo'lgan. Buxoro vatanparvarlari Karmana va Nurota orqali Samarqanddagi istiqloлчаi dastalar bilan o'zaro birlashib, Turkiston respublikasidagi sovet hokimiyatiga ham kuchli zarba bermoqchi bo'ldilar. Anvar Posho bo'lsa Boysundan Shahrisabz orqali o'tib, Qarshi shahrida Mulla Abdulqahhor qo'shinlari bilan qo'shilmoqchi edi. Agar bu qo'shinlar o'zaro birlashib, yagona qo'mondonlik ostida harakat qilishsa, Buxoro respublikasidagi qizil askar kuchlari batamom tor-mor etilishi turgan gap edi. Bu holda Farg'onadagi istiqloлчаilar bilan birlashgan buxoroliklar butun Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi kurashga o'tlanardilar. Xorazm istiqloлчаilari ham ularni qo'llab-quvvatlar edi. Shuning uchun ham istiqloлчаilar hal qiluvchi ushbu muhorabaga jiddiy tayyorgarlik ko'rishdi. Qizil askarlar o'z navbatida boshqa frontlardan harbiy qismlarni olib, yuqorida aytib o'tilganidek, ularni Kogon yo'nalishi va Buxoro shahriga jo'nata boshladilar.

G'ijduvon tumani atrofida bo'lgan qattiq janglar natijasida Mulla Abdulqahhor qo'shini qizil askar qismlariga kuchli zarbalar yetkazdi. «Bir oy ichida bolsheviklar qo'lidan 2000 beshotar miltiq 100000 beshotar o'q 10 ta pulemet va uchta temir qoplangan bronevik uyaja olindi». G'ijduvon tumanidan

tashqari Shofirkon, Vobkent va Romitan tumanlari ham istiqlolchilar qo'liga o'tdi. O'z muvaffaqiyatlarini mustahkamlash uchun Mulla Abdulqahhor Nurota ustiga yurish qildi. Nurotaga qarashli Chuya va Sentob qishloqlarida shiddatli janglar bo'ldi. Nurotani qizil askarlardan ozod qilgach, u tog'lar o'rtasidagi bu vilgyatni o'ziga qarorgoh qilib oldi.

O'sha davr voqyealarining ishtirokchisi, Buxoro hukumatida mas'ul lavozimlarda ishlagan shofirkonlik chekist Abdug'ani Nabiyeving o'z esdaliklarida keyinchalik yozishicha, Abdulqahhor qo'rboshi yuqoridagi tumanlar hududini qo'lga kiritib, bu yerda o'z hokimiyatini qaror toptirgach, Mulla Jalol va Xazratqulbekni Buxoro respublikasining rahbari F. Xo'jayev huzuriga ultimatum (talabnoma) bilan yubordi: «Zarafshon daryosining yuqori qismini berasan, aks holda Buxoroga hujum qilaman», deb yozilgan edi unda.

Istiqlolchilarning bu talabi rad qilingach, ular 1922 yil mart oyining boshlarida Buxoro shahrini egallash uchun hujumga o'tishdi. Said Olimxonning o'z xotiralarida keltirishicha, «Saripul, Mehtar Qosim ko'prigi boshigacha borilgan asnoda Buxoro jadidlarining Abdulhamid Afandi degan harbiy vaziri 60 nafar buxorolik, turk, hindi odamlari hamrohligida o'z oldilariga anchagina qurol-yarog' qo'yib, Mulla Abdulqahhorni kutib olishdi». Zarafshon ko'prigi yonida bo'lgan bir kunlik jangda Buxoro hukumatining askarlari mag'lubiyatga uchraydi. Ba'zi manbalarda Zarafshon ustiga qurilgan Mehtar Qosim ko'prigi yonida bo'lgan bu jang «ikki kechayu-kunduz» davom etganligi qayd qilingan.

Qizil askarlar mag'lubiyatga uchragach, poytaxtga chekinishdi. G'alabadan ruhlangan Mulla Abdulqahhor qo'rboshining qo'shini Buxoro shahriga hujum qildi. Shiddatli janglar natijasida Mulla Abdulqahhorning qo'shini respublika poytaxti Buxoroga yorib kirdi, shaharning olti darvozasini egalladi. Mulla Abdulqahhor o'z g'alabasini mustahkamlash uchun qo'shinini ikki qismga ajratib, ularning birinchi guruhini Kogon shahriga junatdi.¹

Temir yo'l tugunida joylashgan va Eski Buxorodan atigi 12 chaqirim narida bo'lgan bu shahar muhim strategik mavqiyega ega edi. Agar Kogon shahri

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,80-81 бетлар

istiqlolchilar tomonidan ishg'ol qilinsa, qizil askarlarga kelayotgan yordam kuchlarining yo'li tusilar, Buxoro shahri Toshkent va Moskvadan butunlay uzib qo'yilar edi. Bu holni Buxoro hukumati rahbarlari ham yaxshi bilishardi. Shuning uchun qizil askarlarning asosiy kuchi Kogon shahri atrofiga to'plandi va bu yerda istiqolchilar bilan shiddatli janglar qizib ketdi.

Mulla Abdulqahhorning o'zi bo'lsa qo'shinining qolgan qismi bilan Buxoro shahrini to'rt soatdan ko'proq ishg'ol qilib turgach, shahardan o'n chaqirimcha narida joylashgan Kasri Orifon - Bahouddin Naqshband hazratlarining ziyoratgohiga yo'l oldi. Istiqolchilar bilan qizil askarlar o'rtasida bu yerda o'n soat davomida shiddatli janglar bo'ldi. Har ikki tomondan ham qon daryo bo'lib okdi. O'z Vatanining mustaqilligi va ozodligi, diniy e'tiqodlarini himoya qilish yo'lida kurashayotgan istiqolchilar qo'shini bu muqaddas ziyoratgohni ham qizil askarlardan tozalashdi. Lfsuski, G'arbiy Buxoro istiqolchilarining bu sururli g'alabalari uzoq vaqt davom etmadi. Qizil askarlar yetarli miqdorda qo'shin to'plab, dastlab Kogon atrofidagi istiqolchilarning kuchlarini tor-mor qilishdi. Afsuski, Anvar Posho yuborgan qo'shinlar Shahrisabz va Qarshi orqali Buxoro viloyatiga yetib kela olmadi.¹

O'sha davrda chiqqan jurnallarning birida yozilishicha, Jabbor qo'rboshining dastalari ham Eski Buxoroni hamma tomondan qurshab oldi. 1922 yil 5 martda BXSR hukumati shu sababli G'arbiy Buxorodagi «bosmachilik»ni tugatishga yordam berishni so'rab, Turkfront Revolyusion (Inqilobiy) harbiy kengashiga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Zudlik bilan Samarqanddan suvoriy qismlari hamda 3akaspiydan Budyonniyning otliq qismlari Buxoroga tashlandi. Toshkent va Moskvadan qo'shimcha harbiy kuchlarni yuborish uchun Turkomissiya shoshilinch choralar belgiladi.

Buxoroga «3akaspiydan yetib kelgan budyonniychilar Otryadi» 8 martda Buxoro shahri atrofida istiqolchilar bilan jangga kirishdi. Samarqand va Toshkentdan qo'shimcha yordam kuchlari izma-iz yetib kelib, qizil askarlarga qo'shildi. «9 mart kuni Turkiston fronti Buxoro uchun yana 12 ming kishilik

¹ Ўша жойда

qo'shin va bir necha bronepoyezdni yubordi». Samarqanddan yetib kelgan suvoriy qismlari Vobkent, Shofirkon va G'ijduvonda bo'lgan janglarda 1922 yil 9 martda Jabbor qo'rboshining dastasini tor-mor keltirishdi. Buxoro shahriga har ikki tomondan yo'l ochilgach, qizil askarlar 11 martda bo'lgan hal qiluvchi jangda istiqloлчаilar qo'shiniga kuchli zarba berishdi. Istiqloлчаilar shahar atrofidan 10- 15 chaqirim nariga chekinishga majbur bo'ldilar. Bir necha kunlik shiddatli janglar natijasida Vobkent, G'ijduvon, Shofirkon va boshqa ko'plab shaharlarni qizil askarlar bosib olishdi. Xarbiy Qurolyarog'larning miqdori va sifati jihatidan istiqloлчаilardan bir necha marta ustun bo'lgan qizil askarlar Buxoro shahri atrofida bir qator g'alabalarga erishsalar-da, vatanparvar bobolarimiz ham janglarda bo'sh kelishmadi. Masalan, 1922 yil aprel oyining boshlarida Buxoro shahridan 15 chaqirimcha uzoqlikda bo'lgan Jondor Qishlog'ida ayovsiz to'qnashuvlar bo'ldi.¹

Mulla Abdulqahhor boshchiligidagi istiqloлчаilar qo'shini Buxoro shahri atroflaridan chekingach, o'z harbiy harakatlarini Karmana viloyatida faollashtirdilar. Karmana, Nurota, Xatirchi shaharlari bu paytda ularning qo'l ostida edi. Qizil askarlar qanchalik urinishmasin, ular G'arbiy Buxoro istiqloлчаilarining asosiy qarorgohi Nurota viloyatida ancha paytgacha birorta harbiy yutuqqa erisha olishmadi. Qizil askarlar katta miqdorda harbiy kusch to'plagach, faqat Karmana atrofidagi istiqloлчаilar qo'shinini yengishdi.

1922 yil bahorida Sharqiy Buxoroda ham istiqloлчаilar bilan qizil askarlar o'rtasidagi janglar qizib ketgan edi. Sovet ayg'oqchilaridan birining bergan ma'lumotlariga ko'ra, bu paytda Anvar Posho qo'mondonligidagi qo'shinning miqdori 16000 kishidan iborat to'rtta katta qo'shilma bo'lgan. Anvar Posho va Ibrohimbeklarning har biri bevosita 4000 yigitga qo'mondonlik qilgan. Boshqa bir sovet manbasida yozilishicha, 1922 yil bahorida Anvar Posho ixtiyorida 20000 jangchi bor edi. Yana boshqa bir manbada keltirilishicha, bu paytda Anvar Posho ixtiyorida 50000 jangchi bo'lib, u Rossiyaga qarshi musulmon davlatini tuzmoqchi edi.

¹ Шамсутдинов Р.Каримов Ш. Ватан тарихи 2-китоб. Т.2010. 108-109 бетлар

Xorijiy davlatlarda nashr qilingan tadqiqotlarda esa boshqacharoq raqamlar keltiriladi. Glenda Frezerning yozishicha, «Bu paytda ruslar Turkistonda yuz ming kishilik armiyaga ega edi, ular o'z saflariga avstriyalik va nemis harbiy asirlarini qo'shib olgach, bu miqdor deyarli ikki baravarga ko'paydi. Bulardan tashqari, 75000 kishilik qurollangan ishchi otryadlari bor edi. Orenburgdan tarkibida 8 ming kishilik tatar brigadasi bulgan 3-armiya bu yerga jo'natildi. Qizil armiyaning bu kuchlariga qarshi Anvar Posho qo'mondonligidagi 60000 qurolli va 225000 qurolsiz bosmachilar kurashdi» Albatta, Sovetlar bu miqdordagi kuchlarning hammasidan foydalanishmagan bo'lsa ham, shubhasiz, miqdoriy ustunlik ular tomonida edi.¹

1922 yil mart oyining boshlarida Ibrohimbek Boysun-Sherobod chizig'i bo'ylab joylashib oldi. Baljuvondan Davlatmandbek va Darbozdan Eshon Sulton guruhlar ham shu chiziq bo'ylab tuplandi. Istiqlolchilarning zarbdor kuchi Sherobod atrofiga o'rnashgan. Qo'rboshi dastalarini yagona reja asosida joy-joyiga qo'ygach, Anvar Posho Surxondaryoda harakat qilayotgan Doniyolbek qo'mondonligidagi qo'shinlarni Shahrisabzga jo'natdi. Uning o'zi bo'lsa Ibrohimbek bilan birgalikda qo'shinning asosiy kuchlarini olib, Boysun shahrini ishg'ol qilish uchun jang boshladi. Anvar Posho mart oyining boshida Boysundan 18 chaqirim uzoqda bo'lgan tog'li Qo'shbuloq qishlog'iga, keyin esa Qo'shbuloqning janubrog'idagi Po'lhokim Qishlog'iga o'z qarorgohini joylashtirdi. 18 martda esa u o'z qarorgohini Po'lhokimdan Kofirunga kuchirdi, uning shtabi ham shu yerga keltirildi.

Kofirun qishlog'i Boysundan 16 chaqirim janubda joylashgan bo'lib, u harbiy-strategik jihatdan qulayligi bilan Anvar Poshoning diqqatini o'ziga jalb etgan edi. Eng avvalo Boysun shahrining o'zi qulay jug'pofiy mavqeyi egallagan bo'lib, u G'arbiy Buxoro bilan Sharqiy Buxoro o'rtasida darvoza-qo'rg'on vazifasini o'tab kelardi. Unda istagancha harbiy qismlarni joylashtirish, qulay jang pozitsiyalari, front chiziqlari, mudofaa istehkomlarini tashkil qilish, pistirmada

¹ Мустафо Чўқаев Истиқлол жаллодлари. – Т. 1993 йил, 48 бет

jangovar otryadlarni joylashtirib, dushman yo'llarini kesib qo'yib, unga qo'qqisdan zarba berish imkoniyatlari bor edi.

Anvar Posho Boysun qamaliga katta umid bog'laydi. U Kuchkak, Avlod, Sariosiyo, Padang qishloqlarida Ibrohimbek bilan Sohob komandirning, Pulhokim, Pudina, Chorbog', Inkobod, Dashtig'oz qishloqlarida Eshon Sulton bilan Hoji Afandining; Sariqamish, Kofirun, Rabot, Bibi Shirin, Mirqorakuz qishloqlarida Surayyo Afandining; Qizil va Mirshodi qishloqlarida Azimbek qo'rboshining yigitlarini joylashtirgan edi. Kofirun-Rabot-Qizil front chizig'i bo'ylab mudofaa istehkomlari qurildi.

Anvar Poshoning Sharqiy Buxorodagi g'alabalaridan ruhlangan Said Olimxon 1922 yil 22 martda yozgan maktubida uni «Buxorodagi: butun qo'shinlarning Oliy bosh qo'mondoni» qilib tayinlaydi. Bu maktubni 28 martda Anvar Poshoning o'zi Said Olimxon vakillaridan qabul qilib oldi.¹

Anvar Posho 1922 yil 10-15 aprelda Boysundagi Kofirunda Turkiston qo'rboshilarining katta qurultoyini o'tkazdi. Unda Buxoro qo'rboshilaridan tashqari Farg'ona vodiysidan kelgan harbiy qo'mondonlar ham ishtirok etdi. Shuningdek, qurultoyda turk zobitlari, Afg'onistondan Said Olimxon yuborgan vakillar ham qatnashdi. Turk zobitlaridan Doniyolbek Afandi, Usmon Afandi, Hasan Afandi, Hoji Somiy, Surayyo Afandi, Ali Rizo, Muhitdinbek va muhrdor Xo'jamurod Murodov; qo'rboshilardan Eshon Sulton, Davlatmandbek, Ibrohimbek, Abduqayum parvonachi, Tog'ay Sari, Barot, Alimardonbek, Farg'onadan Botir Ro'zi; qarshilik Bo'ri Batosh Tuqsabo, O'tanbek va shahrisabzlik Jabbor kenagas, boysunlik Xurrambek, Ahmadbek Ikromiddin Xo'ja, Mustafoqulbek, Sohob komandir, Salombek, Eshoni Sudur - O'roqxon qoraxo'ja, mirshodilik Azimbek va boshqa nufuzli sardorlar ishtirok etishdi. Kurultoyda Anvar Posho Oliy bosh qo'mondon va siyosiy rahbar qilib saylandi.

Bu qurultoyda Anvar Posho bugun Turkistondagi istiqlolchilik harakatini birlashtirish va Buxoro shahrini qo'lga kiritish rejasini bayon qildi. Rejaga muvofiq G'arbiy Buxorodagi istiqlolchilar Mulla Abdulqahhor boshchiligida

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,84-85 бетлар

janglar bilan Karmana va Nurota orqali Samarqand hududiga o'tishi, shuningdek, Qarshi shahrini egallashlari lozim edi. Anvar Poshoning o'zi esa Boysun shahrini olgach, u yerdan Shahrisabz hududiga kirishi, so'ngra Qarshi shahriga o'tib, Mulla Abdulqahhorning qo'shini bilan qo'shilgach, respublika poytaxti Buxoroi sharif ustiga birgalikda yurishlari kerak edi.

Qurultoyda Said Olimxonning nufuzli a'yoni Hoji Latif Devonbegi ishtirok etdi. U Anvar Poshoga amirning shaxsiy maktubi va qimmatbaho sovg'alarini topshirgach, G'arbiy Buxoroga - Mulla Abdulqahhor huzuriga yo'l oldi. U ham Said Olimxonning, ham Anvar Poshoning vakili sifatida Mulla Abdulqahhor qo'shinida o'limiga qadar faoliyat ko'rsatdi.

Qurultoy kunlarida Anvar Poshoning taklifi bilan bir guruh nufuzli vakillar shu kunlarda Samarqandda o'tishi mo'ljallangan Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyiga vakil qilib jo'natildi.

Anvar Posho Buxorodagi istiqlolchilar kurashiga rahbarlik qilar ekan, faqat jang harakatlari bilan cheklanib qolmadi. U sovet hokimiyati vakillari bilan muzokaralar o'tkazishga, diplomatik vositalar orqali o'z maqsadini bayon etishga ham intildi. Bu bilan Anvar Posho qon to'kishni kamaytirishga, bosqinchi qizil askarlarni esa Rossiyaga jo'natib yuborishga harakat qilardi. Anvar Posho, Ibrohimbek va boshqa qo'rboshilar nomidan Boysun shahridagi bolsheviklar vakili O. Akchurin nomiga jo'natilgan maktubda shunday satrlar bor: «Haqiqiy mustaqil Buxoro tuprog'idagi aholining vakillari bo'lgan bizlar sizlarga shuni ma'lum qilamizki, sizlar mamlakatimizdan chiqib ketmaguningizcha jangni davom ettiraveramiz, deb bir qarorga keldik, hozirgi iaqtda behuda qon to'kilmasin deb va odamgarchilik qilib sizlarga mamlakatimizdan chiqib ketishni taklif qilayotirmiz. Shunday qilsangiz, Sizning do'stlaringiz bo'lib qolamiz va o'zimiz yordam berib, sizlarni ochlikdan saqlab qolamiz, aks holda Sizlar vataningizda ocharchilikdan o'layotgan oilalaringiz kabi mahv etilasiz. Hozir biz gunohkor bo'lmaylik deb odam qonini to'kishni istamayotirmiz. Lekin xalqimizning istagiga xilof ravishda vatanimizga bostirib kirgan sizlar bilan jang qilishni muqaddas burchimiz deb

bilamiz. Bizlar xursandlik bilan bu yo'lda qonimizni to'kib, shahid bo'lishdan qaytmaymiz».¹

Anvar Poshoning bunday talablari va erishgan g'alabalari sovet hokimiyatini sarosimaga soldi. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Anvar Poshoning Turkiston kurash maydonida kurinishi, uning dadil harakatlari Rossiyaning Sharq va Turkistonda yuritayotgan siyosati tanazzulining ibtidosi bo'ldi. Aprel oyining o'rtasida Boysunga Anvar Posho bilan sulh tuzish uchun sovet Rossiyasi tashqi ishlar xalq komissarligining 10 kishidan iborat delegasiyasi keldi.

Poshoning qarorgohiga ularning taklifini boysunlik Usmon Aka o'g'li keltirdi. Bu sulhga binoan Anvar Posho «Darvoz, Qorategin, Kulob, Dushanbe, Hisor kabi shahar va viloyatlarda o'z orzusi asosida mustaqil bir davlat qura olishi» mumkinligi e'tirof etilgan edi. Buning evaziga, undan Turkiston masalasiga boshqa aralashmaslikni talab qildilar. Anvar Posho sovet elchisiga 19 aprelda quyidagicha javob qaytardi: sulh bitimi haqida faqat rus askarlari Turkiston tuprog'idan butunlay olib chiqib ketilgandan keyingina so'z bo'lishi mumkin.²

Anvar Posho 13 mayda faol jang harakatlarini boshladi. Karmana, Boysun, Sherobod, Termiz, Karki kabi turli shaharlarda istiqloлчаilar qizil askarlarga qarshi hujumga o'tishdi.

Anvar Posho 1922 yil 19 mayda sovet davlatining poytaxti - Moskvaga jo'natish uchun Ozarboyjon respublikasi Xalq Komissarlari Kengashining raisi N. Narimonov orqali bir ultimatum (talabnoma) yubordi. U hamma narsadan oldin bosqinchi rus qo'shinlarining Turkistondan chiqib ketishini talab qildi.

Tabiiyki, sovet hukumati Anvar Poshoning bu talablarini javobsiz qoldirdi. Jangovar harakatlarni kuchaytirish bilan bir qatorda xalq ommasi o'rtasida Anvar Poshoga qarshi ommaviy ravishda targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish allaqachon boshlangan edi. RKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi hali 1922 yil 1 fevraldayoq «Buxoro masalasiga doir» qaror qabul qilgan bo'lib, mazkur

¹ Аъзамхўжаев С. Жтуркистон мухторияти. ЖТ: "Фан", 1993. 50-бет

² Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 85 бет.

qarorni I.V.Stalin, G.V.Chicherin, V.V.Kuybishev va F.Xo'jayevdan iborat komissiya ishlab chiqqan edi.

Bu qarorga ko'ra, Buxoro va Farg'ona hududlaridagi istiqloлчаilarga qarshi kurashayotgan frontlar RSFSR Inqilobiy harbiy kengashi tayinlagan maxsus qo'mondonlik rahbarligida birlashtirildi, bunda musulmon aholisi orasida siyosiy ish olib borishga va qizil askar qismlarini ta'minlab turishni kuchaytirishga ham alohida e'tibor berildi.

Qarorda «bosmachilik»ni tugatish, Buxoro partiya va sovet organlarining eng muhim vazifasi, deb ta'kidlandi. «Bosmachilar»ga qarshi muvaffaqiyatli kurashmoq uchun RKP(b) MK turkmanlar va tojiklar orasida siyosiy ishni kuchaytirishni, mahalliy aholiga yon berish yo'lini tutishni, musodara qilingan vaqf yerlarini qaytarib berishni, qozilar sudini oshkora rasmiylashtirishni va tavba qilgan «bosmachilar»ning gunohini kechishni suradi.

Sharqiy Buxorodagi istiqloлчаilar harakatini batamom tor-mor keltirish maqsadida Turkfront Inqilobiy harbiy kengashining 1922 yil 1 apreldagi buyrug'iga binoan «bosmachilik» bilan kurash olib boruvchi, Sharqiy Buxoro fronti tuzildi. Unga, inqilobiy harbiy, kengash boshchilik qilardi. Kengash (front tarkibi 4 kishi: qo'mondoni Ionov - rais, Inqilobiy harbiy kengash a'zolari - F.Xo'jayev va R.I. Berzin hamda shtab boshlig'i Zuyev) dan iborat qilib tuzildi. Ionov Buxoroga yetib kelguncha, uning vakolatini F.Xo'jayev vaqtinchalik bajarib turdi.

Buxoro respublikasi hududida turgan barcha qizil armiya qo'shinlari, ushbu «bosmachilik» ka qarshi kurash frontining Inqilobiy harbiy kengashi qo'mondonligiga to'la ravishda bo'ysundirildi, Buxoro davlatining qurolli kuchlari (milliy qizil armiya va xalq milisiyasi) esa o'zlarining xizmat ko'rsatuvchi apparatlari (shtab va boshqarmalari) bilan operativ jihatdan Inqilobiy harbiy kengashi ixtiyoriga o'tdi.¹

«Bosmachilik»ka qarshi kurash fronti bilan Turkfront qo'shinlarini bir-biridan ajratib turgan hududiy chiziq qilib Buxoro respublikasining davlat chegarasi

¹ Ўша китоб.....86 бет

tayinlandi. Yangi tuzilgan front qo'mondonligiga komandarm - armiya qo'mondonining hamma hukumlari berib qo'yildi.

RKP(b) MK Buxorodagi istiqloлчаilik haraqatiga qarshi kurash olib borish chora-tadbirlari tug'risida atigi to'rt oy ichida oltita qaror qabul qildiki, shuning o'zidan ham Anvar Posho boshchiligidagi Buxoro vatanparvarlarining kurashi Moskvani qanchalik tashvishga solganligini bilib olish mumkin. Ushbu qarorlar orasida RKP(b) MK tomonidan 1922 yil 18 mayda qabul qilingan «Turkiston - Buxoro ishlari haqida» degan kengaytirilgan qaror muhim o'rin tutadi. Shunisi xarakterliki, ushbu qaror Anvar Poshoning sovetlarga yuborgan ultimatumidan bir kun oldin qabul qilingan edi. Unda Anvar Posho «Angliyaning agenti va Sharq xalqlarining dushmani», deb e'lon qilindi, unga qarshi «keng siyosiy kompaniya boshlash» chora-tadbirlari belgilandi. «Anvar Poshoning ingliz imperializmining malayi ekanligini fosh etish va qizil armiyaning xaloskorlik missiyasini ommaga tushuntirish» yuzasidan maxsus ko'rsatmalar berildi. G'irt tuhmat va siyosiy tovlamachilikdan iborat bo'lgan bu qaror tariximizda o'ta mash'um rol o'ynadi. Bu qarorni amalga oshirish uchun G.Q Orjonikidze Moskvadan Buxoroga zudlik bilan jo'natildi. Bundan tashqari 1922 yil yozida Rossiya harbiy ishlar xalq komissari Ya.D. Troskiy, Rossiya qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni S.S. Kamenev, bo'lg'usi sovet marshali S.M. Budyonniy va Turkkomissiya a'zosi V.V. Kuybishev, O'rta Osiyo byurosining raisi Ya.E. Rudzutak ham avval Turkistonga, so'ngra esa Buxoro shahriga yuborildilar. Lenin va Stalindan tashqari sovet Rossiyasining eng nufuzli davlat arboblari va harbiy boshliqarining Turkiston va Buxoroga kelishi, bu yerdagi vaziyat bilan tanishib, istiqloлчаilarga qarshi kurashga shaxsan o'zlari bevosita rahbarlik qilishlari Buxorodagi istiqloлчаilik harakati qanchalik kuchayganligi va siyosiy tus olganligini yaqqol ko'rsatadi. Bu holni Buxoro hukumatining o'sha paytdagi boshlig'i Fayzulla Xo'jayev ham quyidagicha e'tirof etgan edi: «Sharqiy Buxorodagi bosmachilik harakati o'zining strategik mavqeyi jihatidan alohida ahamiyatga ega va siyosiy jihatdan qaraganda Farg'ona bosmachilariga nisbatan kuchliroqdir».¹

¹ Ўша китоб ...102-103 бетлар

Sovet hokimiyati butun Turkistondagi istiqloлчаilik harakatini qisqa muddat ichida tor-mor qilish uchun o'zining barcha imkoniyatlaridan foydalandi. Shu maqsadda RKP(b) MK Turkbyurosi o'rnida 1922 yil mayda RKP(b) Markaziy Komitetining O'rta Osiyo byurosi tuzildi. O'rta Osiyo byurosi istiqloлчаilarni tor-mor qilish ishiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishi kerak edi.

Sovet Rossiyasi va uning bosqinchi qizil armiyasi tomonidan mo'ljallangan harbiy harakat rejalari ham, markazdan jo'natilayotgan yangi-yangi harbiy qismlarning Turkiston va Buxoroga kelishi ham, aholi o'rtasida yuritilayotgan kommunistik targ'ibot va tashviqot ham istiqloлчаilarni kurashdan qaytara olmadi. Mulla Abdulqahhor qo'shinlari Buxoro shahri atrofida mag'lubiyatga uchragach, Anvar Posha Sharqiy, Buxoroda qizil Askarlardan intiqom olmoqchi bo'ldi. Bu paytda Boysun garnizonidan tashqari butun hudud uning ixtiyorida edi. Anvar Posho bo'lajak janglarga qizg'in tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.¹

Mulla Abdulqahhor qo'rboshi ham bu paytda G'arbiy Buxoroda o'z harakatini ancha faollashtirdi. O'sha davr xujjatlarining birida yozilishicha, «1922 yil 24 mayda ertalab Mulla Abdulqahhor boshchiligidagi 3000 kishi G'ijduvon shahrini chor atrofdan qurshab olishdi va garnizonga hujum qilishdi ... Garnizonning ahvoli juda qiyin holatda ... shahar hamma tomondan qurshab olingan». Ikki kecha-yu kunduz davomida tinimsiz janglar bo'ldi. G'ijduvon garnizonidagi qizil askarlarga qo'shimcha yordam kuchlari kelib qo'shilgach, istiqloлчаilar orqaga chekinishdi. O'sha xujjatda qayd etilishicha, «butun kuchlar bilan dushmani zurg'a qaytarishga muvaffaq bo'lindi».

Bu paytda qizil askarlar Karmana-Nurota yo'nalishida ham hujumga o'tdilar. Mulla Abdulqahhorning G'arbiy Buxorodagi asosiy qarorgohi bo'lgan Nurotaga hujum qilindi. Tog'lar orasidagi bu shaharni 28 mayda qizil askarlar bosib olishdi. Istiqloлчаilardan 150 kishi jangda mardlarcha halok buldi, 50 kishi esa asir tushishga majbur bo'ldi. Mulla Abdulqahhor o'zining asosiy kuchlari bilan Qizilqum sahrosiga chekindi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида . Т.: 2000. 147 бет

G'arbiy Buxoroda istiqloqlar uchun kurashni jonlantirish maqsadida tyman markazlari va yirik qishloqlarda qizil askarlarning harbiy garnizonlari tuzilgan edi. Bunday garnizonlar Shofirkon, Talisafed, Vardonze, Vobkent, Romitan, Zandani, G'ishti, G'ijduvon va boshqa ko'plab joylarda tashkil etildi. Bu garnizonlardagi qizil askarlar «bosmachilar» bilan jang qilish o'rniga ko'pincha tinch aholini talash, qishloqlarga o't qo'yish, musulmon ayollarining nomusiga tegish kabi qabih ishlar bilan shug'ullandilar. Masalan, o'sha davrga tegishli bir hujjatda yozilishicha, Shofirkon tumanining markazi bo'lgan Xo'ja Orifda joylashgan qizil askarlar garnizonining bir jangchisi shu yerlik Hofiya Burhonxo'ja qizini zo'rlab, nomusiga tegdi. Jabrdiyda qiz va uning otasi Burhonxo'ja Saidxo'jayev qizil askarlarning bu zuravonligidan panoh istab, Chitgaron qishlog'ida joylashgan istiqloqlar uchun safiga borib qo'shildilar. Arxiv xujjatlarida keltirilishicha, Buxoro istiqloqlari safida ko'plab o'zbek va tojik ayollari qo'lda qurol tutib, qizil askarlarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar.

Bu paytda Turkistonda bo'lgan Rossiya Kurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni S.S.Kamenev Buxorodagi qizil armiyaning jang harakatlariga shaxsan o'zi rahbarlik qildi. Buxoro gruppasi qo'shinlarining Shtabi va Inqilobiy harbiy kengash (Revvoyensovet) tuzildi, qo'shinlar qo'mondoni etib N. B.Kakurin va Revvoyensovet a'zosi qilib esa Baturin tayinlandi. 1922 yil 1 iyundan boshlab BXSR hududida ikki front: Sharqiy va G'arbiy frontlar tashkil qilindi.

Sovet qo'mondonligining rejasiga muvofiq faol harakatlar ikki yo'nalishda: so'l kolonna Boysundan to Denov-Hisor-Dushanbe- Kofirnihon-Fayzobodgacha, o'ng kolonna bo'lsa Sherobod-Kakaydi- Termiz uchburchagidan Kabodiyon-Qo'rg'ontepa-Kulob-Baljuvon tomongacha olib borilishi kerak edi.

Kakurin qo'mondonligidagi Buxoro gruppasi qushinlari Boysunni 4 oydan beri qamal qilib turgan Anvar Posho armiyasiga qarshi 1922 yil 9 iyunda xujumga o'tdilar. Jang harakatlari tasvirlangan sovet xujjatlarida istiqloqlarning qizil askarlarga qarshi shiddatli kurashganligi quyidagicha ko'rsatiladi: «9 iyun tongotarida artilleriya o'ti himoyasida Bibi Shirin va Mirqorako'z qishloqlari shiddatli jang bilan ishg'ol etildi. Shu kuni Rabot qishlog'i egallanib, har ikkala

kolonna birlashdi. Dushman kuchli qarshilik ko'rsatdi. Tushdan keyin dushman 2500 kishi atrofidagi kuchlar bilan Boysun va Rabot atrofida qarshi hujumga o'tsada, bu joyda 217 kishini yo'qotib, orqaga chekindi».¹

Bibi Shirin, Mirqorakuz, Rabot, Yuqori Kakaydi, Inkabod qishloqlarida joylashgan Ali Rizo, Doniyolbek, Tursun afandi va Azimbek, Eshon Sulton boshchiligidagi Anvar Posho qo'shinlari Ya.A. Melkumov jangovar qismlarining shiddatli hujumiga qarshilik ko'rsatgan bo'lsa-da, Dyakonov to'plarining bergan zarbalaridan keyin otliq askar bo'linmalari ular ustiga tashlandi. Natijada istiqloлчаilar Boysun atrofidagi qishloqlarni tashlab chiqishdi. Ammo ular o'z navbatida qarshi hujumga ham o'tib turishgan. Masalan, 12 iyunda Boysundan 8-10 chaqirim janubi-sharqda joylashgan Inkabod qishlog'iga 1000 kishidan iborat istiqloлчаilar qo'shini shimol va janub tomondan hujum qilishdi. Qizil askarlar ularning shiddatli hujumini zurg'a qaytarib qolishdi.

Qizil askarlar bu hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rgan vaqtlarida faqat tinch aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot yuritish bilan cheklanib qolmagan edilar. Ular qo'rboshilar orasida nifoq chiqarish, ularni bir-biriga qayrab solish, turli ig'volar tarqatib, istiqloлчаilar safini bo'lib tashlashga jon-jahdlari bilan intildilar. Sovet chekistlari va ayrim sotqinlar qo'rboshilar dastalarida bo'lib, yigitlar o'rtasida vahimali mishmishlar tarqatar edilar. Bu murtadlar Sharqiy Buxorodagi istiqloлчаilik harakatining ikki buyuk siymosi:

Anvar Posho va Ibrohimbek o'rtasidagi murakkab munosabatni yanada taranglashtirishga, ular orasiga nizo solishga ham muvaffaq bo'ldilar. Natijada qizillar hujumi arafasida Ibrohimbek qo'rboshi o'zining 7000 kishidan iborat saralangan qo'shinini olib, Boysunni tark etdi. Ibrohimbek bu bilan cheklanmay, qizillar hujum qilgan vaqtda Anvar Poshoga bo'ysunmasligini aytib isyon ko'tardi. Ibrohimbekning bu o'zboshimchaligi va Anvar Poshoning u bilan til topisha olmasligi istiqloлчаilarga qimmatga tushdi.

Anvar Posho 1922 yil 15 iyunda Said Olimxonga yozgan maktubida bu ziddiyatlarni tasvirlab, quyidagilarni ma'lum qilgan edi: «Kulobda hujumga o'tgan

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 104-105 бетлар

laqayliklar butunlay tor-mor etilgan edilar. Tojiklar, qirg'izlar va turkmanlarning birlashgan qo'shinlari Davlatmandbek boshchiligida provinsiyaning hamma okrugini (Sharqiy Buxoroni - Q.R.) ulardan tozalagan va bu atrofdagilarni (Ibrohimbek yigitlarini - Q.R.) qurolsizlantirgan edilar ... Bu hujumni Ibrohimbek tayyorlagani va Tog'ay Sariga qurolli kishilarni yordam uchun yuborgani ochiq oydin ma'lum ... Endilikda men shuni aniq bilamanki, Ibrohimbek hyech qachon Boysunga - mening huzurimga qaytib kelmaydi ... ».¹

Qizil askar qismlarining har ikki kolonnasi 1922 yil 15 iyunda hal qiluvchi hujumga o'tdilar.

Hujjatlarda yozilishicha, «15 iyunda chap kolonna qismlari Boysun, Inkabot, Rabot tevarak-atrofida chaqirim front bo'ylab hujymga o'tdi. Dushmanning qo'riqchi soqchilarini uloqtirib tashlab, soat 8 bilan 9 orasida Kofirun, Sariqamish, Pulhokimdagi front bo'ylab hujumga o'tildi. Dushman Tangimush darasiga qisib qo'yilgach, sharq tomon burildi. Dushman talafoti: 200 kishi o'ldirildi, 20 kishi asir olindi. Bulardan tashqari 200 bosh qoramol, 37 tuya va Anvarning shaxsiy buyumlari qo'lga tushirildi.

Anvar Posho va Botmon Tuqsabolarning 2000 kishilik guruhi Denovda joylashgan

16 iyun tongotarda 8-otliqlar brigadasi Bandixondagi tog' darasi orqali Jarqurg'onga yetib oldi. 17 iyun ertalab 1-otliqlar brigadasi Denov Yurchi, Sariosiyoni egallashdi. O'sha kunning oxirida bu joyga piyoda askarlar ham kirib keldi ...

18 iyunda o'ng kolonna qismlari Bishkentni egallashdi. Uch yuz kishidan iborat dushman Qabodiyonga chekindi. Dushmanning ko'rgan talafoti: 12 kishi o'ldirildi, 4 kishi asir olindi. Besh-Temur kechuvi (jangsiz) ishg'ol qilindi, 19 iyun kechqurun u yerga o'ng kolonnaning o'ng otryadi hamda o'ng kolonna so'l otryadining bir qismi yetib keldi.

12-otliqlar polkining 2-bataloni Denovga yetib keldi. O'ng kolonna qismlari Qabodiyon va Ayvojni egallashdi. Anvar Posho 24 iyunga o'tar kechasi Darband

¹ Ўша китоб....106 бет

atrofida o'zining 3000 kishilik qo'shini bilan bo'lg'usi general Kakurinning 8000 kishilik yaxshi qurollangan sovet diviziyasiga qarshi hujum qildi va u tor-mor qilindi.

Xullas, Anvar Poshoning qizil askarlarga qarshi 15 iyunda Kofirunda hal qiluvchi zarba tayyorlashga urinishi amalga oshmadi. Iyun oyining ikkinchi yarmi va iyul oyining boshlarida son va sifat jihatidan ustunlikka ega bo'lgan qizil askarlar istiqloлчаilarni mag'lubiyatga uchrata boshladi. Anvar Posho Afg'oniston harbiy vaziriga yozgan maktubida uning qo'shinlarida patron yetishmaganligi, ruslarning quroli ularnikiga nisbatan sifatliroq ekanligi jang taqdirining hal qilganligini ta'kidlaydi. Bu paytda Dushanbe atrofida turgan Ibrohimbek Anvar Poshoga hech qanday amaliy yordam ko'rsatmadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Anvar Posho o'z kuchlarini to'plab, 29 iyunda Regar-Koratog' yo'nalishida qizil askarlarga qarshi hujumga o'tdi. Afsuski, ularning bu hujumi ham qaytarilib, o'z navbatida qizil armiya jangchilari yalpi ravishda qarshi hujumga o'tdi. Istiqloлчаilarning asosiy kuchlari Regardan Hisorga chekinishga majbur bo'ldi.

«2 iyulda shiddatli janglar bilan Kopatog', Hisor, Chimqo'rg'on, Xo'ja Chaqmoq, Regarni chap kolonna qismlari egallashdi. Anvar Poshoning asosiy kuchlari Oq Machitga chekindilar ... ».

3 iyulda qizil askarlar Jilliko'lni bosib olishgan bo'lsa, 4 iyulda ular shiddatli janglar natijasida va istiqloлчаilarning qattiq qarshiliklaridan keyin Qo'pg'ontepa shahrini egallashdi.

O'z harbiy mahoratiga ishongan Anvar Posho istiqloлчаilarning kuchlarini to'plab, yana qizil askarlarga qarshi hujumga o'tdi. 8 iyul kuni 500 kishidan iborat istiqloлчаilar guruhi Qoratog'dan 8 chaqirim sharqda joylashgan Ilyaka qishlog'idan qizil askarlarni surib chiqarishdi. Bu g'alabadan ruhlangan 700 kishilik istiqloлчаilar guruhi Turaqal'a qishlog'ida joylashgan 5-o'qchi polkining batalonlariga hujum qilishdi. Tang ahvolga tushib qolgan qizil askarlarga yordamchi kuchlar kelib qo'shilgach va kuchli artilleriya zarbasidan so'ng, muxolifatchilar janubi-sharq tomonga chekindilar.

Qo'rg'ontepadan 30 chaqirim shimoli-sharqda joylashgan Cangto'da qishlog'i atrofida keskin janglar qizib ketdi. 13 iyulda qizil armiyaning 15-otliqlar polki dastlab Sangto'da qishlog'ini bosib oldi. Anvar Poshoning 500 kishidan iborat qo'shini bu yerdagi tuqnashuvda 50 kishidan ajralib, shimol tomonga chekindi. Ibrohimbek va Doniyolbekdan madad kuchi yetib kelgach, Anvar Posho 1500 kishilik qo'shin bilan 14 iyulda Sangto'dani ozod qilish uchun hujum boshladi. Ba'zi manbalarda Anvar Posho ixtiyorida bu paytda 5000 jangchi borligi ko'rsatilgan. Lekin keyingi voqyealar bu mikdor oshirib ko'rsatilganligini isbotladi. Anvar Poshoning Sangto'da qishlog'ini qaytadan egallash uchun qilgan harakatlari samara bermadi. Bu jangda u yana 50 kishidan ajraldi va Sangto'dadan chekindi.

Dushanbe atrofida ham bu paytda janglar qizib ketgan edi. Istiqlolchilar bilan qizil askarlar o'rtasida qattiq janglar bo'ldi. Dushanbe himoyachilari bu jangda 170 kishi yo'qotdilar. 1-otliqlar brigadasi jangchilari 14 iyul kuni Dushanbe shahrini bosib olishdi. 17 iyulda ular Kulobni egallashdi. Dushanbe shahri roppa-rosa 5 oy davomida istiqlochlilar qo'l ostida turgan edi.

Ancha muhim g'alabalarni qo'lga kiritgan qizil armiya jangchilari Anvar Poshoga so'nggi zarbani Baljuvon atrofida berish uchun o'z kuchlarini bu yerda tuplashdi. Anvar Posho ham bu hayot-mamot jangiga zur berib tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lekin uning imkoniyati ham, qurollangan qo'shinining miqdori ham cheklangan edi. Qizil askarlarga esa Toshkent va Rossiya markazidan tobora yangi kuchlar hamda, xarbiy bo'linmalar kelib qo'shildilar. Bosqinchilar qo'shini zamonaviy jang qurollari bilan tish-tirnog'igacha qurollangan edi.

Baljuvon uchun shiddatli janglar uch kun davom etdi. Xujjatlarda yozilishicha, «19 iyulda 15-otliqlar polkining ikki eskadroni oltita pulemyotning tinimsiz o'q yomg'iri yordamida shiddatli janglardan so'ng, Xonobod qishlog'i tomondan Baljuvon shahrining atroflarini egallashdi, 15-otliqlar polkining divizioni bo'lsa kech soat 20 da qiyin janglardan so'ng, qal'a va shaharning qolgan qismini hamda shaharga olib boruvchi Qizilsuv daryosining chap qirg'og'ini egallashdi. 600-700 kishidan kam bo'lmagan dushman kuchlari Qizilsuv daryosining o'ng qirg'og'iga

o'tib olishdi hamda Xonobod qishlog'i va Baljuvon o'rtasida mustahkam o'rnashdilar».¹

Baljuvonni egallash uchun 15-otliqlar polkining kuchlari kamlik qilgandan keyin Bogdanov qo'mondonligidagi 16-otliqlar polki ham bu yerga tashlandi. Katta miqdordagi qizil askar qismlarining siquvidan so'ngra Anvar Posho Baljuvon atrofidagi Obi Dara qishlog'iga chekindi. Qizil askarlar 20 iyulda Baljuvonni butunlay bosib olishdi.

27 iyulda Xonobod qishlog'idan sharq tomonda 1500 kishilik istiqloлчаshir qo'shini bilan qizil armiyaning o'ng kolonna jangchilari o'rtasida qatgiq to'qnashuv bo'ldi. 15-otliqlar polkining 3-eskadroni va 16-otliqlar polkining 1-eskadroni jangchilari 8 ta pulemyot va to'plar o'qi ostida hamkorlikda hujumga o'tsalar-da, istiqloлчаshir ularning qarshiligini sindirib, orqaga uloqtirib tashladilar. O'sha kuni kechqurun qizil askarlar Xonobodni tashlab, qochishdi.

29 iyulda qizil askarlarga madad kuchlari kelib qo'shilgach, ular Xonobod tomon qaytadan hujum boshlashdi. Istiqloлчаshir jang qilgan holda sharq shimoli-sharq va janubi-sharq yo'nalishlariga tomon chekindilar. «5-o'qchi polk qismlari tomonidan Kuktosh qishlog'i (Hisordan 17 chaqirim sharqda) egallandi». Bu paytda Ibohimbek qo'rboshining 400 kishilik qo'shini, Fayzoboddan 15 chaqirim janubi-sharqda joylashgan Zardolu dovonida edi. Qizil askarlar bilan bo'lgan jangdan so'ng u ham Yavon qishlog'i tarafga chekindi.

Afg'oniston amiri Omonullaxon Anvar Poshoni muhofoza qilish uchun Afdoliddin boshchiligida 300 askar jo'natgan edi. Ular Boysun safarida ham birga bo'lgan edilar. Ahmad Zaki Validiyning yozishicha, Posho chekinib, Baljuvon bilan Kulob orasidagi Gevrekli degan joyga kelgach, Omonullaxondan bir maktub kelgan. Bu xatda u Poshoni yana bir bor Afg'onistonga kelishga da'vat etib «Senga millatimizning bag'ri, yurtimizning darvozasi ochiq), deb yozgan. Biroq Anvar Posho afg'on askariy qismining rahbari Afdoliddinni huzuriga chaqirib: «Sizning bu yerdagi vazifangiz tugadi, yurtingizga qayting), deb buyurgan va Omonullaxonga xat yozgan: «Men qat'iy shu yerda qolaman. O'lsam,

¹ Шамсутдинов Р. Каримов Ш. Ватан тарихи. Т.: 2010. 147-149 бетлар

dustlarimning yurtida ustimga tortiladigan tuproq topilar. Bu yerdan ketish katta xato bo'lur. Askarlaringizga qaytishga ruxsat berdim».

Anvar Posho ixtiyorida turgan Eshon Sulton ham o'z qo'shinlarini g'arbga - vatani bo'lgan Darvoz tomonga olib ketish uchun undan ruxsat so'raydi. Anvar Posho qo'l ostida juda kam mikdorda qo'shin qoldi. Faqat jasur Davlatmandbek va yigitlari Anvar Poshoning oxirgi nafasigacha uning huzurida qolishdi.

1922 yil 4 avgust juma kuni musulmonlarning Qurbon Hayitiga to'g'ri keldi. Bu sana 1345 hijriy yili zulhijja oyining o'ninchi kuni edi. Bu paytda Anvar Posho o'zining kam sonli otryadi bilan Baljuvondan 12 chaqirim shimoliy-sharkda joylashgan Obi Dara qishlog'ida edi. Qurbon Haiiti namoz o'qilgandan so'ng, Anvar Posho o'zining eng sodiq safdoshlariga qarata qisqacha va'z aytdi. Ushbu va'z uning erk va istiqlo'l kurashchilarira qilgan so'nggi da'vati va siyosiy vasiyati bo'lib qoldi. Mana o'sha so'zlar: «Men sizlarga hozir hayitlik tarqata olmayman. Agap bizlarning qardoshligimiz haqida bir necha og'iz so'zlar bitilsa, men unga o'z muhrimni qo'yib bajonidil imzo chekardim. Men o'ylaymanki, bu so'zlar bizning ozodlik uchun olib borayotgan milliy kurashimizdagi harbiy qardoshlik haqida bir ajoyib xotira bo'lib qolardi.

Moskvadan maxsus Buxoroga jo'natilgan OGPUning Sharq bo'limi mudiri kavkazlik arman I.G.Agabekovning chekistlari bu paytda Anvar Posho turgan joydan xabar topib, bu manzilni qizil armiya qo'mondonligiga ma'lum qilishgan edi. Obi Dara qishlog'i chor atrofdan qizil askarlar bilan qurshab olindi. 8-otliqlar brigadasi 15-16, 18-otliqlar polki, ko'plab otliq eskadronlar Obi Darada joylashgan Anvar Posho yigitlari ustiga qo'qqisdan tashlandi.

Hujum kuni sifatida aynan musulmonlarning muqaddas bayrami - Qurbon Hayiti kuni bejiz tanlanmagan edi. O'sha kungi jang harakatlari qizil askarlarning arxivlarda saqlanib qolgan operativ ma'lumotlarida quyidagicha tasvirlanadi: «4 avgustda 8-otliqlar brigadasi Baljuvon - Xovaling o'rtasida joylashgan Anvar Poshoning asosiy kuchlariga qarshi hujumga o'tdi. 16-otliqlar peshkinining 3-eskadroni 500 kishilik kuch bilan Obi Dara qishlog'i (Baljuvondan 12 chaqirim shimoli-sharkda) atrofidagi dushman zarbdor kuchlariga hujum qildi. Anvar

o'zining saralangan 100 ta jangchisini olib, 18-otliqlar polkining 1-eskadroni ustiga tashlandi va uni yanchib tashladi. Ammo 3-eskadron jangchilari bilan qo'l jangiga kirirshgan Anvar Posho besh joyidan jarohatlantirib, o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng, dushman jasadni olishga ham ulgurmay, shimoliy tomondagi toqqa chekindi. Jasad tintuv qilinganda Anvar Posho nomiga uning rafiqasi tomonidan yozilgan xatlar, uchta muhr (muhrlarning ikkitasi. Anvarning shaxsan o'ziga tegishli edi) va revolver topildi. Mahalliy aholining fikriga qaraganda, xuddi shu jangda og'ir yarador qilingan Davlatmandbek jang maydonidan olib chiqilgach, oradan ikki soat o'tgach o'lgan.»

Anvar Posho o'sha kuni bo'lgan so'nggi muhorabasida shamshri bilan o'n bir o'ris askarini o'ldirdi. O'sha davrda Turkistonda bo'lgan Ahmad Zaki Validiyning keyinchalik yozishicha, «Posho Chekenda ruslarga qarshi qahramonona jang qildi, lekin qo'rqib chekinayotgan rus askarining o'qiga uchdi. Posho askarlari tarqab ketdi, ammo Doniyolbek bilan Foruhbek butun kuchlarni yangidan to'plab, ruslarni o'rab olib, ularning Chekengacha kelib etgan batalonini deyarli butunlay yo'q qilib tashladilar. Mustafo Shahqulining fikricha, ruslar Poshoni kimning o'qi o'ldirganligini ham, o'lgan kishi kimligini ham bilmaganlar. O'sha vaqtda Posho yonida bo'lib, hozir Turkiyada yashayotgan Mirza Muhitdin bilan Mirza Nafas Turkmanning aytishicha, marxumning Posho ekanligidan bexabar tojiklar, uning kiyimlarini yechib, sallasidan kafan tikib, dafn qilganlar. Poshoning kiyimlari bilan ba'zi qog'ozlari bir ozdan keyin tojiklar orqali rus ayg'oqchilari qo'lga tushgan bo'lsa kerak».¹

Validiyning bu mulohazalarida jon bor, albatga. Biz yuqorida keltirgan arxiv xujjati Anvar Poshoning o'limidan ancha keyin - 15 avgustda yozilgan bo'lib, ertasi kuni - 16 avgustda Buxoro telegraf agentligi tomonidan chiqarilgan shoshilinch (ta'kid bizniki - Q.R.) xabarnomada rasmiy ravishda birinchi marta uning o'limi e'lon qilindi. «Krasnaya zvezda» gazetasining 15 avgust sonida ham bu haqda qisqa axborot bosildi. O'n kundan ziyod muddat ichida son-sanoqsiz chekistlar va boshqa ayg'oqchilar yordamida olingan ma'lumotlar asosida, nihoyat,

¹ Ўзбекистон тарихи. (1917-1993 йиллар) Илмий муҳаррир А.Асқаров. – Т.: 1994.-32 бет

sovet qo'mondonligi Anvar Posho Baljuvon yaqinida o'ldirilganligiga ishonch hosil qildi. Holbuki, sovet xukumati bu xabarni qanchalik «intiq» kutganligi sir bo'lmasa kerak. Poshoning jasad-i qizil askarlar qo'liga tushganligi tug'risidagi xabar ham uydirmadir. Anvar Poshoning Baljuvon atrofida 25000 kishidan ortiq butun turkistonlik musulmonlar ishtirokida dafn qilinishi, uning o'limiga bag'ishlab, motam marsiyalari yozilishi (Cho'lponning mashhur «Baljuvon» marsiyasini eslang), fikrimizning yaqqol dalilidir. Buxoro istiqloлчаilar tomonidan mamlakatda milliy motam tutildi. Afg'onistonda ham shu fojia to'g'risidagi xabar olingach, motam e'lon qilindi. Poshoning turli shaxsiy buyumlari, yaqinlariga yozgan ko'plab maktublari josuslar va razvedkachilar orqali sovet qo'mondonligi qo'liga tushganligiga kelsak, bu endi butunlay boshqa bir masaladir.

Anvar Posho Turkiston mustaqilligi uchun kurashda halok bo'ldi. Anvar Posho o'limidan bir muncha oldin Boysunda turgan qizil askarlarning boshlig'i O.Akchuringa yozgan maktubida Turkiston unga begona emasligini, uning ajdodlari Turkistondan borib, Turkiyada saltanat qurganliklarini, aksincha, boshqalar uchun bu yurt begona ekanligini quyidagicha ta'kidlagan edi: «Bu insonlarning tomirida oqayotgan qon xuddi meniki kabi sof turkiy qondir. Bu yer ruslarning emas, balki turkiy xalqlarning asl yurtidir».

Shunday qilib, 1922 yil avgustda Buxorodagi istiqloлчаilik harakatining ikkinchi bosqichi tugadi. Ushbu bosqichda vatanparvarlar Ota yurt uchun qahramonlarcha jangqildilar. Sharqiy va G'arbiy Buxorodagi istiqloлчаilar yagona qo'mondonlik ostida harakat qilishga urindilar. Agar ularning kuchlari o'zaro birlashganda edi, ehtimol, Buxorodagi sovet hokimiyatiga xotima berilishi mumkin bo'lardi. Anvar Poshoning o'limidan keyin istiqloлчаilar yirik jang harakatlarini o'tkaza olishmadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, 1922 yil kuz-qish faslida ham G'arbiy va Sharqiy Buxoroda keskin janglar aslo pasaymadi.¹

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,100-101 бетлар

II bob. Buxoro qo'rboshilari va sovetlarga qarshi harakatning ahvoli

II.1. Harakatning keyingi rivojlanish bosqichlari (1922-1924yy) G'arbiy Buxoroda Mulla Abduqahhor boshchiligidagi harakat.

1922 yil avgust oyi oxirlarida Qobulda Buxoroning sobiq amiri Said Olimxon turkistonlik muhojirlarning katta qurultoyini chaqirdi. Unda Afg'onistondan tashqari Buxoro va Turkiyadan kelgan vakillar ham ishtirok qildi. Afg'onistondan Muhammadxon Eshong'ozi; Toshkentdan Kuzur Qozi, Azim Afandi; Farg'onadan Qori Afandi va yana 4 kishi; Buxorodan Usmon Xo'ja, Orif Hamid turkmanlardan Qulmuhammadbek (M. Qulmuhamedov) va amir nomidan Abdul Hakim kabi vakillar qatnashdilar. Anvar Poshoning o'limidan keyin Buxoro va butun Turkistonda yuzaga kelgan vaziyat muhokama qilindi. Buxorodagi istiqloлчаilarga amaliy yordam berish choralari haqida kelishib olindi. Turkistondagi turli qo'rboshi guruhlarini birlashtirish va joylarga vakillar hamda maslahatchilar yuborish masalalari hal qilindi. Halok bo'lgan Anvar Posho o'rniga (Buxoroda uning yordamchisi bo'lib yurgan va hozir Afg'onistonda turgan) turk zobiti Hoji Somiy Afandi - Salim Posho Oliy bosh qo'mondon qilib tayinlandi hamda ynra Posho (general) unvoni berildi. Salim Posho boshchiligida Turkistondagi istiqloлчаilarning yalpi xujumini 1923 yil bahorida boshlash rejalashtirildi.

1922 yil kuzida G'arbiy Buxoroda istiqloлчаilar bilan qizil askarlar o'rtasidagi janglar qizib ketdi. Karmana viloyati ijroiya qo'mitasi raisining 1922 yil 9 sentyabrda yozgan ma'ruzasida aytilishicha, Xatirchidagi istiqloлчаilarga Bobo Muhammad Alim, Hasan Amin Tuqsabo, Jo'raqul Miroxo'r, Shamsutdin Hoji Miroxo'r, Jumaqul, Shomurod kabi qo'rboshilar boshchilik qilishgan. Bu dastalarning 400 kishidan iborat qo'shini Chingir Bozorda o'rnashgan bo'lib, ularga Samarqanddan Hamdamcha boshchiligidagi 90 kishilik dasta kelib qo'shilgan. «Hozirgi vaqtda bosmachilar bir qancha qishloqlarda o'z amlodkorlarini tayinlashdi»,- deb joylarda sovet hokimiyati tugatilib, uning o'rniga qo'rboshilar o'z boshqaruvini joriy qilganligi ushbu ma'ruzada e'tirof etiladi.

Xatirchidan tashqari yana Karmana atroflari va butun Nurota istiqloolchilar qo'lida edi.

Hozirgi Buxoro viloyatining Shofirkon, G'ijduvon, Vobkent tumanlari jang harakatlari eng faollashgan joylar edi. Qizilqum cho'llarida joylashgan Tikay quduq, Mulla quduq, Og'itma va qayroqli Otada Mulla Abdulqahhor boshchiligida bir necha ming istiqloolchi bor edi. Buxoro gruppasi qo'shinlarining 1922 yil 12 sentyabrdagi operativ ma'lumotlarda aytilishicha, Buxoro jang uchastkasida «31--otliqlar brigadasi qo'shin qo'mondonining o'rinbosari Gaaze boshchiligida 10 sentyabr soat 21 da Vardonzedan (Shofirkondan o'n chaqirim sharqda) Tikay quduq qishlog'i tomonga qarab, Mulla Abdulqahhor dastasini tugatish uchun yo'lga chikdi. 11 sentyabr soat 5 dan 10 minut o'tganda Tikay quduq qishlog'ida (Shofirkondan 16 chaqirim shimolda) hayit Aminning 150 kishilik dastasiga hujum qilindi va u yakson etildi. Jangda 120 bosmachi o'ldirildi, o'lganlar orasida 3 afg'on, Abdulqahhorning asosiy o'rinbosari - Abdusattor, hayit Aminning o'g'li bor edi, shuningdek, Bo'zchi Botir qo'rboshi va 6 bosmachi asirga olindi. Mulla Abdulqahhorning o'zi esa dastada yo'q ekan. Jangda Gaaze o'ldirildi.

O'sha kuni 31--otliqlar brigadasi Vardonze qishlog'iga qaytdi».

Tikay quduqdagi janglarda qizil askarlar bilan bir safda turib, o'z yurtdoshlariga qarshi kurashgan Vobkent inqilob qo'mitasi (revkom)ning raisi Abdug'ani Nabiyeu o'z esdaliklarida ushbu hodisani batafsil hikoya qiladi. Uning aytishicha, bu jangda Abdusattor Tuqsabo, Bozor Amin, Shobek kabi shofirkonlik qo'rboshilar holok bo'lgan.¹

Ochiq kurashda vatanparvarlarni aytarli mag'lubiyatga uchrata olmagan qizilar endi malp-hiylani ishga solib, qo'rboshnlarni taslim bo'lishiga undashadi. Biroq ularning yolg'on va'dalariga uchmagan hayit Amin bu fikrni qat'iy rad etadi. Buning ustiga Tikay quduqda bo'lgan jangda o'ning o'g'li o'ldirilgan bo'lib, hayit Aminning yuragida qasos o'ti yonardi. U dushmandan intiqom olish uchun qurbon bo'lishiga ham tayyor edi. Yuzma-yuz kurashda uni yenga olmagan qizil askarlar hayit Aminni makkorlik bilan yo'qotish yo'lini o'ylab topishdi. Buning ychyn

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,102-103 бетлар

sopini o'zidan chiqarishga harakat qilindi. O'z xohishi bilan taslim bo'lgan Ismoil Tuqsabo ishga solindi. Ismoilga besh kun muhlat ichida Xayit Amin qo'rboshining o'ligi yoki tirigini keltirish vazifasi yuklatildi. shundan so'ng unga afv (amnistiya) qog'ozi beriladigan bo'ldi.

Ismoil Tuqsabo o'z yigitlaridan bir necha kishini Qozoq nozir boshchiligida hayit Aminni qo'lga tushirish uchun jo'natdi. Bular hayit Aminni Xazornur ziyoratgahidan topdilar. Unga Ismoil Tuqsaboning sotqinligidan shikoyat qilib, bir umr hayit Amin bilan birga bo'lishiga qaror qilganliklarini aytishdi. Hayit Amin hyech bir ikkilanmasdan ularni o'z yigitlari qatoriga oldi. Hayit Aminning ishonchini qozongan Qozoq nozir qulay payt kelishini kutadi. Nihoyat, bir kuni tushlik namozi tugab, qo'l fотиha o'qish uchun yuzga olib borilganda, qozoq nozir Hayit Aminning qoq peshonasidan otadi. Uning tahlikaga tushgan 6 yigiti esa qurolsizlantirilib, qo'llari bog'lanadi. Hayit Amin ana shunday xiyonat va razillikning qurboni bo'ldi.

Xiyonat va turli xil sotqinliklar Buxorodagi, umuman olganda, butun Turkiston mintaqasidagi istiqloлчаilik harakatining keyinchalik mag'lubiyatga uchrashida mash'um o'rin tutadi. Afsuski, shimoldan kelgan bosqinchilar bilan ayrim yurtdoshlarimiz «til topishib», o'z Vatani va xalqiga nisbatan xoinlik qildi. Shuningdek, yangi to'zum siyosatini qo'llab-quvvatlovchi tabaqalar faoliyati kuchayib borganligini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Tikay quduq fojiasidan keyin kup o'tmay - 13 sentyabrda Vardonze atrofida 31- otliqlar brigadasi, uchar otryad va Buxoro otliqlar divizioni Chandir qishlog'iga (Shofirkondan 8 chaqirim shimoli-sharkda) hamda 6-otliqlar polki Savrak qishlog'iga (Shofirkondan 1 chaqirim sharkda) kelib joylashdi.

Shofirkondagi ushbu qattiq janglar natijasida ham qizil askarlar bu yerda tuliq ustunlikka erisha olmaydi. Buxoro respublikasi Ichki ishlar xalq noziri Muxtor Saidjonovning Buxoro gruppа qo'shinlari inqilobiy harbiy kengashi nomiga 1922 yil 16 sentyabrda yozgan raportida aytilishicha, «Ichki ishlar xalq noziriligiga Shofirkon kentidan kelgan ma'lumotlarga qaraganda, u yerda garnizon mutlaqo yo'q. Ichki ishlar xalq nozirligi u joyga garnizon yuborishingizni qat'iyat bilan so'raydi».

Chunki Shofirkon tumanidagi Xo'ja Orif, Talisafed, Vardonze qishloqarida joylashtirilgan qizil askarlarning garnizonlari istiqlochlilar tomonidan qirib tashlangan edi.

Zandani kenti ijroiya qo'mitasi raisining 1922 yil 19 sentyabrdagi ma'ruzasida yozilishicha, «Bosmachilarning boshliqlari Murod Meshkob va Ostons qorovulbegi Xo'ja Porso qishlog'ida daraxtlarni kesib masjid qurdirmoqdalar, masjidning atrofi taxminan 4 tanobdan iborat bo'lib, unda istehkomlar ham barpo qilinmokda».

Boshqa bir hujjatda qyyidagi gaplar yozilgan edi: «Vobkent tumanida tartibsizliklar yuz berib turganligi uchun Shofirkon va Zandaniga qyrolli kuchlar yuboring».

Yana boshqa bir xujjatda keltirilishicha, «20 sentyabrda maxsus vazifalarni bajaruvchi eskadron Chandir qishlog'ida Shofirkondan 8 chaqirim shimoli-sharqda) bitta bosmachini o'ldirdi, ikkita otni o'lja oldi». «2 oktyabrda maxsus vazifalarni vajaruvchi eskadron Vobkentdan yo'lga chiqib, Xo'ja Orifgacha bo'lgan hududni tekshirib chikdi, 10-otliqlar polki o'z eskadronlarini Xo'ja Kalishon, Chandir va Mir qishloqlarida joylashtirdi».¹

1922 yil 20 sentyabrda Eski Buxoro shahriga - Buxoro Chekasi nomiga yuborilgan telegrammada yozilishicha «300 kishi mikdoridagi bosmachilar Kitobni qyrshab olishdi. Ulardan 200 kishi shaharga kirdi. Bizning qo'shinlar tomonidan ular shahardan siqib chiqarildi. Hozirgi vaqtda bosmachilar Kitob atrofida istehkomlar qyrib, o'rnashib oldilar». Xuddi shu kunlarda Qashqadaryo vohasidagi istiqlochlilar Kosonga ham hujum qilishgan edi.

Buxoro qo'rboshilari o'rtasida o'z jasurligi bilan Hamro Polvon (1892-1941) alohida ajralib turardi. U amirlik davrida kuragi yer iskamagan mashhur polvon bo'lgan. Hamro Polvon asosan Romitan tumanida o'z faoliyatini kuchaytirdi.

Bu paytda Buxoro viloyatida Mulla Abdulqahhor boshchiligida Jura Amin Ostons Qorovulbegi, Murod Meshkob, Metan Polvon, O'rmon Polvon, Said Mansur, Hamro Polvon kabi qo'rboshilar faoliyat yuritayotgan edi. Murod

¹ Ўша китоб.....104-105 бетлар.

Meshkob asosan Peshku va Romiton tumanlarida harakat qilardi. U Zandani qishlog'idan 16 chaqirim g'arbda joylashgan Xo'ja Porso qishlog'ida o'zi qyrdigan istehkom yordamida qizil askarlar hujumini anchagacha qaytardi. Mikdor jihatdan ustunlikka ega bo'lgan qizil askarlar istiqlochlilarni baribir u yerdan surib chiqarishdi. Bu jangda istiqlochlilar jami 26 kishini yuqotishdi, 3 va-tanparvar esa asir olindi.

1922 yil oktyabr-noyabr oylarida G'arbiy Buxorodagi istiqlochlilar qo'shini o'z hujumlari bilan qizil askarlarni tahlikaga solib quydi. 14 oktyabrda Murod Meshkob, Oston Qorovulbegi, Said Mansur kabi qo'rboshilar boshchiligidagi 200 suvoriy Shofirkon tumanidagi Eshonlar qishlog'ida 17-otliqlar polkining 3-eskadroni askarlari bilan jangga kirishdi. istiqlochlilar qizil askarlarni kuchli o'q yomg'iri bilan qarshi oldilar. «Dushmanning qattiq qarshiligiga qaramasdan eskadron jangchilari ularni qishlokdan surib chiqardi va qishloq kuchalariga bostirib kirdi. Chandir qishlog'i orqali mujohidlar qumlik ichiga kirib ketdilar. Jang natijasida ular o'lganlar va chopib tashlanganlar bo'lib, 53 kishi va bitta qo'rboshini yuqotishdi.»- deb qizil armiya qo'mondonligi o'z ma'lumotnomasida yozgan edi.

Bu yerda jangga kirishgan qizil askarlarning 3-eskadroni Shofirkon markazi - Xo'ja Orif qishlog'idagi garnizonda o'rnashgan edi. Ular Dog'boni, Kag'at, Qatag'on va Eshonlar qishlog'ida «tartib» o'rnatgach, o'z manzillariga qaytdilar.

Qo'rboshilar esa qat'iyat bilan kurashni davom etgirishar edi. 9 noyabrda Qo'shxo'na qishlog'idan (Galaosiyo atrofida) yo'lga chiqqan Azim Xo'janing 100 kishilik dastasi Galaosiyo qasavasi va Buxoro shahri tevaragidagi amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossada joylashgan qizil askarlar garnizoniga xujum qilmoqchi bo'lishdi. Sitorai Mohi Xossaga yaqin joyda bo'lgan to'qnashuvda qizil askarlarning qo'li baland keldi. Jangda Azim Xo'ja qo'rboshining yordamchisi Fayzulla Polvon va 15 askar o'ldirildi. Istiqlochlilar jang bilan orqaga chekindilar.

G'arbiy Buxorodagi istiqlochlilik harakatini yanada faollashtirish maqsadida bu yerga Said Olimxon Sharqiy Buxoro orqali o'z vakillarini yubordi. Uning ana shunday vakillaridan biri oldin ham eslatib o'tganimiz Hoji Latif Devon begi edi.

Bu paytda Buxoro respublikasining sobiq harbiy vaziri A.Oripov ham 35 kishi ko'zatuvida Sharqiy Buxoro orqali Mulla Abdulqahhorning qarorgohi - Nurotaga keldi. Arxiv xujjatlarida keltirilishicha, Buxoro va Karmana viloyatlaridagi istiqloлчаlar tepasida Mulla Abdulqahhor, Hoji Latif Devonbegi, O'rmon Polvon va Metan Polvonlar turishar edi.

Buxoro Xalq Respublikasi Nozirlar Sho'rosining raisi nomiga 1922 yil 12 noyabrda yuborilgan «mutlaqo maxfiy» ma'lumotda aytilishicha, «Abdulqahhor qo'shinida Sharqiy Buxoro va Afg'onistondan kelgan qandaydir turk Afandi va Abdurahmon qori bor. Ular oktyabr oyining oxirida G'arbiy Buxoroda bosmachi gurhlari tashkil qilish uchun bu yerga kelishgan edi, shuningdek, Abdulqahhorni butun G'arbiy Buxorodagi mujohidlarning Oliy bosh qo'mondoni qilib tayinlanganligi haqidagi buyruqni ham olib kelishgan edi. Oktyabr oyining so'nggi kunlarida Nurotadan 30-35 chaqirim janubi-sharqda joylashgan Chuya qishlog'idagi Musafu Hayitbek qo'rboshining dastasi oltinchi gypuh bo'lib, Abdulqahhor ixtiyoriga o'tdi».

Buxoro Nozirlar Shurosining raisi nomiga 1922 yil 10 dekabrda jo'natilgan boshqa bir «mutlaqo maxfiy» hujjatda Buxoro respublikasi hududida 1922 yil noyabr oyida harakat qilayotgan istiqloлча kuchlarining qisqacha sharhi beriladi:¹

«Buxoro - Karmana rayoni (9-15 noyabrda): 10 va 11 noyabrda qizil otliqlar tomonidan Ostoncha dastasiga jiddiy talafot yetkazildi. U o'zining 200 ta yigiti bilan Vobkentdan 6 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan edi. Berilgan zarbalar natijasida Ostoncha o'zining 50 kishisidan ajralib, shimoliy va shimoli-g'arbiy tomonlarga qarab chekindi.

14 noyabrdagi razvedka ma'lumotlariga qaraganda, Ostoncha Abdulqahhor va Metan Polvon dastalari bilan birgalikda yana Vobkent tumanida paydo bo'ldi».

Oston Qorovulbegi (Ostoncha) Mulla Abdulqahhorning eng nufuzli qo'rboshilaridan biri edi. Asli Shofirkon tumanining Chitgaron qishlog'idan bo'lgan bu qo'rboshiga jasurligi uchun Mulla Abdulqahhor tomonidan «qorovulbegi» unvoni berildi. «Oston Qorovulbegi 46 yoshda bo'lib, o'rta buyli, qisq

¹ Ўша китоб....106-107 бетлар

ko'zli va qora soqolli kishi edi». Ma'lumki, u uch kun davomida (10-12 noyabr) Shofirkon tumani markazi - Xo'ja Orif hamda Chandir qishlog'ida qizil askarlarga qarshi mardonavor kurash olib borgan edi. O'sha janglarda ko'krigidan o'q yeb og'ir yarador bo'lgan Oston Qorovulbegi jaroxati to'zalgach, bu gal o'zining asosiy zarbasini Buxoro viloyatidagi Vobkent shahpiga qaratdi.¹

Arxiv xujjatlarining birida yozilishicha, «5 dekabr soat 15 da Oston Qorovulbegi va Said Mansur, Murod Meshkob, Ergash Murdasho'y kabi qo'rboshilarning o'zaro hamkorligida Vobkent shahpi egallandi. Vobkent qal'asi garnizoni jangchilari bilan urush ikki soat davom etdi». Bu jangda Metan Polvon ham o'z yigitlari bilan qatnashdi.

Oston Qorovulbegi boshchiligidagi vatanparvarlar Vobkent qal'asidagi garnizonga yordamga yetib kelgan otliqlar polkining jangchilarini bozor maydoni oldida qurshab olib, ularni qirib tashlashdi. Qurshovdan qutulgan bir necha qizil askarni istiqloлчаilar Vobkentdan 5 chaqirim o'zoqlikdagi Saripul qishlog'igacha quvib keldilar. Vobkent shahri qisqa muddat ichida istiqloлчаilar qo'liga butunlay o'tdi. Lekin ular o'z yutuqlarini mustahkamlashga ulgurmasdan, bu yerga ko'plab qizil askar qismlari keltirildi. Dushmanga nisbatan oz sonli bo'lgan istiqloлчаilar 11 yigitidai ajralib, Chandir-Zandani yo'nalishi bo'yicha chekindilar. Said Mansur qo'l ostidagi Haydar ponsod esa qizillar qo'liga tushib qoldi.

Bu voqyealardan so'ng aston qo'rboshi Shofirkon tumanida o'z harakatlarini kuchaytirdi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, aston Qorovulbegi 9 dekabrda Vardonze, Ko'hna Vardonze, Talisafed, Said Ota, Xo'ja Orif, Chandir qishloqlarida faol harakat qila boshladi. Uning birodari bo'lgan Said Mansur qo'rboshi esa Vardonze yo'nalishidagi qo'mliklarda va Bog'iafzal qishlog'ida qizil askarlarga qarshi jangga kirishdi.

Qizil armiya jangchilari qanchalik harakat qilishmasin, baribir ular 1922 yilning oxirigacha G'arbiy Buxorodagi istiqloлчаilarga qarshi hal etuvchi zarbalar bera olishmadi. Sovet qo'mondonligi bu paytda qo'rboshilar dastalarini bir-biriga qarshi qo'yish, ularni qurolsizlantirish orqali o'zining sinalgan taktikasini amalga

¹ Ўша китоб...107 бет

oshirayotgan edi. Shuning uchun ham qurolni tashlagan istiqloлчаilar vaqtinchalik avf etildi. Lekin sovet hokimiyatining aldoviga uchib, unga taslim bo'lgan qo'rboshilar ayovsiz jazoga tortilardi. Masalan, avf umumiy berilgandan so'ng taslim bo'lgan Jabbor qo'rboshi va boshqalar aldab, qamoqqa olingan va ikkinchi kuniyoq butun Buxoro Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumining qaroriga binoan otib tashlangan edi.

Dekabr oyida Ismoil Tuqsabo ismli tajribali qo'rboshi ham 40 ta yigiti bilan rasmiy hukumat vakillariga taslim bo'ldi. 11 noyabrda yozilgan hujjatlarning birida qayd qilinishicha, «Vobkentdan 16 chaqirim shimoldagi Said Ota qishlog'ida taslim bo'lgan Ismoil Tuqsabo qo'rboshi o'zining 35 otliq yigiti bilan Buxorodan yuborilgan farmoyishga binoan Shofirkon tumanini bosmachilarning hujumidan himoya qilmoqda. Ismoil Tuqsabo amir qo'shinining sobiq polkovnigi bo'lib, razvedka otryadlari boshlig'ining ko'zaticishiga qaraganda, ishonchga sazovor. Ismoil Tuqsaboning o'rinbosari Rajabboy Amin hisoblanadi».

Ayrim qo'rboshi va yigitlarning taslim bo'lishi kurashni davom ettirayotgan boshqa istiqloлчаilarni qattiq g'azablantirdi. Buxoro viloyatida harakat qilayotgan Mulla A'zam Xoji G'oziy, Fayzullabek Tuqsabo, Xofiz Xo'ja Miroxo'r, Azimxo'ja Mo'zaffar Xo'jayev sarkarda, Rajabbek Qorovulbegi, Said Xo'ja Qorovulbegi, Solihboy Qorovulbegi va Tosh Xo'jayev kabi qo'rboshilar Zarafshon vohasidagi butun aholi va taslim bo'lgan sobiq safdoshlariga qarata 1922 yil dekabrda chiqargan murojaatlarida ularni o'z qatorlariga yana qaytishga da'vat qilishdi. Bu qo'rboshilar Zarafshon daryosining ung qirg'og'i tomon istiqloлчаilar ta'siridagi hududga keyingi haftaning shanba kunidan qolmay kelishlari ta'kidlandi. Ular mabodo orqaga qaytishmasa, xoinlarga nisbatan hech qanday shafqat qilinmasligi ham ochiq aytildi. Murojaatda ana shunday sotqin qo'rboshilardan biri Mir Boyvachchaning fojeiy taqdiri ham eslatib o'tildi.¹

Mulla Abdulqahhor qo'shinida sovetlarning ayg'oqchilari izg'ib yurardi. Ana shunday josuslardan bo'lgan bir qozoq yigiti qizil armiya qo'mondonligiga juda muhim ma'lumotlarni yetkazib turgan. Bu ma'lumotlar asosida eng yuqori davlat

¹ Ўзбекистон тарихи. Проф. Р.Ў.Муртозаева раҳбарлигида. Т.: 2003. 147-149 бетлар

muassasalari va harbiy tashkilotlar nomiga 1922 yil 14 dekabrda «mutlaqo maxfiy» tamg'asi bilan batafsil axborot tayyorlandi. Ushbu hujjatda Mulla Abdulqahhor qo'shini, uning qo'rboshilari va askar kuchlari, shaxsiy tarjimai holiga oid dalillar va boshqa muhim fikrlar keltirilganki, biz mazkur hujjatdan bir parcha keltiramiz:

«Abdulqahhor qo'shinida ushbu qo'rboshilar dasta boshliqlari edi:

1. O'rmon Polvon - 46 yoshda, Denov qishlog'ining fuqarosi.
2. Metan Polvon (Abdulqahhorning ukasi, g'ijduvonlik fuqaro).
3. Naim Polvon - bu ham Abdulqahhorning ukasi, 27 yoshda, u kukragiga o'q tegib, jarohat olgan.
4. O'rmon Polvon - 35 yoshda, Xargo'sh tumanidagi Shamba qishlog'ining fuqarosi.
5. Abdurasul Afandi - qo'qonlik bo'lib, Sharqiy Buxorodan kelgan, sal oldinroq BXSR milisiyasining sobiq boshlig'i Rizo Afandi bilan birgalikda Sharqiy Buxoroga Anvar huzuriga qochib borgan edi.
6. Shukurxo'ja - 40 yoshda bo'lib, vobkentlik fuqaro.
7. Abdulqahhorning o'zi bo'lsa 38 yoshda, g'ijduvonlik fuqaro, ikkita xotini bor, turar joyini aniqlashning iloji bo'lmayapti ...

Qo'shinda faxriy vakil sifatida sobiq amirning amaldori Latif devonbegi ham bo'lib, u 48 yoshda, Nurota shahridan bo'lib, uni 10 yigitdan iborat shaxsiy soqchilar muhofaza qiladi. Abdulqahhorning shaxsiy qo'riqchilari miqdori xam 10 yigitdan iborat bo'lib, ular safida Abdulqahhorning katta ishonchiga sazovar bo'lgan Mulla Rustam, Asqar, Mulla Tohir, Og'agul, Yodgor Xo'ja, Nasriddin, Said Polvon kabi yigitlar bor. Abdulqahhor qo'shinida shtab boshlig'i vazifasini rus tilida yomon gapiradigan o'zbek yigiti Ibrohim Mirzo bajarmokda, u turli farmoyish va shahodatnomalar yozish bilan shyg'ullanadi. Bundan oldin qo'shinning shtab boshlig'i bo'lib turk yigiti Nabixon ishlar edi, lekin u oktyabrning oxirida tarkibida bir necha afg'on bo'lgan 10 yigit bilan Xorazm respublikasiga jo'nab ketdi. ko'shinda uchta pulemyotchi bo'lib, ular Salim Polvon, Nur Muhammad va Zahriddinlardir. Salim Polvon so'nggi jangda chopib

tashlandi. qo'shindagi suvoriylar tarkibi juda yaxshi, otdagi egarlar mahalliy, ko'pchiligida xurjunlar bor, yigitlar kul rang va muhofazali choponlar, mahalliy kosiblar tayyorlagan och sariq tusdagi etiklar hamda qorako'l teridan tikilgan telpaklar kiyib olishgan. Telpaklar ustidan sallalar o'ralgan».

Jondor qishlog'i (Buxoro shahridan 16 chaqirim g'arbda) bu paytda istiqloqlarning asosiy qarorgohlaridan biri bo'lib, bu yerda Jo'ra Amin qo'rboshining dastasi o'rnashgan edi. Kizil askarlar Buxoro shahrining shunday yonboshidagi bu qishloqni bosib olish uchun ko'p o'rinsalar-da, 1922 yil dekabr oyining oxirigacha bunga muvaffaq bo'la olmagan edilar. 24 dekabr kuni 1-eskadron otliqlari qumlar orasidan, 2-eskadron jangchilari va milisiya otryadi Zarafshonning ung qirg'og'idan Jondor tomon yo'lga chiqishdi. Jo'ra Amin o'zining 70 kishilik bo'linmasini qishloqqa kiraverishda pistirmaga qo'ygan eli. Qizillarning otliq askarlari dastlabki tuqnashuvda mag'lubiyatga uchrab, orqaga qaytdilar. So'ngra yordamga yetib kelgan 3-eskadron jangchilari va polk shtabining ko'magi bilan qizil askarlar Jondorni bosib olishdi.

Aynan ushbu kunda hozirgi Vobkent tumani hududidagi Xargo'sh qishlog'ida ham istiqloqlar bilan qizil askarlar o'rtasida janglar qizib ketdi. A'zam Xoji, Tosh Murdasha'y va Naim Polvonning Xargo'sh atrofidagi Kundi va Laylak qishloqlarida joylashgan dastalari dushman bilan omonsiz olishuvga kirdi. Kizil askarlar qo'mondonligi tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarda aytilishicha, istiqloqlar «qat'iyat bilan jang qildilar, ular otliqlar safini qanotlardan aylanib o'tishdi. Kolonnalarning dushmanni yengish uchun qilgan barcha harakatlari samarasiz bo'ldi».

Lekin qizil askarlar o'z ustunliklaridan foydalanib, Buxoro viloyatidagi istiqloqlarga ancha talafot yetkazdilar. Natijada faqat 1922 yil dekabrda qizil askarlarning qonli hujumlari tufayli Buxoro atroflarida «511 kishi shahid bo'ldi, 127 kishi asir olindi. Kizillar esa 260 miltiq, 52 ta tupponcha, 11 mingdan ziyod patron, 220 ot va 1 pulemyotni o'lja qilib oldilar».

1923 yil fevral oyida Buxoro respublikasining Zarafshon rayoni (Buxoro va Karmana viloyatlari)da Jo'ra Amin (Buxoro shahridan shimoli-g'arbdagi Jondor-

Yakkatutda, 120 yigit bilan), Ostoncha - Oston Qorovulbegi (Zandanining g'arbida, 80 yigit bilan), Murod Meshkob (Xo'ja Za'faronda - Vobkentdan 35 chaqirim g'arbda, 120 yigit bilan), Said Mansur (Xatirchidan 25 chaqirim o'zokda Parmidon atrofida, 50 yigit bilan), Azim Xo'ja (Quyimozor temir yo'l bekati atrofida, 100 yigit bilan), Mulla Abdulqahhor (Nurotada, 100 yigit va 3 ta pulemyot bilan), Metan Polvon (Nurotada, 40 yigit bilan), O'rmon Polvon (Nurotada, 50 yigit bilan), Naim Polvon (G'ishti atrofida, 40 yigit bilan), Hamro Polvon (Buxoro shahridan shimoli-g'arbda, 70 yigit bilan), Tosh Murdasha'y (Kumushkentda, 30 yigit bilan) kabi qo'rboshilar harakat qilardilar.

Amudaryo buyi rayonida Ochil Sardor (Qorako'l atrofida, 45 yigit bilan), Qilich Sardor (Denov tomonida 15 yigit bilan), Rustam (Burdaliq atrofida, 15 yigit bilan), Qilich Mergan (Karkidan shimoli-sharkda, 60 yigit bilan) faoliyat yuritgan bo'lsa, Qarshi - Shahrisabz rayonida Turdi To'qsabo o'z yigitlari bilan qizil askarlarga qarshi kurash olib bormokda edi.

1923 yil boshlarida Mulla Abdulqahhor boshchiligidagi qo'rboshilar G'arbiy Buxoroda o'z xarakatlarini faollashtirdilar. Salim Posho yuborgan Hasan qo'rboshi va Murod 28 yigit bilan 24 martda bu yerga kelib, birgalikda harakat qilish rejasini unga yetkazdilar. Bu vakillar Buxoro amiri va Salim Poshoning maktubini olib kelgan edilar. Mulla Abdulqahhor Qarshi shahri orqali Salim Posho qo'shini bilan birlashish niyatida o'z yigitlarining bir qismini O'rta Buxoroga jo'natdi. Buxoro va Karmana viloyatlarining o'zida ham janglar qizib ketdi.¹

1923 yil 17 fevralda G'arbiy Buxoro qo'rboshilaridan Oston Korovulbegi, Murod Meshkob, Tosh Murdasha'y, Fayzulla Maxsum, O'rmon Polvon, Said Mansur va boshqalar Vobkentdan o'n chaqirimcha sharkda joylashgan Kumushkent qishlog'ida o'zlarining navvatdagi qurultoylariga to'planishdi. Qo'rboshilarning sardori Mulla Abdulqahhor o'sha kuni Qiziltepa va G'ijduvonda qizil askarlarning otliq bo'linmalariga qarshi jang qilayotganligi savabli qurultoyda shaxsan o'zi ishtirok qila olmay, unga ishonchli vakilini jo'natdi. Qo'rboshilar qurultoy o'tkazayotganda qishloqni bor-yo'g'i 200 yigit ximoya qilar edi. Bu

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002, 110-112 бетлар

anjumanda Mulla Abdulqahhor yuborgan vakil Salim Poshoning Sharqiy Buxorodagi faoliyati xaqida axborot bergach, bo'lg'usi jang harakatlari bilan ularni tanishtirdi.

Istiqlolchilar ko'rgan extiyot choralariga qaramay, ularning bu yig'inidan qizil armiya qo'mondonligi o'z josuslari orqali xabar topdi. To'plangan qo'rboshilarni bir zarb bilan qirib tashlash uchun katta miqdordagi harbiy kuch, hatto samolyotlar Vobkent ustiga yuborildi. Istiqlolchilar mardlarcha jang qilishdi. Vatanparvarlarga yana 450 kishi yordamga yetib kelgan bo'lsa-da, kuchlar teng emas edi. Kumushkentdan jang bilan chekingan istiqolchilarni uch chaqirim naridagi Sufidehqon qishlog'ida qizil askarlarning otliq qo'shinlari (I.Bekjonov komandirligidagi 1-Buxoro otliqlar polki) o'rab oldi. Jang takdirini oqibatda samolyotlar hal qildi. Bu qonli tuqnashuvda 44 yigit mardlarcha halok bo'ldi. Uch yildan beri qizil askarlarning dodini berib yurgan shofirkonlik Oston Qorovulbegi - Ostoncha qo'rboshi xam 17 fevralda bo'lgan ushbu jangda shahid ketdi. Bundan tashqari Vobkentdagi janglarda Turdi Ota va Shukur Xo'ja kabi qo'rboshilar ham halok bulishdi.

Mulla Abduqahhor qo'rboshi o'sha kuni 300 yigiti bilan G'ijduvondan 16 va 20 chaqirim shimoli-sharkda joylashgan hayot va Toshrobot qishloqlarida qizillarning 17-otliqlar polki 1-eskadroni jangchilariga qarshi hujumga o'tib, ularni orqaga uloqtirib tashladi. Lekin qizil askarlar Vobkentdagi g'alabadan keyin G'ijduvonga yetib kelib, bu yerdan Mulla Abdulqahhor qo'shinini surib chiqardilar. Istiqlolchilar kuchli qarshilik ko'rsatib, Tog'ustepa (To'qqiztepa - Q.R.) qishlog'i yo'nalishidagi cho'l tomonga chekindilar.

Qizil askarlar bilan bo'lgan janglarda istiqolchilar butun xalq ommasi tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlandi. Janglarda yo'qotilgan kishilar o'rnini vatanparvarlar qo'shini safiga yangidan qo'shilayotgan yosh yigitlar doimiy ravishda to'ldirib borishdi. Ular asosan dehqonlar va hunarmandlardan iborat bo'lgan. G'arbiy Buxorodagi tinch aholi vakillari qizil askar kuchlarining holati va harakatlari bo'yicha ma'lumotlarni istiqolchilarga zudlik bilan yetkazishar edi. O'sha davr hujjatlaridan birida yozilishicha, «aholining mujohidlarga nisbatan

munosabati dustona». Lekin xalqning qizil askarlarga bo'lgan munosabati esa «yaxshi emas, xususan, markaz, ya'ni Buxoro shahridan o'zoqlashgan sari.

Kizil askarlarning zulmi va shafqatsizligidan ko'ngli zarda bo'lgan maxalliy aholi ularni yomon ko'rar edi. Qizil askarlar Sharqiy Buxorodagi yirik shaharlarni bosib olishganda tub millat vakillari o'z kindik qonlari to'kilgan uylarini tashlab, istiqloлчаilar bilan birgalikda tog'y toshlarga chiqib ketishar, G'arbiy Buxoroda bo'lsa ular qum va cho'llar ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Bu holni ko'rgan qizil armiya qo'mondonligi taajjubga tushib, mas'ul idoralarga yo'llagan ma'lumotlaridan birida quyidagilarni yozgan edi: «Shunisi xarakterliki, hamma yirik shaharlar: Denov, Yurchi, Regar, Hisor, Dushanbe, Yangibozor, Fayzobod, Baljuvon, Kulob va boshqa joylar aholining katta qismi tomonidan tashlab ketilgan. Ularga o'z boshpanalariga qaytib kelish taklif qilinganda bunga rozi bo'lishmayapti. Chunki ularning fikricha, qizil armiya bilan yonma-yon yashash noqulay emish. Kizil askarlar bozorlarni qayta tiklash o'rniga narxni oshir-moqdalar va aholining uylarini egallashmoqd».¹

Qizil askarlar shahar va qishloqlarni bosib olgach, kurolsiz tinch aholini «sen - bosmachisan» deb qamoqqa olishar, ularning uy-joylarini yoqib, bor mol-mulkini talap, qarshilik ko'rsatganlarni esa o'sha joyning o'zidayoq otib tashlar edi. Istiqloлчаilarning oila a'zolari va qarindosh-urug'lari esa dom-daraksiz ketardi. Bu hol vatanparvarlarni yana ham ko'proq g'azablantirar, ular jangda tobora shafqatsizroq bo'lar edilar. Masalan, Muhammad Xo'ja (Mirza Chatoq) degan qo'rboshi Zandani revkomi nomiga 1923 yil fevralida jo'natgan maktubida bu holni yaqqol ko'rsatib bergan edi.

1923 yilning bahor-yozida G'arbiy Buxoroda janglar qizib ketdi. Kizil askarlar ham, istiqloлчаilar ham hayot mamot jangiga kirishgan edi. Oston qo'rboshining o'limidan keyin Mulla Abdulqahhorning yordamchisi qilib A'zam Xo'ja (A'zam Xoji) tayinlandi. Buxoro viloyatidagi Jo'ra Amin, To'ra Amin, Hamro Polvon, Murod Polvon, Nurus Xo'ja kabi qo'rboshilar A'zam Xo'jaga

¹ Ўғша китоб....113-114 бетлар

bo'ysunar edilar. «A'zam Xo'ja o'zini Eshon A'zam Xo'ja Musofir Xo'jayev G'oziy Sarkarda deb ulug'lardi».

Biroq, ba'zi bir qo'rboshilar A'zam Xo'jaga bo'ysunishdan bosh tortdilar. Masalan, 1923 yil aprel oyining o'rtalarida Jondorning g'arbidagi Oyto'da qishlog'ida Murod Polvon bilan A'zam Xo'ja qattiq janjallashib qoldi. Xayriyatki, Mulla Abdulqahhor oldidan maxsus farmoyishlar bilan Jondorga 18 aprelda kelgan Murod Payvandchi Murod Polvon tomonidan A'zam Xo'janing o'ldirilishiga yo'l qo'ymadi. Qo'rboshilar o'rtasidagi bunday tarqoklik va o'zaro kelishmovchilik holatlari harakatning yanada rivojlanishiga xalaqit berar edi.

Mulla Abdulqahhorning qarorgohi bu paytda Nurotada bo'lib, unga Metan Polvon, Latif Devonbegi, Abdurasul Afandi, Xushvaqt, Og'a Gulbeq Yodgor Xo'ja, Siroj Xo'ja, Musoboy, Azim Yuzboshi, Mulla Qarshi, Nazir Yuzboshi, Asadulla Qorovulbegi, Oqil Qorovulbegi, Mustafo Qorovulbegi, Mulla Mansur kabi qo'rboshilar bo'ysunar edi.

Qorako'l tumanida harakat qilayotgan Murod Polvon safdoshlari Jo'ra Amin va Hayit Polvonlar bilan birgalikda aprel oyining oxirida Jondordagi qizil askarlar garnizoniga muvaffaqiyatli hujum qilishdi. Istiqloлчаilar Jondor atrofida dushmanning ikkita aeroplanini urib tushirishdi.¹

Tosh Murdasha'y qo'rboshi 1923 yil aprel oyining oxirlarida o'z kuchlarini Xargo'sh atrofiga tashlaydi. 26 aprelda Kuyimozorda qizillar bilan bo'lgan janglar natijasida Tosh Murdasha'yning yordamchisi Xoji Boyvachcha va Yodgor, Tursun va Juma (Yodgorov) degan uch yigiti asir tushishga majbur bo'lib qolishdi. Bahouddin ziyoratgohi atrofida joylashgan 61-otliqlar polkida qo'lga olingan bu vatanparvarlar qisqa so'rovdan keyin, 27 aprelda otib tashlandilar.

Bahouddin (hozirgi Kogon) tumanida Tosh Murdasha'y qo'rboshi qizil askarlar bilan jangni yoz faslida ham davom ettirdi. 10 iyun kuni Tosh Murdasha'y va A'zam Xo'ja qo'mondonligidagi 300 suvoriy Xargo'sh atrofiga hujum qilib, bu yerdagi qizil askarlar garnizonini qirib tashlashdi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Т.: -152-153 бетлар

Ma'lumki, G'arbiy Buxoro asosan dehqonchilik o'lkasi hisoblanadi. Shu savabli boshlanib ketgan navvatdagi ekin-tikin mavsumi qo'rboshilarning jang harakatlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Ko'pchilik yigitlar qo'shinni vaqtinchalik tark etib, o'z qishloqlariga qaytdilar va dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yishda o'z oilalariga yordamlashishdi. Masalan, A'zam Xo'ja o'z dastasidagi yigitlarning aksariyat qismiga bahorgi ekin ekish mavsumi boshlanganligi munosabati bilan o'z uylariga junab ketish uchun ruxsat berdi.

Qizil armiya 1923 yil bahor-yozidagi ommaviy jang harakatlari bilan xuddi Sharqiy Buxoroda bo'lganidek Buxoro va Karmanada haqm istiqpolchilarning qarshiligini butunlay yenga olmadi. May-iyul oylaridagi jang harakatlari tasvirlangan ma'lumotlarga nazar tashlar ekanmiz, qizil askarlar bu paytda Buxoro viloyatida aytarli bir natijaga erisha olmaganligiga ishonch hosil qilamiz. Istiqlolchilar esa mazkur davrda asosan mudofaa xarakteridagi janglarni olib bordilar, shuningdek, ular ayrim joylarda keskin hujumga o'tib, bosqinchilarga kuchli zarbalar ham berishdi.

Buxorodagi vatanparvar kuchlar respublika poytaxtidan atigi 3-6 chaqirim narida turib, qizil armiya qismlari bilan jangga kirardilar. Masalan, Buxoro shahridan 4 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan O'zbekon qishlog'ida Navro'z Xo'ja qo'rboshi dastasi bilan qizil askarlar o'rtasida 3 iyunda jang bo'ldi. Shahardan 12 chaqirim g'arbda joylashgan Rahimobod qishlog'iga 4 iyunda A'zam Xo'ja qo'rboshi o'zining 100 kishilik dastasi bilan kelib o'rnashdi. Unga o'sha kuniyoq Tosh Murdasha'y (50 yigiti bilan), Chuli Amin (18 yigiti bilan) va Hayit Polvon qo'rboshi o'z yigitlari bilan kelib qo'shildilar. Qo'rboshilar agar qulay imkoniyat tug'ilsa, Buxoro shahriga hujum qilishni rejalashtirdilar.¹

18 iyunda Tomdida O'rmon Polvon boshchiligidagi istiqolchilar bilan qizil askarlar o'rtasida kuchli janglar bo'lgan. Bu jangda O'rmon Polvon yarador bo'ldi.

Karmana viloyatida harakat qilayotgan Isfar Hoji va Abdulla Boboyor iyun oyining oxirida o'z kuchlarini birlashtirdilar. Istiqlolchilarning 150 kishilik birlashgan dastasiga Boboyor qo'rboshi rahbarlik qila boshladi.

¹ Қиличев Р. "Отам босмачи эмасди. ...". "Бухоро ҳақиқати" 1993 йил 13 февраль

Ko'rboshilar Buxoro viloyatidagi muhim strategik manzil - Vobkent shahriga 28 iyunda hujum qildilar. Bu jangda Ko'r Ota va Ergash qo'rboshining yigitlari qatnashdi.

Ular Vobkent shahrini jang bilan egallashdi, lekin tez orada bu yerdagi qizil askarlarga yordamga yetib kelgan harbiy kuchlar vatanparvarlarni shahardan tashqariga surib chiqardi.

30 iyun - 1 iyul kunlari istiqloqlar Buxora shahridan 1 chaqirim G'arbda joylashgan Kuhna masjid Qishlog'iga to'satdan hujum qilib, bu yerdagi qizil askar va milisionerlar bilan jang qilishdi.

3 iyulda O'rmon Polvon o'zining yaqin yigitlari bilan Shofirkon tumanidagi Denov, Mahallai Bolo, Mahallai Poyon qishloqlarida bo'lib, qurol-yarog' va o'q-dori zahirasini bu yerdagi istiqloqlarga tarqatdi.

Afsuski, istiqloqlarga jang paytida qurol-yarog' va o'q-dorilar doimiy ravishda yetishmas edi. Bir hujjatda yozilishicha, «keyingi paytlarda bosmachilarga o'q-dori yetishmasligi o'z ta'sirini ko'rsatmokda, shuning uchun ham ular bizning qismlar bilan to'qnashishdan o'zini tortmokda, ular faqat kechalari hujum qilishmokda, kunduzlari esa kichik guruhlariga bo'lingan holda qishloqlarga yashirinmokda.

Mulla Abdulqahhor 1923 yil iyul oyining boshida Buxoro va Karmana viloyatlaridagi qo'rboshilarning navbatdagi qurultoyini o'tkazdi. Bu qurultoyda o'sha paytdagi vaziyat muhokama qilindi, qizil askarlarning ommaviy hujumlariga qarshi kuchlar teng bo'lmaganligi uchun mudofaa janglari olib borish kerakligi uqtirildi. Kichik-kichik dastalarga bo'lingan holda faol hujumga o'tish usuli o'zini oqlayotganligi sababli bundan kelajakda ham foydalanish kerakligi qo'rboshilarga tavsiya etildi. Mulla Abdulqahhor qarshi va Shahrisabz orqali Sharqiy Buxoro, Nurota orqali esa Samarqand qo'rboshilari bilan qo'shilish imkoniyati hali kun tartibidan olib tashlanmaganligini yana bir bor e'lon qildi.

Buxorodagi vatanparvarlarga qarshi kurash qizil armiya va uning qo'mondonligidan katta kuch-g'ayrat talab qildi. Moskva, Toshkent, Buxoroda 1923 yil may-iyun oylarida o'tkazilgan oliy darajadagi bir qator anjumanlarda bu

masala eng dolzarb muammo sifatida kun tartibida turdi. 1923 yil 9-12 iyunda Moskvada RKP(b) Markaziy Komitetining milliy respublikalar va oblastlarning mas'ul xodimlari ishtirokida 4-kengashi bo'ldi. RKP(b) MK Siyosiy byurosi a'zosi L.B.Kamenev ushbu kengash faoliyatiga raislik qildi. RKP(b) MK Bosh kotibi I.V.Stalin va partiya kotibi V.V.Kuybishev asosiy ma'ruzachilar bo'lgan bu kengashda bir guruh turkistonlik mahalliy kommunistlar «bosmachilar» va Zaki Validiy (Validov) bilan yashirin ravishda aloqa bog'laganlikda ayblandi. Ular safida Turkiston ASSR va BXSrning taniqli davlat arboblari Turor Risqulov, Fayzulla Xo'jayev, Ilomjon Xidraliyev, Akmal Ikromov, Sultonbek Xo'janov bor edi. Stalin o'z so'zida Buxoro Nozirlar Sho'rosi - yangi hukumatning tarkibi proletar bo'lmagan unsurlardan to'zilgan deb, hukumat boshlig'i F.Xo'jayevni keskin tanqid qildi va hukumat tarkibini faqat dehqonlar bilan tuldurish lozimligi haqida ko'rsatmalar berdi. Holbuki, F.Xo'jayev kengashdagi ma'ruzasida hukumat tarkibiga dehqonlar ham kiritilganligini aytib o'tgan edi.

Kengash o'z ishini o'tkazayotgan kunlarda - 10 iyunda RKP(b) MK siyosiy byurosi maxcyc qaror qabul qilib, Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora-tadbirlarini belgilab berdi. Shuningdek, Sharqiy Buxorodagi istiqloлчаilarga qarshi keskin choralar bilan kurashishga da'vat etildi. Mazkur qarorda yozilganidk, 1) Sharqiy Buxorodagi bosmachilikka qarshi kurashga rahbarlik qilish uchun Revvoyensovet - Inqilobiy xarbiy kengash tuzilsin. 2) Jazo choralari harbiy harakatlarga qat'iy ravishda muvofiqlashtirilishi, shuning uchun Sharqiy Buxorodagi Revvoyentribunal - Inqilobiy harbiy kengashga bo'ysunishi shart. 3) Buxoro MIKga ushbuni yuklatish kerakki, u Buxoro hukumati Sharqiy Buxorodagi qizil armiya qismlarining ta'minotini o'z vaqtida benuqson bajarishini nazorat qilib turishi lozim».

RKP(b) MK Siyosiy byurosining 1923 yil iyundagi qarori va SSSR Inqilobiy harbiy kengashining 11 iyundagi buyrug'iga muvofiq, SSSR Qurolli kuchlarining Buxorodagi harbiy harakatlarini yanada faollashtirish va istiqloлчаilarni tez orada tugatish maqsadida Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi to'zishga qaror qilindi. Fayzulla Xo'jayev Inqilobiy harbiy kengashning raisi qilib tayinlandi, unga

BXSR MIK nomidan keng vakolatlar berildi. Kengash a'zolari qilib 13-o'qchi korpusning komandiri P.A.Pavlov va V.M.Mulin belgilandi.

Shunisi xarakterliki, Buxoro MIK o'zining 1923 yil 17 iyulda bo'lgan majlisida BXSR Inqilobiy harbiy kengashining yangi tarkibini tuzdi. Buxoro harbiy noziri F.Xo'jayev va Buxoro qizil armiyasi qo'mondoni Razgon imzolari bilan Eski Buxoro shahrida 5 avgustda chiqarilgan buyrukda Inqilobiy harbiy kengash (R.V.S.) tarkibi quyidagicha ko'rsatiladi:

«1) Revvoyensovet Raisi - Nozirlar Sho'rosining raisi va harbiy nozir Fayzulla Xo'jayev.

2) A'zolari: a) Harbiy nozir muovini Razgon;

b) BKP Markaziy qo'mitasining mas'ul kotibi A.Rahimboyev.

Yuqorida nomlari ko'rsatilgan shaxslar bo'lganda ularning muovnlari qilib quyidagilar hisoblansin:

birinchi - Nozirlar Shurosi raisining muovini K.Otaboyev;

ikkinchi - Buxoro qizil armiyasi shtabining boshlig'i;

uchinchi - BKP MK 2-kotibi Pozdnishev».

1923 yil 13 iyunda Moskvada SSSR Revvoyensovet (RVSR) raisi L.D.Troskiy rahbarligida Inqilobiy harbiy kengashning maxsus yig'ilishi bo'ldi. Ushbu yig'ilishda Rossiya Ishchi-Dehqon Qizil armiyasining (RKKA) S.S.Kamenevdan tashqari barcha kazo-kazolari ishtirok qildi. SSSR Qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni S.S.Kamenev bu paytda Turkistonda bo'lib, Farg'ona va Buxorodagi istiqlolchilik harakatini tezda tugatish uchun o'zining mash'um «chora-tadbirlari»ni belgilayotgan edi. I.Xidiraliyev, T.Risqulov. K.Otaboyev, A. Rahimboyevlardan iborat Turkiston delegatsiyasi va dog'istonliklar bu yig'ilishda qatnashdilar. Troskiy yig'ilishda har ikki respublika hukumati rahbarlari oldiga tez orada butun Turkistondagi «bosmachilik» harakatini tugatish vazifasini qo'ydi. Yig'ilish tugagach, I.Xidiraliyev va I.Lyubimov kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish uchun Moskvada qoldirildi. Kamenev Turkistondan

Moskvaga qaytgach bu masala bilan yanada jiddiyroq shug'ullanishi yig'ilishda ta'kidlandi.¹

Covet hukumati o'z buyruqlarini tez va qarshiliksiz amalga oshirish uchun RKP(b) MK kotibi va O'rta Osiyo byurosining raisi Ya.E.Rudzutakni Buxoroga zudlik bilan jo'natdi. Buxoro Kommunistik partiyasi (BKP) Markaziy Qo'mitasining 23 iyunda bo'lgan yopiq plenumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat'iy talablarni qo'ydi F.Xo'jayevning eng yaqin safdoshlari bo'lgan sobiq Yosh buxoroliklar jadidlarning deyarli hammasiga turli asossiz ayblar qo'yilib, ular Buxoro hukumati tarkibidan chiqarib tashlandi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning «Kommunistik sabog'i»ni olgan «tajribali sovet xodimlari» Bilan to'ldirildi. Plenumning o'zida BKP MK kotibi Muhametdinov o'rniga A. Raximboyev BKP MK ma'sul kotibi qilib saylandi.

B Rudzutakning ko'rsatmalari asosida yangidan to'zilgan Buxoro hukumati rahbariyati «Bosmachilarni ro'yxatga olish» instruksiyasini ishlab chiqdi. Unda o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan istiqloolchilar hamda hali kurashni to'xtamagan qo'rboshi va yigitlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lish yo'l-yo'riqlari keltiriladi. Buxoro respublikasi ichki ishlar Noziri va 13-o'qchi korpus g' maxsus bo'lim boshlig'i (GPU) imzolari ostida tayyorlangan bu «maxfiy» instruksiyani 1923 yil 1 avgustda Buxoro Nozirlar Sho'rosi raisining 1-muovini K.Otaboyev tasdiqlagach, u kuchga kirdi. Ushbu instruksiya Buxoro respublikasidagi barcha viloyat va tumanlardagi revkomlarga yuborilib, ulardan mazkur instruksiyani qat'iy suratda amalga oshirish talab qilindi.

Maclan, Karshi viloyati revkomida 1923 yil 6 sentyabr kechqurun bo'lgan «maxfiy yig'ilish»da Turdi To'qsa, uning qo'rboshi va yigitlarining qarindosh-urug'larini qamoqqa olish masalasi ko'rib chiqildi. Natijada bir hafta muddat ichida viloyatdagi istiqloolchilarning qo'mondoni Turdi To'qsabo, uning qo'rboshilari bo'lgan Temir Xo'ja Eshon, Odil Polvon Qorovulbegi, Yaxshi Jo'gir o'g'li, Panji Octonaqyl o'g'li, Xushmurod (Turdining o'rinbosari), Rajab Boqi

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,119- 123 бетлар

Qorovul, Moshin Rasmurot o'g'li, Qilich Mirza Kamolov, Mulla Juma, Juma Qorovulbegi, Mulla Bo'ri, Shodi Qorovulbegilar hamda taniqli yigitlaridan Xalil Mergan, Raxmon Mergan, Xudoyberdi, Umir, Oral Polvon, Idiboy, Umir Fayzi o'g'li, Muhammad Karim Qo'chqor o'g'li, Barot oqsoqollarning barcha oila a'zolari va qarindosh-urug'lari zudlik bilan qamoqqa olindi, ularning butun mulki musodara qilindi.

Turdi To'qsabo va uning qo'rboshilari bu paytda asosan Qamashi va Koson tumanlarida harakat qilayotgan edi. Agar ular o'z ixtiyorlari bilan hukumat vakillariga taslim bo'lishmasa, garovga olingan barcha kishilar otib tashlashi aytili. Turdi To'qsabo va uning jasur safdoshlari kurashni to'xtatmagach, qamoqqa olingan butun qarindosh-urug'lari va oila a'zolari qatl qilindi.¹

Xuddi shunday holat Buxoro viloyatidagi taniqli qo'rboshi Jo'ra Aminning takdirida ham takrorlandi. Jo'ra Amin (1889-1926) Jondor tumanidagi Jo'yzor qishlog'ida tug'ilgan edi. Jo'ra Aminning yigitlari Jondor va Qorako'l tumanlarida 13-o'qchi korpus jangchilariga qarshi shafqatsiz janglar olib borishdi. Korpus qo'mondoni Pavlov o'z shtabini Jondor markazidagi binoga joylashtirdi. «Bir qancha janglar natijasida Pavlov Jo'ra Amin boshchiligidagi yigitlarni yenga olishga ko'zi yetmagach, eng qabixona yo'lni tanlaydi. Jo'ra Aminning turmush o'rtog'ini Ergash ismli chaqalog'i bilan G'oziyon madrasasida tashkil etilgan qamoqxonaga tashlab, ularni bir yarim yil davomida shu yerda saqlaydi». Ammo shunga qaramay, Jo'ra Amin kelib, taslim bo'lmaydi. Jondorlik bu mard qo'rboshi dushmanga kelib bo'yin egmagach, qizil askarlar tomonidan garovda ushlab turilgan uning oila a'zolari otib tashlandi. Jo'ra Amin bo'lsa yana bir necha yillar davomida qizil askarlarga qarshi hayot-mamot kurashini olib bordi

Angliyalik tadqiqotchi Glenda Frezerning yozishicha «sovet qo'mondonligi Buxoro respublikasida 1923 yil bahor-ko'z fasllarida bo'lgan janglarda 100000 ikshilik ulkan armiyasini tashladi. 1923 yil noyabr oyida bosmachilar Buxoro va Samarqandda o'zlarining so'nggi yirik hujumlarini boshlashdi. G'arbiy Buxoroda Mulla Abdlqahhor, Qarshida Berdi Dodxoh, Yakkabog'da Abdurahmon

¹ Ўша китоб....124 бет.

Samarqandda Xolbo'tabek, Boysunda Mustafo Boyvachcha Vaxsh daryosining so'l sohilidagi tog'larda Abdurrahim, Qizilqum sahrosida esa Mulla Abdulqodir qo'rboshilar jang harakatlarida qatnashdilar».

1923 yil noyabr oyida Buxoro viloyatidagi qo'rboshilar ichida Jo'ra Amin, A'zam Xo'ja, Tosh Murdasha'y Bozorbek, Ravshan Davlat kabilar o'z harakatlarini faollashdilar. Ularning har biri o'zlarining 500-600 kishilik suvoriylari bilan Buxoro shahri atrofida hamda Xargo'sh va Xayrobod kentlarida qizil askarlar bilan jangga kirardilar.

Mulla Abdulqahhor qo'rboshi bo'lsa, Nurota, Karmana Buxoro viloyatlarining turli tumanlarida o'z dastasi bilan kurashni davom ettirdi. U ba'zan Zarafshon daryosining har ikkala qirg'og'ida jang qilsa, ba'zan Shofirkon G'ijduvon tumanlarining Qizilqumga tutash cho'llarida qizil askarlarining dodini berar, ba'zan Nurotaning tog'-toshlarida dushman bilan olishardi.

Buxorodagi vatanparvar kuchlarga qarshi kurashda Turkfront Havo floti harbiy uchuvchilari o'ta «jonbozlik» ko'rsatishdi. Mana shunday uchuvchilardan biri P.X.Mejeraup edi. U terma aviasiya gruppasining (2- va 4-aviaotriyadlar negizidagi) boshlig'i sifatida G'arbiy Buxorodagi qo'rboshilar dastalari joylashgan yerlarni bombardimon qilar, katta qishloqlar va aholi yashaydigan manzillarni samolyotdan turib, pulemyot o'qiga tutardi. G'arbiy gruppaga qo'shinlari qo'mondoni Shvesov yozgan raportda aytilishicha nomlari Mejeraup boshchiligidagi bir guruh aviaotriyad 15 noyabrda Tosh Murdasha'y qo'shinining 300 kishilik dastasini Shamba-Imachti qishloqlari yo'nlishida va Quyimozor temir yo'l bekati atroflarida, « ... gruppaviy ravishda samolyotlardan bombardimon qilishdi va pulemyotdan o'qqa tutishdi, tinimsiz davom etgan besh soatlik bombardimon va pulemyot o'ti natijasida qo'rboshi dastasi ichiga sarosima solindi va 100 yigit yo'q qilib tashlandi».

Sovet qo'mondonligi istiqloqlchilar bilan jangga kirishar ekan, olishuv tugagach, o'sha atrofdagi mahalliy tinch aholini ham asrga olar, qo'lga alingan istiqloqlchilar bilan bir qatorda qishloqlarning aksarnyat aholisi «sen bosmachisan» deb, otib tashlanar edi. Masalan, «1923 yil 23 dekabrda Barot Eshon

boshchiligidagi 200 kishilik suvoriylar guruhi Bag'a-Soqol degan joyda tor-mor qilinganda qishloq oqsoqoli va aholining bir qismi asirga olindi ... ». Qishlokdagi tinch aholini asir olishda «mardlik» kursatgan ushbu qizil askarlar OGPU buyrug'i bilan keyinchalik turli xil orden va medallar bilan takdirlanishdi.¹

Toshkent va Moskvadagi bolshevik raharlari 1923 yilning oxiri va 1924 yilning boshlarida Buxoro Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan hali qoniqish hosil qilmagan edilar. Ular shunning uchun harbiy harakatlarni jadal sur'atlarda olib borish bilan bir qatorda Buxoro hukumati rahbarlaridan kurashning barcha tur va vasitalaridan foydalanishni talab qilishdi. 1923 yil 22 dekabrda bo'lgan Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Ijroiya byurosining yig'ilishida G'arbiy va Sharqiy Buxorodagi «bosmachilar»ga qarshi kurash choralari maxsus muhokama etildi. Majlis bayonnomasida yozilishicha, unda quyidagi masalalar ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi:

- a) RKP O'rta Osiyo byurosining bosmachilarga qarashli mol-mulkni musodara qilish to'g'risidagi instruksiyasi.
- b) O'rta Osiyo byurosining bosmachilarning qo'riklari haqidagi instruksiyasi.
- v) G'arbiy Buxoroning ayrim viloyatlarida va Sharqiy Buxorodagi viloyatlarda bosmachilikka qarshi kurash Kengashlarini tashkil qilish to'g'risida.
- g) G'arbiy Buxoroda bosmachilikka qarshi kurash Komissiyasini to'zish haqida.
- d) Jazo uchliklari ishini yanada kengaytirish to'g'risida.
- ye) qizil armiya bilan BXSР mehnatkashlari o'rtasidagi yaqinlashuv kompaniyasini o'tkazish haqida».

Buxoro hukumati Markazning siquvlari ostida istiqloqlarga qarshi kurashni avj oldirishda islom dini arboblardan ham keng foydalanishni rejalashtirdi. Kent, tuman, viloyatlarda bo'lgan ruhoniylarning qurultoylarida bu masala keng muhokama qilindi. Nihoyat, 1924 yil 28-31 yanvarda Buxoro shahrida respublika ulamolarining qurultoyi chaqirildi. Rasmiy hukumatning tazyiqi ostida o'tgan qurultoyda kerakli maqsadga erishildi. 30 yanvarda Mulla Akmal Fozil Xo'jayev ma'ruzasi bo'yicha «Bosmachilik haqida» nomli rezolyusiya qabul qilindi. Bu

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,125-126 бетлар

rezolyusiyada xuddi partiya qarorlarida ta'kidlanganidek, istiqloлчаilar «xalq dushmani» deb e'lon qilindi.

Shariat peshvolarining qurultoyida aholiga qarata «Ulamolarning bosmachilar haqidagi xitobnomasi» nomli murojaatnoma ham qabul qilindi. Ushbu hujjatga shariat qoidalarini sharhlab beruvchi 113 ta ulamolar imzo chekkan edi.

Buxoro respublikasi hududida kurashning beshinchi yili istiqloлчаilar uchun mana shunday qiyin bir sharoitda boshlandi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning aksariyat qismi qo'ldan qurolni tashlamadilar. G'arbiy Buxoroda bu paytda Mulla Abdulqahhor (Zandanida), Jura Amin (Qorakulning shimoli-g'arbida), A'zam Xo'ja (Jondorda), Tosh Murdasho'y (Buxoro shahrining shimoli-g'arbida), Qo'r Ota (Vobkentda), Islom Qorovulbegi (G'ijduvonda), O'rmon Polnon, Metan Polvon, Naim Polvon (hammasi Shofirkonda), Boboyor, Xushvaqt va Sirojxo'ja (hammasi Nurotada) kabi qo'rboshilar dastalarining har birida 300-400 vatanparvar kurashni davom epirayotgan edi. Bulardan tashqari kichik miqdordagi o'nlab qo'rboshilar dastalari ham mavjud bo'lgan.

O'rta Buxoro - Qashqadaryo vohasida bo'lsa Turdi Tuqsabo (Kosondan shimoli-g'arbida), Bo'ri Dodxoh va Abdurahmon (Yakkabog'dan janubi-rarbida), Abduroziq (Sumatda) kabi qo'rboshilar, Amudaryo buyi rayonida (hozirgi Turkmaniston hududida) qilich Mergan na Mulla Ro'zi (Karkidan janubi-sharqda), Mulla Maxta (Burdaliqda) singari sardorlar qizil armiyaga qarshi jang olib borishardi.

Shunday qilib, bu paytda G'arbiy Buxoroda Mulla Abdulqahhor va Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek qo'rboshilar istiqloлчаilarning o'n ming kishiga yaqin qo'shiniga qo'mondonlik qilishayotgan edi.¹

G'arbiy Buxoroda 1924 yildan boshlab istiqloлчаilarga qarshi qapiq janglar avj oldirib yuborildi. Arxiv xujjatlarida keltirilishicha, 1924 yil 19 yanvardan 25 iyungacha bo'lgan janglar natijasida vatanparvarlardan 2000 kishi kurashdan chetlashtirildi, ya'ni taslim bo'ldi. Bundan tashqari janglarda 25 qo'rboshi va 474

¹ Ўша китоб....128 бет

yigit o'ldirildi, 2 qo'rboshi va 93 yigit yarador qilindi, 12 qo'rboshi va 194 yigit asir olindi, 59 qo'rboshi va 637 yigit o'z ixtiyori bilan taslim bo'ldi.

Qizil askarlarning asosiy zarbasi Buxoro va Karmana viloyatlaridagi qo'rboshilarning umumiy yetakchisi Mulla Abdulqahhorga qarshi yo'naltirildi. «... qizil askarlar 21 iyunga o'tar kechasi Abdulqahhor guruhiga hujum qilishdi, natijada uning 18 yigiti chopib tashlandi va Abdulqahhorning o'zi og'ir yarador qilindi».

Buxorodagi istiqloлчаilar bahorgi janglarda mag'lubiyatga uchrashlariga qaramasdan, 1924 yil iyun oyida O'rta va G'arbiy Buxoroda mujohidlarning faolligi ko'zatiladi. Bu paytda Sharqiy Buxoroda ham qo'rboshi dastalari o'z harakatlarini kuchaytirgan edilar.

Mulla Abdulqahhor va A'zam Xo'ja aholiga qarata murojaatnoma chiqarib, chaqiriq yoshidagi kishilarni Buxoro qizil armiyasi saflariga kirmaslikka, aksincha, istiqloлчаilar qatorida turib, bosqinchilarga qarshi kurashga da'vat etishdi. Natijada kurashni turli sabablar bilan tark etgan yigitlar yana qaytadan kelib, o'z dastalariga qo'shila boshladilar. Xatto qizil armiyaning eskadron komandiri Shatalov bir guruh askarlar va anchagina miqdordagi qurol-yarog' bilan istiqloлчаilar safiga o'tdi.

Bu holdan qattiq tashvishga tushgan qizil armiya qo'mondonligi Buxorodagi partiya va sovet organlariga istiqloлчаilarga qarshi kurashda shoshilinch choratadbirlar kurishni topshirdi. «Bosmachilik»ka qarshi kurash Markaziy komissiyasinnng raisi Mavlonbekov imzosi bilan 1924 yil 30 mayda qabul qilingan mutlaqo «maxfiy» tamg'ali «O'rta - G'arbiy Buxorodagi bosmachi guruhlar va zarbdor kompaniya o'tkazish tadbirlari haqidagi Nizom»ga muvofiq 5 iyuldan boshlab «Bosmachilar bilan kurash oyligi» o'tkazishga qapop qilindi. Rasmiy hukumat bir oy davomida G'arbiy va O'rta Buxorodagi butun qo'rboshi dastalarini tugatishni rejalashtirdi. Mulla Abdulqahhor, A'zam Xo'ja, Tosh Murdasho'y, Turdi To'qsabo, Qilich Mergan kabi asosiy qo'rboshilarning dastalariga kuchli va so'nggi zarba berishga qaror qilindi.

Mazkur qarorni amalga oshirish uchun Buxoro viloyati bo'yicha Abdug'ani Nabiyeu, Rajab Muhammadiy, Subhonqul Jo'rayev va Abduqodir Rahimboyev;

Chorjo'y viloyati bo'yicha Soliyev, Choriyev va Niyozmurodov; Nurota viloyati bo'yicha Sharof Barotov va Arabboy Mo'minov; Karmana viloyati bo'yicha Berdi Yorov va Safar Bozorov; Behbudiy (qarshi) viloyati bo'yicha Zokirov va Xalilov; Shahrisabz viloyati buyicha Mirzayev va Bobonazar Xidirov hukumat tomonidan mutasaddi etib tayinlanishdi.

Mulla Abdulqahhor qo'rboshining yigitlari bilan qizil askarlar o'rtasida 1924 yil yozi va ko'zida G'ijduvon tumanining G'ishti va Katta G'amxo'p qishloqlarida, Nurota tog'larida, Shofirkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog'iafzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to'qnashuvlar bo'ldi. Kuchlar teng bo'lmagan ushbu janglarda G'arbiy Buxoro vatanparvarlarining yetakchisi mag'lubiyatga ychradi. G'arbiy Buxorodagi qo'rboshilar dastalariga sezilarli zarba berildi. «Zarbdor oylik davrida Ortiq To'qsabo, Ortiqcha, Mirza Ibrohim, Rustam Koson va boshqalar o'z yigitlari hamda qurol-yarog'lar bilan taslim bo'lishdi. Oylik mobaynida 17 qo'rboshi va 250 yigit qo'lga olindi hamda asir tushdi».

Mulla Abdulqahhor qo'rboshi Qizilqum cho'llarida qizil askarlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarning birida 1924 yilning oxirida o'ldirildi. Said Olimxon yozganidek, uning ikki ukasi: Metan Polvon va Naim Polvon sal oldinroq shahid bo'lishigan edi.

Shunday qilib, 1924 yil oxirlarida Buxoro va Karmana viloyatlaridagi istiqloqlolchilar asosan mag'lubiyatga uchradilar. Kurashning uchinchi bosqichi nihoyasiga yetdi. Lekin hali janglar daiom etar edi.¹

¹ Ўша китоб..... 128-130 бетлар

II.2. Sharqiy Buxoroda Salim Posho va Ibrohimbek rahbarligidagi janglar.

1922 yil ko'z faslida Sharqy Buxoroda qizg'in janglar ketayotgan bo'lib, bu yerdagi istiqloлчаilar Ibrohimbek boshchiligida kurashni davom ettirayotgan edi. Sentyabr oyining o'rtalarida ularning safiga Afg'onistondan Salim Posho - Hoji Somiy afandi kelib qo'shildi. Salim Posho dastlab Baljuvonga borib, Anvar Posho va Davlatmandbekning qabrlarini ziyorat qildi. Ularning qabri ustida Turkistonni bosqinchi qizil askarlardan tozalash xususida ont ichdi. So'ngra oktyabr oyining o'rtalarida Baljuvondan 37 chaqirim shimoli-sharqda bo'lgan Sarm Pulida ko'rboshilarning qurultoyini o'tkadi Ibrohimbek bu gal ham navbatdagi turk zobitiga o'zining barcha huquqlarini osonlikcha berib qo'yishni xohlamadi. Qolaversa, Salim Poshoning nufu'zi va obrusi Sharqiy Buxoro istiqloлчаilari o'rtasida Anvar Poshonikidek yuqori emas edi. Natijada bu qurultoyda Salim Posho ko'zlagan maqsadiga yeta olmagach, Qorategin tomonga Tobildaraga yo'l oldi.

Ma'lumki, Fo'zayl Maxdum Anvar Poshoga sadoqati zo'r qo'rboshilardan edi. Salim Posho ham uning huzuriga borib yanglishmadi. Fuzayl Maxdumning katta sa'y-harakatlari natijasida Qorateginda bo'lgan qo'rboshilarning navbatdagi qurultoyida Salim Posho Sharqiy Buxoro istitqlolchilarining Oliy bosh qo'mondoni deb tan olindi. Bu qurultoyda Samarqand va Farg'onadan kelgan istiqloлчаilik harakatining vakillari ham ishtirok etdi.

Salim Posho qo'l ostidagi qo'rboshilarni Kulob rayonida to'plab, shuningdek, har birida 500 kishidan iborat bo'lgan Said Polvon va Mulla Niyoz qo'rboshi dactalari bilan birgalikda 1923 yil 16 fevralda Vaxsh daryosidan kechib o'tib, uning o'ng qirg'og'idagi Qo'rg'ontepa tumaniga bordi va Hisor vodiysiga tomon yo'l oldi. Salim Posho Shuryanboshi degan joyda vaqtinchalik o'z qarorgohini o'rnatdi. Nihoyat, Ibrohimbek qo'rboshidan Salim Poshoning Oliy bosh qo'mondon ekanligi tan olingan xabar unga yetib keldi. Bu xushxabarni Salim Posho o'zoq paytdan buyon intiqlik bilan kutar edi. Salim Posho qo'l ostida endi 10000 kishidan ortiq istiqloлчаi to'plandi.

1923 yil fevral oyida Salim Posho Shuryanboshida kurultoy chaqirib, unda qo'rboshilar bilan uchrashdi va har bir dastaning harakat rejasini belgilab berdi. Qyultoyda ishtirok qilgan Ibrohimbek bilan birgalikda Salim Posho bir vaqtning o'zida ikki yo'nalish bo'yicha hujum harakatlari qilish rejasini ishlab chiqishdi. Qisqa va samarali o'tgan bu anjumandan so'ng, Salim Posho 6000 jangchidan iborat asosiy kuchlarni olib, G'o'zor-Qarshi-G'arbiy Buxoro tomonga qarab yo'l oldi. U Samarqand va Farg'ona istiqloqlachilari bilan keyinroq qo'shilishni ham mo'ljalladi. Ibrohimbek qo'rboshi bo'lsa, 3000 yigit bilan Dushanbe-Hisor-Qabodiyon tomonga yurib, Sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatini batamom tugatishi va Salim Posho qo'shinining orqa tomonini muhofaza etishi shart edi. Bu rejani amalga oshira borib, ular 1923 yilning bahorida Qarshi-Karki-Termiz-Boysun liniyasiga chiqishdi. Salim Poshoning 1300 suvoriysi Kalif tomonga yo'l olib, turkman boylari bilan qo'shilishga harakat qildi. Turdi Tuqsabo istiqloqlachilari esa Salim Posho bilan birgalikda Karshi shahri ustiga yurish qilishdi. O'rta Buxorodagi 15 ta qo'rboshi Salim Posho ixtiyoriga o'tdi

Salim Posho qo'rboshilardan o'z dastalarida qattiq tartib-intizom o'rnatishni talab etdi. U Temurbek qo'rboshiga yozgan maktubida «mujohidlar uylariga har safar borib kelish uchun jo'naganlarida albatta o'z harbiy boshliqlaridan tegishli ruxsatnoma (ta'kid bizniki - Q.R.) olishlari shart» ekanligini ta'kidlaydi.¹

Salim Posho Ibrohimbek qo'rboshi bo'ysunganligiga qaramasdan; baribir unga ishonmaydi va amalda ko'proq Temurbekka suyanadi. Shuning uchun ham u Temurbekni «biy» unvonidan «dodxoh» darajasiga ko'tardi.

Salim Posho Davlatmandbekning bevasiga uylangach, Kulob viloyatidagi qo'rboshilar o'rtasida o'zining mavqeyini yanada mustahkamladi.

Shunday qilib, 1923 yil bahorida Buxoro respublikasi hududida quyidagi uchta yirik lashkarboshi: Mulla Abdulqahhor qo'rboshi G'arbiy Buxoroda (Nurota va G'ijduvon tomonlarda); Ibrohimbek qo'rboshi Sharqiy Buxoroda (Hisor vodiysida); Salim Posho O'rta Buxoroda (Qarshi yo'nalishida) qizil armiyaga qarshi ommaviy ravishda hujum boshladilar.

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,135-138 бетлар

Turkiston fronti qo'mondoni A.I.Kork o'z navbatida katta mikdordagi kuchlarni Buxoro respublikasi hududiga, xususan, Sharqiy Buxoroga tashlash haqida buyruq berdi. Buxoroga 3-otliqlar brigadasi, 11- otliqlar diviziyasi va 6-alohida otliqlar brigadasi zudlik bilan yetib keldi. Qariyb 15000 kishidan iborat bo'lgan bu bosqinchi kuchlar P.A.Pavlov boshchiligidagi 13-o'qchi korpusga birlashtirildi.

Sharqiy Buxorodagi qizil askarlar oldiga ikki asosiy vazifa qo'yildi va shundan kelib chiqqan holda bosqinchilar qo'shini quyidagi ikki guruhga ajratildi: «a) 7 -o'qchi polk, 1-alohida brigada, 10-otliqlar polki, 1 va 2-tog'li otliqlar batareyasi Vaxsh yo'lida daryoning so'l sohilidagi qo'zg'olonchilarning uyushgan guruhlarini tor-mor qilishi, Darvozni egallashi va qo'zg'olonchilarning markazi bo'lgan Qal'ayi Xumb, Tobildara, Childaradagi alohida dastalarni mag'lubiyatga uchratib, Panjdagi chegaraning qo'riqlashni mustahkamlashi lozim edi; b) 9-polk, 11-otliqlar diviziyasi, 3-diviziya, 7-va 9-tog'li batareya Vaxsh daryosining o'ng sohilida qo'zg'olonchilarning uyushgan guruhlarini tor-mor qilishi va mazkur joylarni ulardan tozalashi kerak edi».

Sovet Qo'mondonligi o'z jangovar operatsiyalarida aviasiyadan ustalik bilan foydalanar edi. O'sha davrdagi harbiy harakatlarda samolyotlarning xizmati juda katta bo'lgan. Istiqlolchilar va mahalliy aholi ruhiyatiga bu «po'lat quzg'unlar» o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. «Aviasiyaning vazifasi eng avvalo shundan iboratki, o'ndan bombardimon qilishda, pulemyotlardan o'qqa tutishda, varaqalar tashlashda va aloqa xizmatida foydalanilardi».

Sovet qo'mondonligi o'z kuchlarini yuqoridagi tartibda joylashtirgach, istiqloлчаilik harakatiga qarshi umumiy harbiy harakatlarni Sharqiy Buxoroda 1923 yil mart oyining boshlarida, G'arbiy Buxoroda mart oyining o'rtalarida boshlab yubordi.

Qizil armiya qo'shinlari butun Buxoro respublikasi hududida istiqloлчаilarga qarshi boshlangan harbiy xarakatlarini aprel-may oylarida yanada faollashtirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada vatanparvarlar lashkari bir necha janglarda mag'lubiyatga uchradi. Masalan, Salim Posho dastalari Qarshi rayonida o'zidan

ustun qizil armiya qo'shinlari bilan bo'lgan jangda mardonavor kurashsalar-da, ulardan yengilib, Sharqiy Buxoro tomonga qaytadan chekindilar. Salim Posho Kalif va Denov orqali Hisor vodiysiga keldi.¹

Bir necha so'z tarixiy adabiyotlarda deyarli yoritilmagan. Matcho bekligidagi istiqloлчаilik harakati xususida. Matcho bekligi qulay jug'rofiy o'rinda joylashgan bo'lib, muhim strategik ahamiyatga molik joy edi. Buxoro amirligi hududining bir qismi bo'lgan bu yer hozirgi vaqtda Shimoliy Tojikistonga qaraydi. Matcho bekligi Farg'ona, Samarqand, Qorategin istiqloлчаilarining Sharqiy Buxorodagi safdoshlari bilan aloqani bog'lab turuvchi muhim halqa edi. Beklik aholisi 1923 yilning bahorigacha 6 yil davomida qizil armiya tomonidan Matchoga qilingan hamma xujumlarni qaytarib turdilar. Machchoyiliklarning milliy ozodlik kurashiga Avliyo Xo'ja Eshon g'oyaviy jihatdan rahnamolik qildi. Uning to'rtta o'g'li - Eshon To'ra, Ahmadbek, Ahrorxon, Asrorxon qo'rboshilar istiqloлчаilarning harbiy rahbarlari edi. Shuningdek, Matchoda Xolbo'ta qo'rboshi o'zining katta dastasi bilan harakat qilardi. Ahmadbek Matcho beki bo'lib, Oburdon qishlog'i beklkning markazi edi.

1923 yil 18 martda qizil armiya Matcho bekligini bosib olish va bu yerda sovet hokimiyatini o'rnatish uchun hal qiluvchi jang harakatlarini boshlab yubordi. 2 aprelda beklkning markazi Oburdon, shu oyning oxirida esa butun Matcho bekligi bosqinchilar tomonidan bosib olindi. Sovet hokimiyatiga buysunishni xohlamagan machchoyiliklar sobiq hukmdorlari Ahmadbek boshchiligida qizil armiyaga qarshi yana o'zoq muddat davomida milliy istiqloлча kurashini davom ettirishdi. Sobiq Matcho bekligi esa Turkiston ASSR tarkibidagi Samarqand viloyatiga kiritilib, bu yerda zo'ravonlik bilan sovet hokimiyati o'rnatildi.

Ibrohimbek qo'rboshi dastlab Sharqiy Buxoroda muvaffaqiyatli ravishda jangovar harakatlar olib bordi. U Surxon daryosi atrofidagi Yuqori Kakaydi (Sharqiy Sherobod - hozirgi Qumqo'rg'on tumani)da bir qator janglar o'tkazdi. Ibrohimbek bu janglarda ustunlikka erisha olmagach, yana orqaga qaytib, Dushanbe atrofidagi Loqayda o'z kuchlarini mustahkamladi va yangi janglarga

¹ Ўша китоб....140 бет.

tayyorlandi. Ibrohimbek atrofida Rahmat Miroxo'r, Barot Eshik og'asi, Mulla Niyoz, Mulla Eson (Isso), Shirin To'qsabo, Ahmadbek. Abduqodir Qarluq, Abduqayum parvonachi kabi nufuzli qo'rboshilar birlashdi. «3 maydagi ma'lumotlarga ko'ra, Salim Posho Xovaling atrofidan Oqsuv daryosining yuqori qismiga - Fo'zayl Maxdum bilan uchrashish uchun jo'nab ketdi».

Qizil armiyaning Sharqiy Buxoroga bosqini natijasida may oyida bu yerda ko'plab qo'rboshilar dastalari tuzildi va ular bosqinchilarga qarshi janglarda qatnashdi. Bir xujjatda yozilishicha, 10 mayga kelib Sharqiy Buxorodagi bunday dastalarning soni 47 ta edi. Bu qo'rboshilar dastalariga bosqinchilarning zo'ravonligi va xunrezligini o'z ko'zi bilan ko'rgan mahalliy o'zbek va tojik yigitlari ommaviy ravishda kirar edilar.

May oyining boshlarida O'rta Buxoro-Kashqadaryo vohasida ham janglar qizib ketdi. Qarshidagi vatanparvarlarga bu paytda Samarqanddagi eng nufo'zli qo'rboshilardan biri Ochilbek o'zining 200 dan ortiq yigiti bilan yordamga keldi. Ochilbek Samarqand va uning tevaragida qizil askarlarga qarshi tinimsiz janglar olib borgan. Bu xujumlari oqibatida Samarqand-Zarafshon hududidan Machcho tog'lari etaklariga qadar bo'lgan joylarda sovet hokimiyatini tugatishga muvaffaq bo'ldi. Turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchining yozishicha, u aslan nayman urug'i o'zbeklaridan bo'lib, kurash maydoniga chiqmasdan avval o'zoq muddat Toshkentda bo'lgan, o'rischani o'rgangan, jadid maktablari ta'sirida ma'naviy saviyasini orttirgan. Ayni paytda Toshkentda «hammollik» bilan shug'yllanib ma'lum mikdorda boylik to'plagan va uni ham milliy kurash yo'lida sarf etgan. Ochilbek vataniy axloqqa ega, jasur, vazmin tabiatli shaxsiyat sohibidir. Qo'rboshilikni boshlashdan avval u Buxoro amirining tog'asi Sayyid Akram To'raning xizmatida bo'lib askarlikni o'rgangan. Bu fikrni Ochilbekning qarorgohida bo'lgan Validiy o'z xotiralarida ham tasdqlaydi. Ochilbek 1918 yildan istiqloлчаilik harakati safiga qo'shilgan, atrofida 2000 dan ziyod askarlik malakasiga ega yigitlari bo'lgan. Turkiston Milliy Birligi tashkiloti Ochilbek huzuriga jadid ziyolisi Qori Komilni siyosiy maslahatchi sifatida jo'natgan edi.

Qarshi viloyatiga kelib, Kitob shahridan 20 chaqirim sharqdagi Varganza (Vag'anzi) qishlog'ida o'rnatilgan Ochilbek bilan qizil askarlar o'rtasida 1923 yil 9 mayda tengsiz olishuv bo'ldi. «10 maydagi ma'lumotlarga qaraganda, Ochilbek dastasi Kitob atrofidagi muvaffaqiyatsiz jangda o'z bayrog'ini yo'qotib va bir necha o'liklarni, shu jumladan, Ochilbekni ham qoldirib, Taxta Qoracha dovoni orqali Qaynar Buloq yo'lidan Samarqand viloyatiga jo'nab ketishdi. Ochilbekning o'limidan so'ng 130 yigitdan iborat dastaga Ziyovuddin boshchilik qila boshladi».

Sovet ma'murlarining e'tirof qilishlaricha, 1923 yil may oyida istiqloqlar safiga mahalliy millatga mansub ko'plab mas'ul xodimlar, milisionerlar kelib qo'shilishgan. Bir hujjatda ta'sirchan qilib yozilganidek, «Sharhisabzda keyingi paytda milisiya safidan bosmachilar guruhiga borib qo'shilish ommaviy xususiyat kasb etmoqda, yakunlanayotgan hafta mobaynida Yakkabog'dan 8 milisioner qo'lida qurol bilan ketib qolishdi, ulardan Shamsutdin Xo'ja degani ot va revolver bilan, revkomda ishlaydigan bir xizmatchi bo'lsa qurolsiz ravishda mujohidlar safiga o'tdi».

Yakkabog'da bunday hodisalar ilgari ham bo'lgan edi. Butun Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zosi, Shahrhisabz viloyati Yakkabog' revkomining raisi Mirza Odil Fozilov 1921 yilning birinchi yarmi va 1922 yil davomida Qashqadaryo va Sharqiy Buxoro chegaralarida harakat qilgan Jabborbek qo'rboshi, Bozorbek (Odilov), uning yordamchisi Bozor komandir (Xo'jamqulov) kabi qo'rboshilar bilan amaliy hamkorlikda ishlagan va ushbu hamkorlik natijasida Yakkabog' shahri va qal'asi uzoq muddat vatanparvarlar qo'lida bo'lgan edi. Fozilov tomonidan Yakkabog' qal'asidagi qurol-yarog' Jabborbek qo'rboshi dastasi ixtiyoriga berilgach, vatanparvarlarning kuchlari ancha ko'paydi. Fozilov bu ishlarni maxfiy ravishda qilgan. Nihoyat, 1923 yilning boshlarida chekistlar Fozilovning iziga tushib, uni qamoqqa olidi. O'z xalqining vatanparvari sifatida qo'rboshi dastalarini qo'llab-quvvatlagan va ular bilan doimiy ravishda aloqa bog'lab turgan sobiq revkom Mirza Odil Fozilov keyinchalik - 1923 yil 18 avgustda Eski Buxoro Shahrida bo'lib o'tgan Turkiston fronti 13-o'qchi korpusi harbiy tribunalining sayyor sessiyasi hukmiga ko'ra otib tashlandi.

Ibrohimbek qo'rboshi Hisor vohasi (Dushanbe atrofi)da o'z kuchlarini jipslashtirgach, qizillarga qarshi hujumga o'tdi. U may oyining oxirida 2-Turkiston otliqlar polkini Obikiyik qishlog'ida qurshab olishga muvaffaq bo'ldi. Ibrohimbek bilan Salim Posho o'rtasidagi ixtilof qizil askarlarni bu yerda muqarrar tor-mor qilinishdan qutqarib qoldi. Salim Poshoning Qarshidagi mag'lubiyatidan so'ng, Ibrohimbek yana ynra buysunmay qo'ygan edi. Ibrohimbekning hujumi haqidagi habarni eshitgach, Salim Posho o'zining 2500 kishilik qo'shini bilan uning qarorgohiga keldi. Qizil askarlar bilan Ibrohimbek qo'shini o'rtasidagi qonli to'qnashuvni kuzatgach, Salim Posho o'z safdoshiga yordam berish o'rniga aksincha unga duq-pupisa qilishdan nariga o'tmadi. Natijada qulay imkoniyatdan foydalangan qizil askarlarnin boshqa Turkiston otliqlar polki Ibrohimbekka to'satdan orqa tomondan kuchli zarba berdi. Jang qizigan paytda kelib, Ibrohimbekni chalg'itgan Salim Posho o'z qo'shini bilan bu yerni tark etdi. Ushbu jangda Ibrohimbek mag'lubiyatga uchrab, 500 askarni yo'qotdi va Vaxsh daryosining so'l sohiliga o'tib ketdi. Ibrohimbek hammasi bo'lib, bu janglarda 1300 kishidan ajralgan, iyun oyining o'rtalariga kelib esa Loqaydagi istiqloлчаилarning soni 15000 kishidan 350 kishiga tushib qolgan edi.

1923 yil yoz-ko'z fasllarida muxolifatchilar Sharqiy Buxoroda bo'lgan janglarda mag'lubiyatga uchrashdi. Bir qator muvaffaqiyatsiz janglardan so'ng Salim Posho 1923 yil 15 iyulda Panj daryosidagi Xirmonjoy kechuvidan Afg'onistonga o'tib ketdi. Sovet xukumatining qat'iy talabi bilan Afg'oniston ma'muriyati Salim Poshoni o'z davlati xududidan chiqarib, uni Eronga jo'natdi. Validiyning yozishicha, Salim Posho Eron orqaln Turkiyaga keldi va o'z yurtida savdo-sotiq bilan shug'ullanib, fabrika ochdi.¹

1923 yil iyul oyida qizil askarlar Qorategin bekligi ustiga yurish qilishdi. Bu yerda Qorategin hokimi Fo'zayl Mahdum rahbarligidagi istiqloлчаилар uch yildan beri qizil askarlarning barcha xujumlarini qaytarib, Korateginni ular bosib olishiga yo'l quymayotgan edi. Biroq, bu gal qizil askarlarning kuchlari vatanparvarlarniki-ga nisbatan bir necha marta ortiq edi. Natijada 29 iyulda Korategin bekligining

¹ Шамсутдинов Р. Босмачилар ким бўлган.? “Фан ва турмуш”, 1997, 1-сон

markazi G'apm shahri qizil askarlar tomonidan bosib olindi. Istiqlolchilar G'apm shahrini mudofaa etib, qizil askarlar qilgan tinimsiz xujumlarni 12 soat davomida qaytarishga muvaffaq bo'lsalar-da, oxiri G'armni tashlab chiqishdi. Fo'zayl Mahdum va uning yigitlari Qorategin bekligida qizillar bilan jangni yana davom epirdilar. Fo'zayl Mahdumning yigitlari Darvoz bekligidan yordamga kelgan kuchlar bilan qo'shilgach, Tobildara qishlog'ida qizil askarlarga qarshi xujumga o'tdilar. Afsuski, bu xujum ham samara bermadi.

Darvoz bekligida bosqinchi qizil armiya bilan istiqolchilar o'rtasida janglar qizib ketdi. Darvoz begi Telvarsho bilan Fo'zayl Mahdum qo'shinlari Qal'ayi Xumbda to'plandi. Qal'ayi Xumb - beklkning markazi bo'lib, u shunday Afg'oniston chegarasida joylashgan edi. Qorategin va Darvoz beklklarining birlashgan qo'shiniga qarshi qizil askarlar katta miqdordagi harbiy kuchlar va samolyotlarni tashlashdi. Vatanparvarlar bosqinchi qizil askarlarning ikkita samolyotini urib tushirib, ularning ancha jangchilarini o'ldirdilar.

Lekin, pirovardida bu jangda ham istiqolchilar mag'lubiyatga uchradi. U qyyidagicha yuz berdi. «12 avgustda Darvozning poytaxti Kal'ayi Xumb egallandi. Qal'ayi Xumbdan sovuq va o't ochuvchi qyrollar, bosmachilar va Salim Poshoning buyumlari qo'lga kiritildi», - deb yozgan edi o'sha paytda Toshkentda chiqadigan bolsheviklar gazetasi.

Atigi bir oy muqaddam vatanparvarlarning 2000 kishilik katta qo'shiniga boshchilik qilgan Fo'zayl Mahdumdek mashhur qo'rboshining ixtiyorida endi bor-yo'g'i 200300 yigit qoldi, xolos. To'qnashuvlarning birida u og'ir yarador bo'ldi. Fo'zayl Mahdum keyingi janglarga kuch to'plash uchun ham vaqtinchalik kurash maydonini tark etdi. U, birodari, - Darvoz begi Telvarsho va oz sonli askarlari bilan oirgalikda Afg'oniston chegarasidan o'tdi. Oradan 2 yil o'tgach, Telvarsho yana sobiq Darvoz bekligi hududida o'zining 300 kishilik dastasi bilan paydo bo'lib, qizil askarlarga qarshi janglar olib bordi. Fo'zayl Maxdum ham tez orada Sharqiy Buxoroga qaytib, yana o'zoq payt davomida bosqinchilarga qarshi hayot-mamot kurashida qatnashdi.

Vatanparvar kuchlar Qorategin va Darvozdagi mag'lubiyatlariga qaramay, Sharqiy Buxoroda qizil armiya qismlariga qarshi shiddatli janglar olib borishdi. Sharqiy Buxorodagi butun qo'rboshi dastalari 1923 yilning yozida Ibrohimbek tomonidan kapa kuch-g'ayrat sarf qilib birlashtirildi. Istiqlolchilarning soni 5000-7000 kishiga yetdi. Ibrohimbek endilikda yana Sharqiy Buxoro qo'rboshilarining tan olingan yagona yo'lboshchisi bo'lib qoldi. Ibrohimbek qo'rboshining o'zi Hisor vodiysi va Panj daryosi atrofida qator muvaffaqiyatli harbiy harakatlar va jang amaliyotlarini o'tkazdi. Hisor vodiysi o'zbek laqaylari yashaydigan joy yana Sharqiy Buxorodagi istiqloлчаilik harakatining e'tirof etilgan doimiy markazi bo'lib qolaverdi.

Surxon vohasida bo'lsa Xurrambek qo'rboshi o'z ta'sir doirasini kuchaytirib, bu yerdagi istiqloлча kuchlarga boshchilik qilardi.

1924 yil yanvarda Ibrohimbek qo'rboshi Vaxsh daryoyeining o'ng qirg'og'ida o'zining asosiy kuchlari bilan joylashgan edi. U Hisor vodiysida (asosan laqaylar yashaydigan Ko'ktosh tomonida), shuningdek, Vaxsh daryosi sohillarida qizil askarlarga qarshi bir qator kuchli zarbalar berishga muvaffaq bo'ldi. Bu paytga kelib, Sharqiy Buxoroda Xurrambek va Boymat (Kakaydi tomonida, hozirgi Qymqo'pg'on va Jarqo'rg'on tumanlarida), Mulla Niyoz, Rahmon Dodxoh, Boymurod (Dushanbe atrofida), Abdullabek (Vaxsh daryosining o'ng qirg'og'ida), Mulla Eson (O'rtako'lda), Usmonqul, Mirza Ali (Xovalingda), Barot To'qsabo (Baljuvonda), Alla Nazar Polvon (Kulobning janubi-g'arbida), Eshon Gish (Mo'minobodda), Telvarsho (Tagmay atrofida), Temir To'qsabo, Doston To'qsabo, Tog'ay Sari kabi qo'rboshilar dastalari bo'lib, ularning har biri ixtiyorida 400-350 jangchi bor edi.¹

Sharqiy Buxoroda o'rnatilayotgan sovet rejimi Ibrohimbek ko'rboshiga qarshi kurashda ham xuddi G'arbiy Buxoroda bo'lgani singari islom dini ulamolaridan keng foydalandi. Sharqiy Buxorodagi butun aholi o'rtasida katta nufuzga ega bo'lgan laqaylarning eng taniqli va mashhur mullasi Eshon Xo'ja Domullo

¹ Раджабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчалик ҳаракати, моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918-1924 йиллар). Т.: 1994, 30-35 бетлар

Donoxon Loqay revkomining qat'iy talabi bilan 50 kishilik delegasiyaga bosh bo'lib, 1924 yil 4 fevralda Ibrohimbek huzuriga jo'nab ketdi. Delegasiya Ibrohimbekni sovet hukumati vakillariga taslim bo'lishiga ko'ndirishi kerak edi. Sharqiy Buxoro istiqlolchilarining yulboshchisi Ibrohimbek ko'rboshi 11 fevralda Ingichka qishlog'ida bo'lgan uchrashuvda delegasiya a'zolariga qat'iy rad javobini berdi. Bu holdan qattiq g'azablangan qizil armiya qismlari Ibrohimbek qo'shiniga qarshi hujumga o'tdi. Ayovsiz o'tgan to'qnashuvlarning birida Ibrohimbek qo'lidan yarador bo'ldi, uning 5 ta qo'rboshisi va 75 ta yigiti o'ldirildi.

Ibrohimbek qo'rboshi bu mag'lubiyatga qaramasdan, 1924 yil mart-aprel oylarida Xisor vodiysi va Vaxsh daryosi atroflarida o'z harkatlarini faollashtirdi. Bu hol Turkiston frontidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Turkfront qo'mondoniga 1924 yil bahorda yuborilgan hisobotning Sharqiy Buxoro qismida quyidagicha ta'kidlanadi: «Bosmachilikning' asosiy markazi Vaxsh daryosi o'ng qirg'og'i, xususan, Surxon vohasi bo'lib qolishda davom etmoqda. Bobotog' va Surxon vohasida bosmachilikning pasayishi ko'zga tashlanmayapti, bu joylarda ularning miqdori juda tez o'sib, 545 kishini tashkil qilmokda. Dastalarning bir qicmi Sheroboddan sharqda va hattoki shimoli-g'arbda harakat qilmokda. Bu yerdagi dastalar juda ham harakatchan va epchil.

Ibrohimbek butun Sharqiy Buxorodagi markaziy siymodir. Unga Yavon Loqayidagi barcha qo'rboshilar buysunmoqda. Bobotog' va Surxon vohasidagi dastalar uning obrusini so'zsiz tan olmokda; chap qirg'oqdagi qo'rboshilar esa unga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunmoqdalar, bundan faq Eshmat mustasnodir.

Qashqadaryo Bohasida ham istiqlolchilar bu paytda muvaffaqiyatli jang harakatlarini olib borishdi. Buxoro MIK 1924 yil 28 mayda chiqargan «Sharqiy Buxoroni sovetlashtirish haqida»gi qarori bilan Sharqiy Buxoro ishlari buyicha Favqylodda Komissiyani tugatib, uning vazifalarini endilikda to'ziladigan Sharqiy Buxoro sovetlarining Ijroiya Komitetiga topshirdi. 7 iyunda bo'lgan Diktatorlik komissiyasining so'nggi kengaytirilgan majlisida ushbu qarorning ijrosi amalga oshirildi.

Sharqiy Buxoro Ijroqo'mining ma'muriy boshqaruviga Dushanbe, Qorategin, Kulob, Sariosiyo, Qo'rg'ontepa viloyatlari kiritildi.¹

Sharqiy Buxoroda G'arbiy Buxorodan farqli o'laroq, qizil armiya qismlari 1924 yilning ikkinchi yarmida sezilarli harbiy yutuqlarga erisha olmadi. Chunki faqat birgina Kulob viloyatining Xovaling va Baljuvon tumanlarida harakat qilgan Mirzo Dodxoh va Mulla Olim Mashinachi, Sho'robod va Dashtijum tumanlaridagi Pochchaxon Egamberdi, Alla Nazar va Jonxon, Dang'apa va Qizil Mozor tumanlaridagi Ortiq, Tog'ay Sari va Barot kabi qo'rboshilar qo'l ostida bir necha ming istiqlolchi bo'lgan. Qo'g'ontepa viloyati va Hisor vodiysida ham ularning katta kuchlari joylashgan edi.

1924 yil iyunda Akbar To'qsabo boshchiligidagi 300 kishi Kulob shahriga hujum qilib, shaharni qizil askarlardan ozod qildilar. Kizil armiya Oltoy brigadasining komandiri N.Tomin istiqlolchilar bilan bo'lgan jangda o'ldirildi. Ko'loblik mahalliy aholi istiqlolchilarga katta yordam berishdi. Lekin qizil askarlar katta miqdordagi harbiy kuchlarni to'plab, avgust oyida Kulobni qaytadan bosib olishdi. Ibrohimbek qo'rboshi bo'lsa iyunavgust oylarida Hisor vodiysida bir qator muvaffaqiyatli harbiy harakatlarni amalga oshirdi.

1924 yil 6 sentyabrda Ibrohimbek Orolto'qay (Aralto'qay) atrofida Sharqiy Buxoro qo'rboshilarining navbatdagi qurultoyini o'tkazdi. Mazkur anjumanda Said Olimxonning vakili ham qatnashdi. Unda qo'rboshilar kelgusi jang rejalarini muhokama qildilar. Qurultoy o'tayotganda 63-otliqlar polki jangchilari to'satdan hujum qilib, ularga tashlandilar. Ibrohimbek o'z safdoshlari bilan jang qilgan holda chekindi. 1924 yil yozi va ko'zida bo'lgan janglarda qizil askarlar tomonidan Sharqiy Buxoroda 50 qo'rboshi va 2500 yigit o'ldirildi, shundan 30 qo'rboshi Ibrohimbek mansub bo'lgan o'zbeklarning laqay urug'idan edi. Lekin Sharqiy Buxoroda hali katta miqdordagi vatanparvar kuchlar mavjud bo'lib, ular bosqinchi qizil armiya qismlariga qarshi milliy istiqlol kuryulini matonat bilan olib borardilar.

¹ Ўша китоб....36-37 бетлар.

Ma'lumki, 1924 yil ko'zida Turkiston mintaqasida milliy-hududiy chegaralash o'tkazilib, umumiy Turkiston negizida O'zbekiston va Turkmaniston SSR hamda Tojikiston ASSR (O'zbekiston SSR tarkibida), shuningdek, Qoraqalpog'iston muxtor viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida) to'zildi. Sharqiy Buxoro hududi asosan Tojikiston ASSR tarkibiga kiritildi. Bir-biriga qarshi kurashayotgan har ikki tomon yuzaga kelgan yangicha siyosiy vaziyatda o'z kuchlarini qaytadan tartibga keltirdi. 1924 yil sentyabr oyida RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi «O'rta Osiyodagi bosmachilikka qarshi kurash kengashlari haqida Nizom» qabul qildi. Mazkur Nizomga ko'ra, O'rta Osiyo hududida 1924 yil sentyabrda Markaziy respublikalar va viloyatlarning «bosmachilik»ka qarshi kurash doimiy kengashlari to'zildi. «Bosmachilik»ka qarshi kurash Markaziy kengashi Toshkent shahrida joylashgan edi.

Bu kengash faoliyatini RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining raisi boshqardi, unga o'rinbosar qilib O'zbekiston XKS (Xalq Komissarlari Kengashi)ning raisi tayinlanidi Keyinchalik ushbu kengashlar «bosmachilik»ka qarshi kurash komissiyalari deb nomlandi. Ular o'ta jirkanch va kabih usullar bilan istiqloлчаilarga qarshi kurashdilar.

Istiqloлчаilarga qarshi kurashda butun kuch va vositalarni markazlashtirish va birlashtirishga qaratilgan yo'l endilikda partiya va sovet hukumati tomonidan og'ishmay amalga oshirildi. Sovet totalitar rejimi tomonidan ko'rilgan ushbu chora-tadbirlarga qaramasdan istiqloлчаilar o'z kurashlarini bo'shashtirmadilar. 1924 yil 15-23 dekabrda Qarshi atroflarida Mustafoqul qo'rboshi o'zining 350 kishilik beshta dastasi bilan qizil askarlarning bir necha otryadini qirib tashladi. Keyin ular Boysun tomonga o'tib ketishdi. Qizil armiya qumondonligi istiqloлчаilarga qarshi birorta chora ko'rishga ulgurolmay qoldi.¹

Buxoro amirligi o'rnida tashkil topgan Buxoro respublikasida istiqloлчаilar qizil armiya qismlariga qarshi qariyb 5 yil davomida shiddatli jang harakatlarini olib borishdi. Bu kurashda buxoroliklar faqat o'z kuchlari va ichki imkoniyatlariga suyanib, jahondagi eng kudratli harbiy davlatning tish-tirnog'igacha qurollangan

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,130-132 бетлар

armiyasiga qarshi tura oldilar. 1924 yilning oxiri va 1925 yilning boshlariga kelganda G'arbiy Buxoroda istiqlolchilik harakati vaqtinchalik mag'lubiyatga uchradi. Shunday qilib, Buxoro respublikasi hududidagi istiqlolchilik harakatining birinchi davri poyoniga yetdi.

Sharqiy va O'rta Buxoro hududida esa bu harakat 1925 yilda ham pasaymadi, balki U avvalgidek davom etaverdi. Sovet tarixchilaridan birining yozishicha, 1925 yil yanvar oyida bu yerda 46 ta qo'rboshi ixtiyorida 1400 kishi bor edi.

Buxoro vatanparvarlarining ko'pchiligi o'z yurtlarining mustaqilligi va ozodligi uchun kurashlarda qyrbon bo'ldilar.

XULOSA

Tarix xalqqa saboq va ma'rifat beradi. Tarixni o'rganmasdan turib kelajakni anglab bo'lmaydi. Har bir inson xar bir xalq o'z o'tmishi va kechmishiniajdodlar tomonidan yaratilgan tarixiy kitoblarni sinchiklab o'qish va mutoala qilish orqlali bilib oladi. Tarix inson aqlg'idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo'jizakor mahsulidirki, uning ma'naviy qudrati va yordami bilan biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo'lamiz. O'tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, kurashlari va ziddziyatlari bilan ko'z o'ngimizda gavdalantiramiz. Inson tarixdan ta'lim-tarbiya oladi. Tarix saboqlaridan o'ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati qanday bo'lishi o'o' o'zidan ravshan.

Shu jihatdan olib qaralganda ham bugungi kunda Buxoroda yovqur bobolarimizning bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan kurashlari juda katta ahamiyat kasb etadi. 1991-yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganligi ajdodlarimizning sovet rejimiga qarshi uzoq vaqt davomida olib borgan qonli kurashlarining mantiqiy yakuni, tarix hukmi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi istiqlolchilik harakati o'z rivojlanish jarayonida katta ikki davrni bosib o'tdi. Birinchi davri 1920-1924 yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning o'zi ham mustaqil uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda (1920 yil kuzi g' 1921 yil oktyabr) sobiq amirlik hududida istiqlolchilik harakati boshlandi. Eng avvalo sharqiy va O'rta Buxoroda yuzaga kelgan bu harakat tez orada butun Buxoro hududini qamrab oldi va dastlabki g'alabalarga erishdi. Qizil askarlarga qarshi kurashni oldiniga Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon boshqarishga urindi. Biroq 1921 yil martda u Sharqiy buxoro hududidan Afg'oniston davlatiga o'tib ketdi. Muxojirlar qo'shiniga Sharqiy buxoroda Ibrohimbek Buxoro, Karmana, Nurota viloyatlarida esa mulla Abdulqahhor qo'rboshi rahbarlik qilishdi. Harakatning ikkinchi bosqichi (1921 yil noyabr -1922 yil avgust) uning eng kuchaygan davri bo'lib, bu mashhur sarkarda Anvar Poshshoning Buxoroga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Istiqlolchilar bu paytda deyarli butun Sharqiy Buxoroni qizil askarlar qo'lidan ozod qilishdi.

Dushanbe, Kulob, Qo'rg'ontepa, Hisor, Denov, Sherabot, Boysun kabi shaharlazri ularning tasarrufiga o'tdi. Qizil askarlar ixtiyorida faqat Yangi Termiz shahri va Boysun garnizonigina saqlanib qoldi. G'arbiy Buxorodagi istiqloлчаilar ham Mulla Abdulqahhor boshchiligida respublika poytaxti Buxoro shahrining katta qismi va uning atrof tumanlarini egalladilar. Shuningdek bu bosqichda muxolifatchilar O'rta Buxoroda ham bosqinchi Qizil armiya jangchilariga qaqshatqich zarbalar berishdi. Buxoro respublikasidagi istiqloлчаilik harakatining uchinchi bosqichida (1922 yil sentyabr-1924 yilning oxiri) harbiy harakat asosan ikki yo'nalish Sharqiy Buxoroda ibrohimbek boshchiligida va G'arbiy Buxoroda Mulla Abdulqahor yetakchiligida kechdi. Bu paytda Ibrohimbek, salim Poshsho, Mulla Abdulqahhor harakatga umumiy ravishda rahbarlik qildilar. Sharqiy buxorodagi qo'rboshilarni birlashtiruvchi kuch yana Ibrohimbek siymosida namayon bo'lsa ham ular bilan buxoro, karmana, nurota, G'arbiy Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va qisman Surxondaryo O'rta Buxoro viloyatlazridagi istiqloлчаilar o'zaro hamkorlikda ish olib bormadilar. Tarixan yaxlit va mushtarak Turkiston mintaqasida 1924 yilning oxiri va 1925 yilning boshlazrida milliy hududiy chegaralash o'tkazilishi natijasida Buxoro hududi O'zbekiston SSSR, Turkiston, Turkmaniston SSR, Tojikiston SSR va qisman Qoraqalpog'iston muxtor viloyati tarkibiga kiritildi. Harakatning ikkinchi davri 1925-1935 yillarni o'z ichiga oladi va o'z navbatida u ham mustaqil bir nechta bosqichlardan iboratdir. Bu davr o'n yil davom etib, o'zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan birinchi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu paytda kurash Sharqiy Buxoro asosan hozirgi Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining hozirgi Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy viloyatlarida kechdi. Harakatga umumiy qo'mondon Ibrohimbek edi. Buxoro qo'rboshilarining jangavor harakatlari 30 yillarning o'rtasigacha davom etdi.¹

“Biz-boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat vorislarimiz. Qadimiy tariximizni har tamonlama o'ganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va tahlikali davirlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi

¹ Қ.Ражабов Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.: «Маънавият» 2002,141-142 бетлар

kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashviyotlar, harbiy zafarlarga, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma'naviyat jasorat tuyg'usidir"¹

¹ Каримов И.А Юсак маънавият-енгилмас куч.Т.:”Маънавият” 2008,163-бет.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. Т. Ўзбекистон. 1996.
2. Каримов И.А. Ватан саждогоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. Т.Ўзбекистон. 1996й.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Тошкент. 2008 й
5. Қосимов Ф. Рашидов У.Бухорода қаршилик (“босмачилик”) ҳаракати тарихидан лавҳалар (1920-1924 йиллар) 1994й.
6. Қосимов Ф. Бухоро республикаси тарихшунослиги. Бухоро 1996й.
7. Раджабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш.Т.”Маънавият” 2002й.
8. Амир Сайид Олимхон Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.Тошкент: “фан”, 1991
9. Ф.Хўжаев Танланган асарлар. I том.
10. Хайрулла Исматулла. Хурриятга интилган хур қиз. “Миллий тикланиш” 2000 й
11. Ражабов Қ. Туркистон минтақасида совет режимига қарши қуролли ҳаракат. Т. 2005.
12. Генис В.Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году. 1993. №7.
13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.”Шарқ”. 2000
14. Шамсутдинов Р.Каримов Ш. Ватан тарихи 3-китоб. Т.2010.
15. Мустафо Чўқаев Истиқлол жаллодлари. – Т. 1993 йил.
16. Аъзамхўжаев С. Ж Туркистон мухторияти. Т:”Фан”, 1993.
17. Ўзбекистон тарихи. Проф. Р.Ў.Муртозаева раҳбарлигида. Т.: 2003.
18. Қиличев Р. “Отам босмачи эмасди. ...”. “Бухоро ҳақиқати” 1993 йил 13 февраль
19. Санаев И. Зиёвуддин тарихи.-Т.:”Шарқ”, 1995.
20. Алиев С. «Чўлпон наздида Бухоро». «Бухоро Ҳақиқати». 1997 й. 20 декабрь.

21. Ахрорий С. «Танланган асарлар». Тошкент. «Маънавият». 2001 йил. (Истиқлол қаҳрамонлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи Холида Ахророва).
22. Каримов Н. «Тақдир ўйини»./«Хуррият». 2001 йил. 29 август.
23. Маҳмудов М. «Барҳаёт сиймолар». Тошкент. «Ўзбекистон», 1991 й.
24. Наимов Н. «Бухоро жадиidlари». Тошкент. «Фан»-2000 й.
25. Ҳайитов Ш. «Биринчи муҳаррир»./ «Бухоронома». 2003 й. 10 сентябрь.
26. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. «Истиқлолнинг икки буюк фарзанди». Бухоро. 2003